

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 9 (497.1)

AQCHAYEV VOSIT SHAVKATOVICH

**XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA YUGOSLAVIYADA MILLIY
NIZOLARNING KUCHAYISH SABABLARI VA OQIBATI.**

5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha) mutaxassisligi
Magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi: "Umumiy tarix"
kafedrasi mudiri
_____ dots. M.M.Hoshimova
"_____" _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:
_____ dots.M.M.Hoshimova.

SAMARQAND 2014

**MAVZU: XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA YUGOSLAVIYADA
MILLIY NIZOLARNING KUCHAYISH SABABLARI VA OQIBATI.**

Mundarija:

	KIRISH.....	3-14-betlar
I BOB	SOBIQ YUGOSLAVIYA RESPUBLIKASIDA ETNO-MILLIY NIZOLARNING KELIB CHIQISH SHART-SHAROITLARI	
1.1.	Yugoslaviya federalizmi va uning etno-milliy masalasiga munosabati.....	15-26-betlar
1.2.	Broz Tito vafotidan keyin boshlanib ketgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tanqislik.....	27-32-betlar
1.3.	Respublikalararo nizolarning kuchayishi va yangicha ijtimoiy—siyosiy tartibotlarning qaror topishi (XX asr 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari).....	33-40-betlar
II BOB	BOSNIYA VA GERSOGOVINA HUDUDIDA MUSTAQILLIK SHAROITIDA ETNO-MILLIY NIZOLAR VA UNING OQIBATLARI	
2.1.	Bosniya va Gersogovinaning etno-milliylik hususiyatlari va elatlar o'rtasidagi fuqarolar urushi.....	41-50-betlar
2.2.	Deyton kelishuvi va fuqarolar urushining oqibatlari.....	51-60-betlar
III BOB	YUGOSLAVIYA ITTIFOQ RESPUBLIKASIDAGI (SERBIYA VA CHERNOGORIYA) ETNOSIYOSIY JARAYONLAR – MILLATLARARO KESKINLIKNING KULMINATSIYASI SIFATIDA	
3.1.	Mamlakatdagi vaziyatning umumiy holati.....	61-65-betlar
3.2.	Kosova inqirozi va uning oqibatlari.....	66-78-betlar
	XULOSA.....	79-82-betlar
	Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati.....	83-87-betlar
	Ilovalar.....	88-90-betlar

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. XX asr insoniyatni ulkan yutuqlarga yetaklash bilan birga, ayni chog'da «global» deb atalmish muammolar girdobiga ham tortdi. Hozirgi zamonning ana shunday muammolaridan birini milliy nizolar tashkil etadi. Ushbu muammolar chegara bilmas ziddiyatlarga olib kelishi dunyo hamjamiyatiga ayrim davlatlar misolida yanada oshkorlashdi. Bu borada Prezident I.A.Karimov «Shunday qilib, har qanday davlatning polietnikligi etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning etnoslar o'rtasida o'zaro tabiiy munosabat o'rnatilishiga tayanadigan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon mavjud bo'lishini nazarda tutadi. Bu hol, davlatning va mintaqaning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan etnik va millatlararo mojarolar kelib chiqqudek bo'lsa, ularning oldini olish maqsadida mazkur jarayonlarni muntazam ravishda ijtimoiy tahlil etib borishni zarur qilib qo'yadi», - deb ta'kidlab o'tgan edi¹. Darhaqiqat milliy masalani bugungi kunda davlatlar barqarorligi, mintaqalar havfsizlining bosh omili bo'lib qolmoqda. Milliy masalalar davlatlar suverenitetiga dahl soladigan eng katta havflardan biridir. Shunday ekan milliy masalani o'z holicha, mavjud sharoitlarni, tarixiy, etnik, diniy va boshqa omillarni e'tiborga olmasdan hal qilib bo'lmaydi. Buni sobiq Yugoslaviya misolida yana bir bor ko'rish mumkin.

Ma'lumki,

Bolqonuzoqtarixdavomida alohida geosiyosiy mintaqabo'lib kelgan. U Yevropa-Osiyo kommunikatsiyasida alohida o'rin kasb etish bilan birga, o'zining geografik joylashuviga ko'ra paydo bo'layotgan va tanazzulga uchragan davlatlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi bo'lib kelgan. Qadimgi dunyo davlatlari, Vizantiya, usmoniylar, gabsburglar kabi tarixiy-siyosiy subyektlar o'zlarining mustamlakachilik maqsadlarini amalga oshirish uchun mintaqani qamrab olgan ko'p sonli harbiy, etnik, diniy va boshqa to'liqlarni keltirib chiqardi va bu holat o'z asoratini qoldirmasdan ketmadi.

¹I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida. 6-jild. Toshkent, 1998, 81-bet.

Oxir-oqibat aynan qaysi jarayonlar nisbatan ahamiyatli bo'lganligini aytish qiyin, lekin ularning yakuni shu bo'ldiki, mintaqada katolik, provaslav va musulmon an'alarining diniy qarama-qarshiligi darhol bilindi, bu holat nisbatan sivilizatsiyalashgan deb ataluvchi yaqin tariximizda ham to'xtamadi. Ko'p jihatdan aynan tarixiy xotira va qadriyatlar mazkur mintaqaning beqarorligi bosh omilidan biri bo'lib keldi. 1878-yilgi Berlin Kongressidan keyin mintaqada ahvolning birmuncha o'zgarishi, Serbiya nufuzining ko'tarilishi, undan keyin sodir bo'lgan 1 va 2-Bolqon urushlari va Birinchi jahon urushi mintaqani birgina Serbiya orqali «e'tirof» etib bo'lmasligini ko'rsatib qo'ydi. Uning natijasida Antanta tomonidan Xorvatlar, slovenlar va serblar qirolligi tuzildi. Lekin ushbu holat ham Bolqondagi vaziyatni ushbu qirollik doirasida hal qilib bo'lmasligini ko'rsatib qo'ydi va natijada davlat nomi kengroq tushunchaga ega bo'lgan Yugoslaviya qirolligiga o'zgartirildi. Ikkinchi jahon urushi Bolqon muammosini yangi siyosiy qarorlar bilan hal qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Mazkur holatga gap mavjudlikning davlatsiz shakli bilan xususiyatlanadigan oldingi davr merosini bartaraf etish haqida bormoqda. Chunki mintaqada etnik qarama-qarshiliklar buzilgan edi. Mavjud sharoitdagi barcha holatlarni, birinchi navbatdagi etnik tomonni hisobga olib xalqaro konferensiyalarda yirikroq va barqaror Bolqon davlatini tuzish zaruriyati ilgari surildi. Shuning natijasi sifatida oltita davlatdan iborat Yugoslaviya federatsiyasi majburiy yo'l bilan vujudga keltirildi. Uning tarkibiga kiruvchi har bir respublika tashqi kuchlar ta'sirida Federatsiya tarkibiga kiritildi. XX asrning oxiriga kelib ikki yirik ko'pmillatli sotsialistik davlatlar – SSSR va Yugoslaviya parchalanib ketdi. Har ikki holatda ham «ittifoqlik» davlati konstitutsiyasi asosida har bir xalq o'zining huquqini o'zi belgilash vakolatidan foydalanishdi, lekin sobiq sovet davlatidan anchayin tinch kechgan parchalanishdan farqli ravishda, Yugoslaviyada respublikalarning ajralib chiqishi alohida yugoslav etnoslari o'rtasidagi keskin ziddiyatlar bilan kechdi va bu oxir oqibat fuqarolar urushlarini ham keltirib chiqardi, keskinliklarga xalqaro hamjamiyat aralashuviga olib keldi. Agarda ushbu holatlar sinchkovlik bilan tahlil qilinsa, Yugoslaviya davlatining tuzilishining o'ziyoq amalda xalq va etnoslarning

haq-huquqlarini cheklash yo'lida qo'yilgan birinchi qadamligini tushunish qiyin bo'lmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak davlatning federatsiya asosida boshqaruv tartiboti joriy qilingandan boshlab mamlakatda milliy nizolar avj olib bordi. Yugoslaviya federalizmining yuritgan siyosati bo'lsa millatlararo munosabatlarning barqarorlashuviga emas, aksincha tobora keskinlashib borishiga olib keldi. Bularning hammasi XX asrning so'nggi o'n yilligida eks-Yugoslaviya o'rnida mustaqil davlatlar ajralib chiqishi bilan yakunlanishi kerak edi. Amalda undan bo'lmadi, chunki tarixiy shart-sharoitlar, keyingi davr siyosiy tashabbuslari samarasi o'laroq mintaqada shunday etno-milliy vaziyat vujudga kelgan ediki, uni hal qilishning oson yo'li bo'lmagan.

Ma'lumki milliy nizolar, ularning sabablari va oqibatlari bugungi zamonaviy dunyoning eng keskin muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Siyosatdonlar va davlat arboblari, olimlar zamonaviy davlatlar va barcha xalqaro hamjamiyat uchun xavfli bo'lib kelayotgan «millatchilikining paydo bo'lishini», etnik o'z-o'zining anglash fenomenlarini chuqur tahlil qilishga harakat qilmoqda. Milliy nizolar bugungi dunyo barqarorligi uchun asosiy tahdid bo'layotgan etnik tozalash, genesid, aksildiniy va aksilmadaniyatlararo bag'rikenglik, siyosiy separatizm, ekstremizm va terrorizmning kengayishi bilan uzviy bog'liqdir. Shularga asosan bema'lol milliy nizolar bilan bevosita va bilvosita ko'pgina muhim zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar aloqadordir.

Bolqon, xususan sobiq Yugoslaviya hududi xalqaro keskinlikning asosiy manbasi bo'lib kelayotgan milliy nizolar to'liq bartaraf etilmagan. Mintaqaga xos bo'lgan o'ziga xoslik – istalgan milliy ziddiyatlarning o'chib davlatlararo keskinlikka aylanish imkoniyati mavjudligi, ko'p hollarda huquqlari buzib kelinayotgan xalq va elatlarning qurama va aralash istiqomat qilishlari – ushbumuammoning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. XX asrning ikkinchi yarmi yugoslaviya va sobiq Yugoslaviya tarixi tashkil qiladi. Bunda Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi tashkil topgandan boshlab, uning parchalanib ketishi va o'rnida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi davriga hamda millatlararo

nizolarning oqibatlarining bir jihatini ko'rsatish maqsadida XXI asr boshlariga oid voqealar va hodisalarga ham qisqacha murojaat qilingan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ushbu qismga biz umumiy Yugoslaviya tarixi bilan birgalikda bu davlat tarixi bilan bog'liq bo'lgan ayrim izlanishlarni ham yondashib o'tdik. Asosiy o'rganish obyektimiz hisoblangan Yugoslaviyadagi milliy keskinlikning kelib chiqishi va uning oqibatlari masalasini ko'proq til bilish imkoniyatimiz cheklanganligi sababli asosan Rossiya tarixshunosligida XX asrva XXI asr boshlarida e'lon qilingan ilmiy tadqiqot ishlari orqali o'rganish bilan kifoyalanishga majbur bo'ldik. Shuni alohida qayd etish kerakki, Rossiya slavyanlar dunyosi tarixini o'rganish bo'yicha eng ko'p sonli va malakali maktabga egadir. Har yili 20 ga yaqin universitetlarning turli fakultetlari Sharqiy Yevropadagi slavyanlar mamlakatlarining tarixi, iqtisodiyoti, geografiyasi, madaniyati va diplomatiyasi bo'yicha ko'plab matxassislarni yetishtirib chiqaradi. Moskvada Fanlar Akademiyasi negizida yarim asrdan buyon Slavyanshunoslik va bolqonshunoslik Instituti faoliyat olib bormoqda. Ana shu Institut qoshida Hozirgi zamon Bolqon inqirozini o'rganish Markazi tashkil etilgan. Lekin o'tgan yillar davomida ba'zi bir moliyaviy omillar tufayli mazkur markaz tomonidan sezilarli ishlar amalga oshirilmadi. Yugoslaviyadagi inqirozni RFA Slavyanshunoslik va bolqonshunoslik Instituti, RFA qoshidagi xalqaro iqtisodiy va siyosiy tadqiqotlar Instituti, RFA qoshidagi Yevropa Instituti, Rossiya tarixi instituti, Etnologiya va Antropolgiya institutlarining yetakchi olim va tadqiqotchilari turli xil ilmiy maqola va izlanish natijalarini e'lon qilib kelmoqda. Ushbu maqolalar 23 nomdagi gazeta va ilmiy jurnallarda e'lon qilinib kelgan. Yugoslaviyadagi milliy inqirozlar masalasida qilingan dastlabki ishlar sirasiga ikki to'plamni ko'rsatish mumkin: «O't ichidagi Yugoslaviya» (Yugoslaviya v ogne) va «Yugoslaviya inqirozi va Rossiya» (Yugoslavskiy krizis i Rossiya)². Ushbu to'plam mualliflari hujjatlar

²Югославия в огне: Документы, факты, комментарии (1990-1992): Современная история Югославии в документах. Т.1 / Отв. Ред. Е.Ю.Гуськова. – М., 1992. - 372 с. Югославский кризис и Россия: Документы, факты, комментарии: Современная история Югославии в документах. Т.2 / Автор, составитель, отв. ред. Е.Ю.Гуськова. – М., 1993. - 504 с.

orqali Bolqondagi voqealarning rivojini ko'rsatib, tahliliy maqolalarda ushbu voqealarga oid mulohazalarni izohlab berishga harakat qilishgan.

Moskvalik olimlarning Yugoslaviyadagi yuzaga kelgan vaziyat borasidagi dastlabki izlanishlari turli xil doira stollari, seminarlar, konferensiyalar, simpoziumlardagi chiqishlar bo'ldi, ushbu uchrashuvlar chog'ida nafaqat axborot almashishda, balki turli xil yondoshuvlar ilgari surilib, prognozlar bildirildi. Dastlabki ushbu soha bilan shug'ullanayotgan mutaxassislariga radio efirlariga ruxsat berilgan bo'lsa, ommaviy axborot vositalaridagi vaziyatning og'irlashishi ularni jurnal va gazetalarda chiqishlarni amalga oshirishga majbur etdi. Shu tariqa P.Volobuyev³ va L.Tyagunenko⁴, V.Volkova⁵, Ye.Guskovo⁶, Ye.Yeliseyeva⁷ kabilarning maqolalari markaziy Moskva gazetalarida e'lon qilingan edi. Gazetalarda maqola e'lon qilishning o'sha vaqtda eng murakkab tomoni shunda ediki, mutaxassislar keltirayotgan dalillar ko'pincha rasmiy nashrlardagi ma'lumotlarga to'g'ri kelmas edi. Masalan, muxarrirlar 1991-yildagi G'arbiy Sloveniyada serblarning genosid qilinishini, Xorvatiya, Bosniya va Gersogovinadagi serblar lagerlari haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilishni xohlamadilar. Shunga qaramasdan olimlarning 1992-yildagi dastlabki maqolalari informatsion blokadani yo'qqa chiqardi.

Asta-sekinlik bilan ilmiy asoslangan tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Mavzu doirasi e'lon qilingan eng sarmazmun ishlar qatoriga Slavyanshunolik Instituti direktori V.K.Volkovning «Yugoslaviya fojeasi»⁸ni ko'rsatib o'tish mumkin. Muallif bu maqolada inqirozning kelib chiqishini tahlil qilishga va uning

³ Волобуев И.В., Тягуненко Л.В. Югославский кризис: Довольно крови и страданий // Правда. – М., 1993. – 4 февр. – С.3; яна шу муаллифлар. Россия небезразлично, принесет ли долгожданный мир на югославскую землю план Вэйса-Оуэна // Правда. – М., 1993. – 27 февр. – С.1,3; яна шу муаллифлар. Судьба Балкан – вне контроля сообщества // Правда. – М., 1994. – 14 мая. – С.3.;

⁴ Тягуненко Л.В. Распад федерации – суровая реальность // Славяне. – М., 1993. – июнь- №6, - С.2.; шу муаллиф. Крушения славянства – трагедия мира // Спутник. – М., 1994. - № 10; ушбу муаллиф. Что происходит в Югославии? (Мировая сообщество обязано вмешаться)//Независимая газета. – М., 1991, - 11 июля. – С.4.; Волобуев И.В., Тягуненко Л.В.. Старых дрезей не бросает. Не ужесточить, а отменять санкции против Югославии// Правда. – М., 1992. – 16 сент. – С.3.; яна шу муаллифлар. Рискованный обгон. (Что за пешка с признанием Хорватии)//Правда. – М., 1992. – 26 февр – С.3.; яна шу муаллифлар. Сербский вопрос и интересы России //Московские новости. – М., 1992. – 21 июня. - №25.-С.13.

⁵ Волков В.К. Россия и сербы: Родство испытывается на прочность // Россия. – М., 1991. - № 1. – С.46-47.; яна шу муаллиф. Искать не врага, а решение // Московские новости. – М., 1993. – 21 февр. - №8, - С.7.

⁶ Гуськова Ю.В. Не надоело ли пожинать бурю?// Литературная газета. – М., 1992. 8 янв. С14.

⁷ Елисеева Е. Югославия наказаны. Кто следущий? // Учительская газета. М. 1992. – 4 авг.

⁸ Волков В.К. Трагедия Югославии // Новая и новейшая история. – М., 1994. - №4- С.3-32.

birinchi bosqichdagi rivojlanishiga e'tibor qaratishga harakat qilgan. Ushbu maqolada birinchi marta Rossiya tarixshunosligida Yugoslaviya muammosi umumbolqon va umumyevropa muammosi qatoriga qo'yilgan va ushbu bosqichdagi qarama-qarshiliklar bilan bog'langan edi. MDU professori E.B.Valevaning qator ishlarida inqirozning umumiy tafsiloti geograf mutaxassisi nuqtai nazaridan ochib berilgan edi.⁹Aftidan bu mazkur muammo bo'yicha qilingan keng qamrovli ishlardan biridir. Chunki unda xaritalar, statistik jadvallar va sxemalar ham keltirilgan edi. Lekin tiraji kam bo'lgan «Geografiya» gazetasida e'lon qilinganligi sabab, uni ayrim yirik kutubxonalardan topish mumkin bo'lgan. Iqtisodiyot fanlari doktori Yu.K.Knyazev «Federatsiya» jurnalida yangi Yugoslaviya va yugoslav federatsiyasi evolyutsiyasida sodir bo'lgan millatlararo munosabatlar keskinligining butun tarixini tahlil qilib berilgan maqolasini e'lon qilgan.¹⁰Inqirozning tarixiy sabablari haqidagi keng qamrovli maqola tarix fanlari doktori I.I.Leshilovskiyning 1994-yilda e'lon qilingan keng qamrovli maqolasida tahlil qilib berilgan.¹¹Bolqondagi millatlarning shakllanish tarixiy yo'lini qarab o'tgan olim shuni ta'kidlab o'tadi, «o'z-o'zini anglash formasi sifatida milliy mafkuraning tug'ilishi serblar va xorvatlarda mavjud o'ziga xosliklarga asosan amalga oshgan.Ularning etnosotsial taraqqiyoti diniy omillar bilan chegaralanishga olib keldi»¹². Yevropadagi jarayonlar nuqtai nazaridan yugoslaviya inqirozini qarab chiqish RFAning AQSh va Kanada Intsitutlarining Yevropa tadqiqotlari Markazi xodimlari tomonidan amalga oshirilgan va Markaz xodimlarining hammuallifdagi maqolasida o'z aksini topgan.¹³ Ushbu maqolada 1993-yilgi inqirozning «og'riqli nuqtalari» asoslari ko'rsatilib, Xorvatiyaning ushbu inqirozdagi roli asoslangan va ziddiyatga nisbatan tutgan Yevropaning ayrim davlatlari pozitsiyalari (birinchi marta Yugoslaviyaning qo'shnilari yondoshuvi

⁹ Валеv Э.Б. Югославский клубок.//География, - М., 1996. - №5,7,9,13,15,19.

¹⁰ Князев В.К. Трагическая судьба Югославии предупреждает // Федерализм. – М., 1996, - №3, - С. 139-154.

¹¹ Лещиловский И.И. Исторические корни югославского конфликта // Вопросы истории. – М., 1994. - № 5. – С.40-56

¹² Лещиловский И.И. Исторические корни югославского конфликта // Вопросы истории. – М., 1994. - № 5. – С. 43.

¹³ Давыдов Ю.П. Приходько О.В., Смирнов П.Е., Устинова Е.В. Югославский кризис: Интернационализация или интервенция? // США: Экономика, политика и идеология. – М., 1993. - № 8. – С.50-60.

ham) qarab chiqilgan. «Markaziy va Janubi-Sharqiy Yevropaning XX asrdagi tarixi» nomli darslikda Yugoslaviyaga bag'ishlangan qism kitobning kichik hajmdaligi bois sxematik xarakter bilan cheklangan.¹⁴

Kosovada inqiroz davom etayotgan bir paytda ham rossiyalik olimlar ushbu muammo bilan shug'ullanishda davom etishdi. Moskva Davlat universitetining tarix fakultetida 1993, 1995, va 1998-yillarda Ye.Yu.Guskova tomonidan “Bolqon inqirozining genezisi va Rossiyaning pozitsiyasi” mavzusida maxsus kurs o'qilgan. Shu davrda to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirgan holda muallif 2001-yilda 720 sahifadan iborat bo'lgan “Yugoslaviya inqirozi tarixi (1990-2000)” nomli kitobini nashrdan chiqardi. Ushbu asar yugoslaviya inqirozi borasida qilingan Rossiya tarixshunosligidagi keng qamrovli tadqiqotlardan biri bo'lib hisoblanadi. 1996-yilda RFA etnologiya Institutida M.Yu.Martinova bolqon inqirozining bir aspekti bo'lgan “Hozirgi zamon Bolqon inqirozining etnik aspektlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1998-yilda doktorlik dissertatsiyasi asosida muallif “Bolqon inqirozi: Xalqlar va siyosat” nomli monografiyasini e'lon qildi.¹⁵ Ushbu monografiyada sobiq Yugoslaviya hududidagi etnosiyosiy jarayonlar etnolog nuqtai nazaridan tahlil qilib o'tilgan. 1995-yilda “Bolqonning yangi etnosiyosiy xaritasi” (Мартынова М.Ю., Кошуба М.С. Новая этнополитическая карта балкан. – М., 1995. 164 с.) monografiyasi nashr qilindi. Qolaversa, ushbu masalaga bag'ishlangan bir qancha nomzodlik dissertatsiyalari ham himoya qilindi, jumladan, M.V.Ganin - keskinlikni bartaraf etishda YeIning roli, Ye.G.Ponomareva – yugoslav federalizmining inqirozi haqida, Ye.A.Lukashenko - Yugoslaviyaning parchalanishi haqida, V.S.Gushko – Yevropa Ittifoqining 1991-1995-yillarda Yugoslaviya inqirozi bo'yicha siyosati, V.K.Vnuk – Bolqon inqirozi bipolyar jahon parchalanishi kontekstida, I.S.Gruzdev – Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining parchalanishi shart-sharoitlari va sabablari va boshqalar.¹⁶

¹⁴ Никифоров К.В. Югославянские земля// история стран Центральной и Юго-Восточной Европы XX века: Учебное пособие для студентов высшей школы. – М.: 1997, - С.113-166.

¹⁵ Мартынова М.Ю. Балканский кризис: Народы и политика. – М., 1998. - 465 с.

¹⁶ Ганин М.В. Югославский конфликт и роль ЕС в его урегулирование: Автореф дисс. канд.политич.наук. – М., 1994; Пономарева Е.Г. Распад югославской модели федерализма: Автореф дисс.канд.политич.наук – М.,

Yugoslaviya federatsiyasi parchalanishi bilan bog'liq voqealar va uning natijasida yangi davlatlarning paydo bo'lishining chuqur tahlili, inqiroz manbalari, XX asrning 90-yillarida Bolqonda kechgan elatlar va millatlararo munosabatlar M.Yu.Martinovanning "Balkanskiy krizis: narodi i politika" M., 1998 g. Monografiyasining mazmun mohiyatini tashkil etgan. Rossiyada bevosita Yugoslaviya bilan shug'ullanishni asosiy tadqiqot yo'nalishiga aylantirgan Ye.Yu.Guskova uzoq yillar izlanishlari natijasida 2001-yilda "Yugoslaviya inqirozi tarixi (1990-2000)"¹⁷ nomli asarini e'lon qildi. Muallif inqirozning har bir holatini atroflicha tahlil qilishga harakat qilgan.

Yugoslaviya tarixiga bag'ishlangan umumiy mazmundagi tadqiqot ishlari va asarlarda ham Yugoslaviyada millatlararo munosabatlarning ziddiyatlashuvi va uning oqibatlari qisqacha yoritib o'tilgan. Bunday mazmundagi adabiyotlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "Xorvatiya tarixi"¹⁸, "XX asr Bolqondagi inqirozlari va etnosiyosiy to'qnashuvlari davrida inson"¹⁹, "XX asrda janubiy slavyanlarga qarshi g'arbning olti agressiyasi"²⁰, "Bolqon boshi berk ko'chasi (tupik)"²¹, "Iosip Broz Tito. Hokimiyat kuchi"²², "Serblar tarixi"²³, "Janubiy va g'arbiy slavyanlar tarixi"²⁴ kabilar. Undan tashqari shu soha bilan maxsus shug'ullanuvchi tadqiqotchilarning ham turli yillarda nashr qildirgan ilmiy maqolalaridan ham tadqiqot ishida unumli foydalanishga harakat qildik.

1995.; Лукашенко Е.А. Распад Югославии, его уроки и международные последствия (политологический анализ): Автореф дисс.канд.политич.наук – М., 1997.; Глушко В.С. Политика Европейского Союза в отношении Югославского кризиса 1991-1995 гг: Автореф дисс.канд.историч.наук – Екатеринбург, 2002.; Хортов А.А. Политика США в боснийском конфликте и косовском кризисе: Автореф дисс.канд.историч.наук – Ярославль, 2011; Абрамов А.В. Подходы к урегулированию этнополитических и этноконфессиональных конфликтов на постюгославском пространстве: Автореф.дисс.канд.политич.наук - М., 2006.; Груздев И.С. Предпосылки и причины распада Социалистической Федеративной Республики Югославии: Автореф дисс.канд.историч.наук – М., 2001; Внук В.К. Балканский кризис в контексте распада биполярного мира: Автореф дисс. канд.политич.наук. – М., 2002

¹⁷ Гуськова Е.Ю. История Югославского кризиса. (1990-2000). М., 2001.

¹⁸ Фрейдзон В.И. История Хорватии. Краткий очерк с древнейших времен до образования республики (1991 г.) – СПб.: Алетейя, 2001. – 318 с.

¹⁹ Человек на Балканах в эпоху кризисов и этнополитических столкновений XX в. Югославия ва умуан Болкон тарихининг айрим жиҳатларига боғлиқ илмий мақолалар тўплами.

²⁰ Миличевич Предраг. Шесть агрессий запада против южных славян в XX столетии.

²¹ Васильева Н., Гаврилов В. Балканский тупик?.. (Историческая судьба Югославии в XX веке). М., 2000. 480-с.

²² Уэст Ричард. Иосип Броз Тито. Власть силы.

²³ Чиркович С.М. История сербов. Перевод с сербского. М., «Весь Мир», 2009 – 448 с.

²⁴ История южных и западных славян: В 2т. Т.2. Новейшее время: Учебник / Под ред. Г.Ф.матвеева и З.С.Ненашевой. М., 2001, 272 с.

Tadqiqotning maqsad va vazifasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy maqsadi sobiq Yugoslaviyada XX asrning ikkinchi yarmida millatlararo nizolarning kelib chiqish sabablari, shart-sharoit va omillarini hamda uning oqibatlarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot ishida qo'yilgan asosiy maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etildi:

- millatlararo keskinlikning kelib chiqishini tanqidiy va qiyosiy tahlildan o'tkazish, ushbu ziddiyatlarning kelib chiqish omillarini atroflicha yoritish;
- sobiq Yugoslaviyada va parchalanishidan keyingi hududda etno-milliy ziddiyatlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish omillarini ko'rstib berish;
- Millatlararo keskinlikning mintaq va xalqaro nuqtai nazardan oqibatlarini ko'rsatib berish;
- Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirishda ishlab chiqilgan eng samarali usullarni ko'rsatib berish;
- Yugoslaviyadagi millat va elatlararo nizolarning kuchayishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi faktorlarni tadqiq qilish va tipologizatsiyalash;
- Bugungi kunda ushbu milliy nizolarning oqibati qanday bo'lganligini tahlildan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti – Yugoslaviya hududida millatlararo nizolar, nizolar rivojlanishining asosiy bosqichlari. Ularni bartaraf etishning tamoyillari va mexanizmi tashkil qiladi. Ushbu nizolar sobiq Yugoslaviya hududida umumiy tarzda, eks-Yugoslaviyada bo'lsa, Bosniya va Gersogovina hamda Yugoslaviya Ittifoq Respublikasi (Kosovo) misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot ishining predmetini Yugoslaviyadagi etnosiyosiy va etnodiniy nizolarni barqarorlashtirish yondoshuvlari tashkil etadi.

Dissertatsiyaning nazariy-metodologik asosi. Tadqiqotning nazariy asosini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlari, ma'ruza va nutqlarida ilgari surilgan xalqaro siyosat va millatlararo nizolar borasiga oid nazariy xulosalari tashkil etdi. Shuningdek, davlat va hukumat qarorlarida ilgari surilgan ilmiy-nazariy, ma'naviy-mafkuraviy ahamiyatga molik fikr-g'oyalar, metodologik va konseptual ko'rsatmalarga amal qilindi.

O'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, ko'p qismliligi va yetarli darajada (ayniqsa mahalliy sharoitda) ilmiy jihatdan o'rganilmaganligi tadqiqot ishiga kopleks yondoshishni belgilab berdi. ijtimoiy voqelikni bilish va o'rganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish tamoyillariga tayanildi. Asosiy e'tibor yuz bergan voqealarning o'zaro dialektik aloqadorligiga qaratildi. Undan tashqari tadqiqot ishining metodologik asosi ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda millatlararo nizolar paradigmasi hisoblanadi, qaysiki barcha ko'rnishdagi inzolar jamiyat taraqqiyotida ajratib bo'lmaydigan hodisa ekanligi jihatidan ushbu jihatga qaraymiz. Lekin qayd etish kerakki, milliy nizolar ko'pincha o'z ortidan etnosiyosiy tanglikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham bu turdagi nizo va keskinlikning barchasi jamiyat uchun xavfli va halokatli hisoblanadi. Shu xildagi ziddiyat va nizolarni o'rganish orqali asosiy e'tiborni ogohlik va barqarorlashtirish masalasiga qaratmog'imiz lozim. Metodologik jihatdan dissertatsiya Yugoslaviyadagi millatlar va elatlararo nizolarning taqqosiy-siyosiy metodiga asoslanadi. Undan tashqari tadqiqot ishida nima uchun boshqa joydagi mavjud shu xildagi ijtimoiy-siyosiy institutlar Yugoslaviya sharoitida samarali bo'lib chiqmasligi hamda nizolarning kelib chiqishida milliy an'ana va qadariyatlar, tarixiy xotiraning o'rnini ko'rsatib berishga yordam beruvchi siyosiy-madaniy metoddan, voyealarning tizimli ravishda rivojlanib borishini kuzatish va tahlil imkonini beruvchi, voqea subyektlarini har taraflama o'rganuvchi kontent-tahlil kabi usullardan foydalandik.

Dissertatsiya tadqiqot ishining ilmiy yangiligini Yugoslaviya hududida millatlararo nizolarning kelib chiqish sabablari etnosiyosiy va etnodiniy keskinliklar nuqtai nazaridan kompleks tarzda tahlil qilish tashkil qiladi. Mazkur tadqiqot ishi – respublikamizda jahon tarixining ushbu mintaqa tarixiga bag'ishlangan dastlabki ishlardan biri hisoblanadi. Unda dissertant imkoniyat darajasida asosan Rossiya tarixshunosligida masalaga oid e'lon qilingan ishlardan (internet orqali topish va o'qish mumkin bo'lgan barcha ishlar) kompleks foydalanish orqali mavzuni ochib berishga harakat qilgan. E'tiborga molik tomoni aynan shu mavzuda rus tarixshunosligida qilingan bironta tadqiqot ishi yo'q.

Aksariyat ishlari masalaning turli tomonlari bilan cheklangan. Mavzuni kichik qismlardan yana ham kengroq tadqiq etish uchun ilmiy-manbaviy adabiyotlar bilan ta'minlanganlikning cheklanganligi to'sqinlik qiladi.

Tadqiqot ishida etno-milliy ziddiyatlar etnosiyosiy keskinliklar negizi ostida Yugoslaviyaning umumiy muammosi sifatida tahlil qilinadi, uning negizigacha kirib borilgan va shu orqali milliy nizolarning mazkur hududda rivojlanish faktorlari ko'rsatib o'tildi. Yugoslaviyadagi millatlararo nizolarning eng katta oqibatlaridan biri shu bo'ldiki, bu nizolar umumyevropa miqyosidagi keskinlikka aylanib ketdi. Buni barqarorlashtirish xalqaro hamjamiyat ishtirokida amalga oshirildi. Mavzu doirasining cheklanganligi ushbu vaziyatga xalqaro kuchlar ta'siri masalasini ochiq qoldirishni taqozo etdi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

- Sobiq Yugoslaviya davlatining paydo bo'lishi amalda Bolqon, xususan davlatning o'zida kutilgan milliy barqarorlikni olib kelmadi. Federatsiya shaklidagi boshqaruv apparati yo'l qo'yilgan kamchiliklar, qonunchilik sohasida milliy siyosat masalalarining noziklik bilan hal etilmasligi, millatlar va elatlar o'rtasida federatsiya miqyosida notenglikka yo'l qo'yilishi – bularning barchasi ertami-kechmi milliy tanglikni keltirib chiqarishi aniq edi.
- Yugoslaviya hududining etnik xilma-xilligi va qonunchilikda etnoslar masalasining noto'g'ri hal qilinishi. O'ylab topilgan yangi «yugolsav» millatining ahamiyati, sobiq Yugoslaviyada «millat», «etnos» tushunchalari o'rtasidagi tafovutlar.
- Yugoslaviya federatsiyaning parchalanishida milliy masalaning hal qiluvchi rol o'ynaganligi. Mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi va shu nomdagi xalqlarning mamlakat chegarasidan tashqarida ko'plab qolib ketishi.
- Bosniya va Gersogovinadagi fuqarolar urushi va xalqaro hamjamiyat tomonidan o'ziga xos «trialda» - xorvatlar, serblar va musulmonlardan iborat davlat boshqaruvining koalitsion shakli o'ylab topilishi va joriy etilishi.
- Serbiyada boshlangan buyukserbchilik harakatlari, muxtoriyat huquqlarini cheklash, Kosovo va Metoxiyadagi albanlar ahvoli, armiyaning

fuqarolar urushiga aralashuvi, NATOning Kosovo inqiroziga ishtiroki va inqirozning umumiy oqibatlarini.

Ilmiy-amaliy ahamiyati. Mazkur magistrlik tadqiqot ishi mamlakatimizda jahon arixining muhim va dolzarb tomonlarini o'rnashga munosib hissa qo'shadi deb hisoblaymiz. Mazkur dissertatsiya ishining materiallari, asosiy takliflari va natijalari nafaqat shu soha bilan shug'ullanuvchilar uchun qiziqarlidir, balki jahon tarixining eng yangi davri dolzarb masalalarini o'qitishda alohida kurs sifatida foydalanish mumkin. Magistrlik dissertatsiyasining tahliliy xarakterdaligi bo'lsa unga qiziquvchilar doirasini yanada kengaytiradi deb o'ylaymiz. Ushbu mavzuni o'rganish orqali mamlakatimizda tinchlik, faravonlik va taraqqiyotning eng asosiy omillaridan biri millatlar va ealatlari o'rtasidagi munosabatlarning samimiyliligi, Konstitutsiya bilan barcha fuqarolar etnik, diniy va boshqa ijtimoiy jihatlaridan teng huquqli ekanligining belgilab qo'yilishi va diniy tolerantlik siyosatining ustuvorligini tushunib yetish imkonini beradi.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy xulosa vanatijalari bo'yicha ilmiy to'plamlarda 4ta maqola tezis e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Tadqiqotning umumiy hajmi 90 betni tashkil etadi.

1-BOB.SOBIQ YUGOSLAVIYA RESPUBLIKASIDA ETNO-MILLIY NIZOLARNING SHART-SHAROITLARI.

1.1. Yugoslaviya federalizmi va uning etno-milliy masalasiga munosabati.

Ikkinchi jahon urushi vaqtida mamlakatning ozod etilishi (bunda sobiq sovet davlatining ishtiroki katta bo'ldi) sobiq SSSRda shakllangan ijtimoiy siyosiy tizimdan kam farq qiluvchi sotsialistik tuzum qirilishi boshlandi. 1945-yil 29 noyabrda Ta'sis skupshinasi monarxiyani bekor qildi va Yugoslaviya Federativ Xalq Respublikasi (YuFXR) tuzilganligini rasmiy ravishda e'lon qildi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, Yugoslaviya o'sha vaqtlarda xalq respublikalari e'lon qilingan davlatlar ichida birinchi bo'lib ma'muriy-buyruqbozlik tizimini rad etib, sotsializm qurilishining yangi metodlari yo'llarini izlanishini va mamlakatda demokratiya qurilishini e'lon qildi. Hech bir davlat 40 yil davomida Yugoslaviyada bo'lgani singari ijtimoiy-iqtisodiy tizimda shunchalik ko'p o'zgarishlar, islohotlar va shunchalik ko'p konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritgan emas. Garchi avval boshdanoq Yugoslaviya markazlashgan davlat sifatida tashkil topgan bo'lsa ham, milliy muammolar davlatni avval federatsiyaga, keyinroq amalda konfederatsiyaga o'tishga majbur qilgan. Mamlakat oltita respublikalardan tashkil topdi, Serbiyaning o'zi tarikbida ikkita avtonom o'lkani birlashtirgan edi. Respublikalar o'rtasidagi chegaralar kommunistlardan iborat komissiya tomonidan o'z bilarmonchasiga o'tkazilgan edi, bu chegaralar etnik hududlarga umuman to'g'ri kelmas edi. Agar bordiyu chegara masalasida baxslar vujudga kelgudek bo'lsa, u holda bitta asosga tayanilgan, ya'ni sotsialistik davlatda ma'muriy chegaralar hech qanday rol o'ynamaydi. Lekin, quyida biz chegaralarning federatsiyaning parchalanishida va bo'lg'usi mustaqil davlatlarning hududlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi jahon urushigacha Yugoslaviyada rasman oltita diniy e'tiqodga ruxsat berilgan edi. XX asrning 80-yillarida diniy e'tiqodlarning 35 xili (ba'zi manbalarda 45 tagacha bo'lganligi ko'rsatiladi) qayd etilgan. Yugoslaviya hududida diniy mansublik birinchi navbatda milliy kelib chiqishga ko'ra belgilangan. Unga ko'ra serblar, chernogorlar va makedonlar – provoslavlar,

slovenlar va xorvatlar – katoliklar, slavyanlar – musulmonlar, albanlar va turklar – musulmonlar sifatida qaralgan. Protestantlar tarkibiga nemislar, vengrlar, chexlar va slovaklar kirgan. Ilovadagi jadval bu holat quyidagicha namoyon bo'ladi: (Ilovadagi 1-jadval)

Undan tashqari sobiq Yugoslaviyada rasman xalq maqomida bo'lmagan ko'plab etnik guruhlar ham istiqomat qilar ediki, ularning ayrimlari son jihatidan hatto rasmiy xalq maqomidagilardan ham ko'proqni tashkil qilgan. Masalan, albanlar soni makedonlar va chernogorlar sonidan ko'proqni tashkil qilgan. Shuning uchun bo'lsa kerak avval boshdanoq sobiq Yugoslaviya davlatida milliy masala kun tartibidagi eng dolzarb masala sifatida qaralib kelingan. Millat va elatlarning hududda joylashuvi uzoq tarixga borib taqalishi vaziyatni yanada murakkablashtirib yuborgan. Rasmiy jihatdan Yugoslaviya federatsiyasi oltita federatsiya davlatidan iborat bo'lgan. Bular – Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Serbiya (Voyevodina va Kosovo hamda Metoxiya avtonom o'lkalari bilan birga), Sloveniya, Xorvatiya va Chernogoriya. Yugoslaviya respublikalari orasida Bosniya va Gersogovinadan tashqari barchasida bitta xalq ko'pchilikni tashkil etadi va respublika nomi uning nomi bilan ataladi.²⁵ Chernogoriya chernogorslar butun aholining 61,5% ni, Xorvatiyada xorvatlar - 77,9%; Makedoniyada-makedonlar - 64,5%; Sloveniyada - slovenlar - 87,6%; Serbiyada - serblar - 65,8% (muxtor o'lkalarsiz Serbiyada - 87,3%), Bosniya va Gersogovinada musulmonlar aholining 43,7% ni, serblar - 31,4% va xorvatlar - 17,3% ni tashkil qiladi. Etnik munosabatlar eng xilma-xil bo'lgan respublika Serbiya hisoblangan, u yerda 3/4 miqdorda turli xil serb bo'lmagan elatlar istiqomat qilgan.

Davlat tuzumining etnik faktorlarga qaramligi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning ko'plab masalalarining millatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan yondoshib hal qilishni taqozo qilgan. Bu esa respublikalarda milliy harakatlarning paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan omillardan biri bo'lib xizmat qildi. Quyida havola qilinadigan jadvallardan sobiq Yugoslaviya

1. Виноградов В.Н. Об исторических корнях «горячих точек» на Балканах // Новая и новейшая история. М., 1993. №4, С.36

hududidagi respublikalar aholisining etnik hilma-xilligi borasida yaqqolroq tasavvurga ega bo'lish mumkin, (Ilovaga qaralsin)

Yugoslaviyaning ma'lum ma'noda parchalanishiga sabab bo'lgan milliy nizolarning vujudga kelishi bu davlatning bevosita tuzilishi tarixi bilan ham bog'liqdir. Ma'lumki, Birinchi jahon urushi yakuniga yetgach 1918-yilda Bolqondagi janubiy slavyanlar istiqomat qilib kelayotgan hududning katta qismi Serblar, xorvatlar va slovenlar Qirolligi (1929-yildan boshlab Yugoslaviya Qirolligi) tarkibiga kiritilgan edi. Yangi davlat tuzilishi hamonoq ikkita siyosiy oqim shakllandi, ulardan biri xorvatlarniki, ikkinchisi serblarniki edi. Xorvatlar oqimi Radishlar boshchiligidagi Xorvat dehqon (respublikachi) partiyasi atrofida birlashgan bo'lsa, serblar Nikola Pashich rahbarligida Serb radikal partiyasi atrofida birlashdi. Ikki harakat ham davlat tuzilishi tamoyillari borasida turlicha yondoshuvlarga ega edi. Xorvatlar partiyasi markazlashmagan federal davlat tartibotining tarafdori bo'lsalar, serblar markazlashgan unitar davlat tashkil qilish istagida edilar. Qirollik 33 ta viloyatga bo'linadi va rasman olib qaraganda xalqlar o'rtasida tarixan shakllanib kelgan chegaralar yo'q qilindi. Ikki harakat o'rtasidagi keskinlikning eng kulminatsion nuqtasi 1928-yilda sodir bo'ldi, shu yili XDP yetakchisi Stepan Radich parlamentda o'ldirildi.²⁶ Shunday qilib serblar va xorvatlar o'rtasidagi tushunmovchilik davlat paydo bo'lgan dastlabki kunlardan boshlangan edi. Radich o'limidan so'ng qirol Aleksandr I 1929-yilda parlamentni tarqatib yuboradi va etnik asosdagi siyosiy partiyalarni ta'qiqlab qo'yadi. SXS Qirolligi Yugoslav Qirolligi nomi bilan o'zgartirildi, bu bilan mamlakatga noetnik asos berilganligi ko'rsatilgan bo'ldi.²⁷ Mamlakat qaytadan 9 ta ma'muriy birlikka – *banovinga* bo'lindi.²⁸ Lekin, 1939-yilda xorvatlar tomonining talabi bilan milliy gomogenizatsiya siyosatini yumshatishga majbur bo'lishdi. Kompromiss natijasida Xorvat banovini tashkil etildi va bu etnik tamoyil asosidagi yagona provinsiya bo'lib qoldi. Ushbu voqeani federalizatsiya yo'lidagi birinchi urinish sifatida

²⁶История Югославии. В 2 томах. Т.11. М., 1963. С 109

²⁷ Миличевич П. Шесть агрессий запада против южных славян в XX-ом столетии. М.,1999. С.41..

²⁸ Романенко С.А. Югославия: от «братства и единства» к войне и распаду //Очаги тревоги в Восточной Европе (Драма национальных противоречий). Сборник статей. М., 1993, С.257.

baholash mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, yugoslav davlati paydo bo'lgundan boshlab to parchalanib ketguniga qadar mintaqada etnoslararo munosabatlarning keskinligiga olib kelgan o'ziga xos tarzda doimiy katalizator rolini bajarib kelgan ikkita faktor mavjud bo'lib kelgan. Ulardan biri iqtisodiy soha bilan bog'liqdir (alohida xalqlarning iqtisodiy taraqqiyotidagi hamon bartaraf etilmagan va an'anaviy davom etayotgan notenglik). Ikkinchisi etnik faktor hisoblanadi. Urushgacha va urushdan keyingi federativ Yugoslaviya davrida ham Serbiyaning bosh shahri Belgrad butun Yugoslaviyaning poytaxti, serblar bo'lsa butun aholining uchdan birini tashkil etishi haqidagi fakt shunga olib keldiki, barcha narsa markazga bog'liq holatda belgilanadi, va birinchi navbatda Serbiyaning manfaati doirasida amalga oshiriladi. Bu esa millatlararo va respublikalararo munosabatlarda keskinlikning nafaqat saqlanishida qo'shimcha faktor bo'lib xizmat qildi, balki kuchayishiga ham turtki berdi. Yugoslaviya qirolligi davrida milliy masalalar na siyosiy, na iqtisodiy va na madaniy jihatdan hal qilinmadi. Mamlakatning birinchi nomlanishi bo'lgan Serblar, xorvatlar, slovenlar Qirolligi nomining o'ziyoq bu uchta xalq polietnik davlatda teng huquqli sifatida tan olinganligini ko'rsatib turardi. Milliy kam sonli xalqlarning masalasi o'ziga xos bo'lgan. Chernogorlar avtomatik tarzda serblar tarkibiga qo'shilgan bo'lsa, Vardar Makedoniyasida (uni Janubiy Serbiya deb atashgan) serblashtirish siyosati o'tkazilgan.²⁹

«Birinchi» Yugoslaviya deb ataluvchi davlat ikkinchi jahon urushi yillarida yo'q bo'lib ketdi. 1945-yilda tashkil topgan Yugoslaviya Federativ Xalq Respublikasi (YuFXR) barcha sohalarda, jumladan, siyosatda, iqtisodiyotda, madaniyatda va etnik sohada favqulotda og'ir meros qabul qilib oldi.³⁰

Ikkinchi jahon urushidan keyingi «ikkinchi» Yugoslaviya federativ davlat bo'ldi. Yangi tashkil topgan hukumat urush yillarida asosiy shiorga aylangan «Birodarlik va birlik»ning keyingi davrda ham amal qilinishiga ishonishga harakat qilishdi. Yugoslaviya Xalq Ozodligi Antifashist Vechesining 1943-yil 29-

²⁹ Мартынова М.Ю. Балканский кризис: Народы и политика. – М., 1998. С. 25.

³⁰ Виноградов В.Н. Об исторических корнях «горячих точек» на Балканах // Новая и новейшая история. М., 1993. №4, С.38

noyabrdagi II sessiyada "Federativ asosda Yugoslaviyaning tuzilishi haqida" qaror qabul qilgan edi.³¹ Yugoslaviyaning federativ davlat ekanligi 1946-yilgi Konstitutsiyada ham mustahkamlanib qo'yildi.³² Unga ko'ra yuqoridagi olti respublika yugoslavfederatsiyasini tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Lekin Serbiya tarkibidagi ikki muxtor o'lkada beshta kam sonli millat vakillari butun aholining uchdan birini tashkil etgan Kosovoda (dastlab u ham muxtor viloyat bo'lgan) bo'lsa albanlar aholining asosiy qismini tashkil qilgan. Ushbu konstitutsiyaga muvofiq Yugoslaviya «federativ davlat ko'rinishida birgalikda yashash huquqini bildirgan teng huquqli xalqlarni birlashtirgan respublika shaklidagi ittifoq xalq davlati» ekanligi belgilab qo'yildi.³³ Shuni ta'kidlash kerakki, federatsiya tarkibidagi olti davlat konstitutsiyasining birinchi paragrafida respublikaning «boshqaruvning respublika shaklidagi xalq davlati» ekanligi qayd etib o'tilgan edi. Yugoslaviyaning siyosiy va iqtisodiy taraqqiyoti shundan guvohlik berdiki, uning ichki siyosati markaz va avtonomizm o'rtasidagi tebranib turgan. Urushdan keyingi yillarda respublikalararo keskinlik unchalik sezilmagan. Aksariyat shu soha mutaxassislari ushbu holatni yana bir jihat bilan, ya'ni Iosif Broz Titoning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori bilan ham izohlashadi. Ammo shunday bo'lsa ham uning boshqaruvi vaqtidayoq milliy masala kun tartibiga bot-bot ko'tarila boshlagan edi. Uning boshqaruvi yillarida Yugoslaviya markazlashgan davlat sifatida namoyon bo'lib, «milliy masala hukumat tomonidan oxirigacha hal qilingandek» edi. 1959-yilda albanlarning talabi bilan etnik kamsonlilik maqomini tartibga solish zaruriyati paydo bo'ldi, bu esa Yugoslaviya xalqlari o'rtasidagi munosabatlarning reorganizatsiyasiga olib keldi. Uning ustiga XX asrning 60-yillarida ayrim iqtisodiy va siyosiy masalalar bo'yicha respublikalar o'rtasida baxslar boshlanib ketdi. Yugoslav ittifoqi tamoyillarini ko'rib chiqish masalasi kun tartibiga ko'tarila boshlandi. Bularga barham berish maqsadida 1963-yilda

³¹ Романенко С.А. Югославия: от «братства и единства» к войне и распаду //Очаги тревоги в Восточной Европе (Драма национальных противоречий). Сборник статей. М., 1993, С. 263.

³² Социалистическая Федеративная Республика Югославия. [Elektronresurs]. // <http://ru.wikipedia.org/wiki/>. – Murojaatqilingansana: 11.02.2014.

³³ Конституция и основные законодательные акты Федеративной Народной Республики Югославии. М., 1956. С.46

Yugoslaviyada yangi konstitutsiya qabul qilindi³⁴. So'nggi maqsadga erishish uchun kommunistik ijtimoiy munosabatlar tuzish ushbu konstitutsiyada ta'kidlangan edi. Shuholatning o'zi ham mamlakatda millataro keskinlikni bartaraf etishdagi urinishlardan biri ekanligini ko'rsatib turibdi. Aynan shu davrdan boshlab etnik prinsipdagi dastlabki namoyishlar boshlandi. 1968-yilda Kosovoda albanlarning norozilik namoyishi o'tkazilgan bo'lsa, 1971-yilda tarixga «Xorvat bahori» nomi bilan kirgan Xorvatiyani milliy harakatlar qamrab oldi.³⁵ Federal hukumatga qarshi qaratilgan ikki harakat ham markaz siyosatida birlashgan serb aholisiga nisbatan ham norozilik bildirilgan edi. Bu davr ayni vaqtda 1974-yilgi Konstitutsiyaga tayyorlov bosqichi bo'ldi.

1967-yildan 1971-yilgacha bo'lgan oraliqda 1963-yilgi Konstitutsiyaga jami 42 marta tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritildi. 1968-yilgi Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishga muvofiq respublikalar va muxtor o'lkalar huquqlari yana kuchaytirilib, har bir xalq va elatlarga o'z mehnatidan o'zi bahramand bo'lish huquqi e'tirof etildi. Federatsiya har qanday investitsion funksiyasidan voz kechdi va moliyaviy majburiyatlarni ham o'z bo'ynidan soqit qildi. Uning o'rniga tinchlik uchun kurash, «o'z-o'zini boshqarish manfaatlaridagi birlik» uchun kurashlarni tartibga soladigan bo'ldi. Hatto federatsiya organlari bevosita respublika va muxtor o'lkalarda tenglik asosida tashkil etilishi belgilab qo'yildi.

Federatsiyada radikal o'zgarishlar 1974-yilgi konstitutsiyaga asosan o'tkazila boshlandi. YuSFR ning ushbu yangi konstitutsiyasida barcha xalqlar va elatlar o'zlarining suvereniteti va boshqaruvini birinchi navbatda o'z respublikalari va muxtor o'lkalari doirasida amalga oshirishligi belgilab qo'yildi. Respublika va muxtor o'lkalarga iqtisodiy, ma'muriy, madaniy va boshqa jabhalarda katta mustaqilliklar berildi. Konstitutsiya mualliflarining fikricha, «federatsiyadagi yangi tipdagi munosabatlarning» keyingi taraqqiyoti «respublika va o'lkalardagi o'z-o'zini boshqarishning rivojlanish darajasiga» qarab belgilanadi. Konstitutsiyada

³⁴ Социалистическая Федеративная Республика Югославия. [Elektronresurs]. // <http://ru.wikipedia.org/wiki/>. – Murojaatqilingansana: 11.02.2014. Ma'lumki, ushbu konstitutsiyaga ko'radavlatnomi Yugoslaviya Sosialistik Federativ Respublika nom bilan o'zgartirilgan edi. (YuSFR)

³⁵ Хорватская весна [Elektron resurs]. // <http://ru.wikipedia.org/wiki/>. – Murojaat qilingan sana: 18.02.2014.

respublika skupshinasi barcha iqtisodiy muhim masalalarda federatsiya funksiyasini bajarishi e'tirof etildi.

Undan tashqari respublikalar va o'lkalar o'z huquq va majburiyatlari manfaatlarini doirasida talab bo'ladigan bo'lsa o'zlarining qonunlarini qabul qilishini belgilandi. Lekin ushbu qonunlar ittifoq qonuniga zid bo'lmasligi kerak edi. Respublikalar va muxtor o'lkalar YuSFR tashqi siyosati doirasida o'rnatilgan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar va organlar bilan hamkorlikni olib borishlari va xalqaro shartnomalarni imzolashlari mumkin edi. Xuddishunday huquq jamoalarga, mehnat asosida birlashgan turli tashkilotlar va boshqa o'z-o'zini boshqarish tashkilotlariga ham berildi. Respublikalar va muxtor o'lkalarning umumdavlat miqyosida katta o'z-o'zini boshqarishni qo'lga kiritganligini federatsiyaning oliy hokimiyat organi bo'lgan Skupshina va YuSFR Prezidiumida tenglik asosida vakillarga ega bo'lishligida ham ko'rish mumkin edi. Masalan, Skupshina palatalaridan biri bo'lgan Ittifoq Vechesi tarkibiga har bir respublikadan 30, o'lkalardan 20 nafar delegatlar kiritildi. Boshqa palata bo'lgan Respublikalar va o'lkalar Vechesiga har bir respublika Skupshinasidan 12, muxtor o'lkalardan 8 nafar delegatlar a'zo bo'lishligi belgilab qo'yildi. Ko'p palatalik o'rniga ikki palatali tizim qaror topdi. Ikki palata ham teng huquqli bo'lsada, ammo respublika va o'lkalarning Vechesi alohida respublika va o'lkalarning manfaatlarini muvofiqlashtirish bo'yicha bir qator muhim vakolatlarga ega bo'lgan. Qonunni qabul qilish yoki rad qilish ham ushbu Veche ixtiyoriga berildi. Konstitutsiyada Respublikalar va o'lkalar Vechesi barcha respublikalar delegatlari ishtirok etgan taqdirda o'z kengashida qaror qabul qilishi, ushbu qaror qachonki Vechening barcha delegatsiyalar rozilik bergandagina qabul qilinishligi belgilab qo'yildi.³⁶

Lekin, keyingi tajriba shuni ko'rsatdiki, respublikalarning xo'jalik va siyosiy mustaqilligining kengaytirilishi butunlay federatsiya manfaatiga xavf soldi va amalda respublikalar o'rtasida aloqalar yo'qoladigan konfederatsiyaga aylanishiga olib keldi. Respublikalararo munosabatlar tizimidagi eng zaif

³⁶ Гуськово Е.Ю. Парламентаризм в Югославии. (Elektron resurs) - <http://guskova.ru/w/present/2003-may>. Murojaatqilingansana: 12.03.2014.

bo'g'inlardan biri o'zaro ovoz berish degan tizim bo'ldi. Respublika skupshinalariga iqtisodiy siyosat borasida keng vakolatlar berilishi amalda respublikalararo munosabatlarning keskinlashuviga, bu esa o'z navbatida 80-yillarga kelib millatlararo keskinlikka olib keldi. Xuddi shu holat Serbiyaning rsepublikalar bilan munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ldi. Ayniqsa, Serbiya va muxtor o'lkalari munosabatlarida ahvol tanglashib bordi. Sababi federatsiya tarkibidagi boshqa respublikalarda muxtor o'lkalar yo'q edi. Respublikalar skupshinalari tomonidan qabul qilinadigan qaror faqat shu respublika uchun taalluqli edi. Aslida 1974-yilgi konstitutsiyaga ko'ra muxtor o'lkalar ham boshqa respublikalarga berilgan vakolat va huquqlarga teng bo'lgan imtiyozlarga ega bo'lgan edi. Konstitutsiyadagi ushbu noaniq talqin muxtor o'lka raxbarlarini Serbiya respublikasidan to'liq mustaqillikka intilishiga olib keldi, ya'ni ular boshqa respublikalar maqomiga teng maqom uchun harakat boshlashdi. Paradoksal vaziyat vujudga keldi, ya'ni Serbiya skupshinasi qabul qilgan qonunga muxtor o'lkalarda veto qo'yilgan va aksincha holat sodir bo'la boshladi. Bu esa Serbiyani boshqa respublikalardan farqli ravishda o'z hududining to'la qonli egasi bo'lolmasligiga olib keldi. Bu esa 1974-yilgi konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishni taqozo qildi, unga ko'ra respublikalar va muxtor o'lkalar o'rtasida ma'lum bir iyerarxik munosabatlar o'rnatildi. Unga ko'ra hokimiyat muxtor o'lkalarda qonunchilik, adliya, armiya va militsiya kabilarda vakolatlarga ega bo'ldi. Sal keyingi davrga murojaat qilsak, 1990-yil sentyabrida Serbiyaning yangi konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning maxsus moddasida muxtor o'lkalar faqat hududiy muxtoriyat shaklida ekanligini belgilab qo'yildi: «Respublikada Voyevodina va Kosovo hamda Metoxiya muxtor o'lkalari hududiy muxtor o'lka shaklida mavjuddir». Ushbu konstitutsiyaning 4 moddasida «Respublika hududi yagona, bo'linmas va ajralmas» deb e'lon qilingan edi.³⁷

YuSFR fuqarolarining shaxsiy hujjatlarida millat ko'rsatilmagan. Fuqarolarga o'z millatini belgilash yoki belgilamaslik huquqi konstitutsiya bilan mustahkamlanib qo'yilgan edi. Ushbu konstitutsiyaviy modda

³⁷Мартынова М.Ю. Балканский кризис: Народы и политика. – М., 1998. С. 31.

1991-yilgi mamlakat aholisini ro'yxatga olish haqidagi Qonunga ham kiritilgan edi va ro'yxatga olish qog'oziga aks ettirildi. Ushbu tadbir ro'yxatga oluvchilarga ko'paytirish yoki uni kamaytirish borasida ehtimoliy bosimlardan qochish uchun amalga oshirilgan edi. Birmuncha oldinroq davlat milliy siyosatining elementlaridan biri sifatida yugoslav singari aholi kategoriyasini belgilash haqida qaror qabul qilingan edi. konstitutsiyaviy huquqidan foydalangan aholining ma'lum qismi o'zlarini yugoslavlilar deb atadi. Ro'yxatga olish materiallari publikatsiyasida keltirilishicha, o'zlarini yugoslavlilar deb ataluvchi aholi va o'zlarining hududiy jihatdan aloqadorligi tomonidan atovchi shaxslar YuSFR Konstitutsiyasiga muvofiqdir: mamlakat aholisining ushbu ikki kategoriyasiga o'z millatini belgilamagan shaxslar guruhi birlashdi. Yana shuni ta'kidlash kerakki, o'zlarini yugoslavlilar deb atagan odamlar kelgusida Yugoslaviyada xalqlar yagona yugoslav millatini shakllanishiga amin edilar. Yugoslavlilar spesifik (maxsus) guruh sifatida birinchi marta 1961- yilda paydo bo'ladi, ularning soni 317 mingni tashkil qilgan, 1981-yilda yugoslavlarning soni 1 mln. 219 minggacha yetdi va mamlakat aholisining 5,4% tashkil etdi. Xorvatiyada ularning miqdori umumiy hisobda - 8,2%, Voyevodina - 8,2% , Bosniya va Gersogovina - 7,9% ni tashkil etgan. Kosovo va Metoxiyada - 2,5 ming (0,2%), Makedoniyada – 14 ming (0,7%), Sloveniyada - 26 ming (1,45%) yugoslav istiqomat qilgan. O'zlarini yugoslav deb atashning zahirida ko'pincha milliy sabablar yotgan, bu ularga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlagan. Xuddi shu sababga ko'ra, Xorvatiyadagi serblar o'zlarini yugoslavlilar deb atagan edi. Statistik ko'rsatkichlar yugoslavlilar sonining ortib borganligini ko'rsatadi. 1971-1981-yillar oralig'idagi o'n yillik davr mobaynida o'sish quyidagicha bo'ldi: Xorvatiyada - 1,95% dan 8,2% gacha, Voyevodina - 2,4% dan 8,2% ga, Chernogoriyada - 2,1% dan 5,3% ga; Serbiyada - 1,5% dan 4,7% ga o'sdi. O'zlarini yugoslavlilar deb atagan aholining etnik, ijtimoiy va yoshi haqida ma'lumotlar mavjud emas. Ko'pincha enik aralash nikohdan bo'lganlarning farzandlari, kam sonli elat vakillari, ilm-fan va san'at arboblari siyosat darg'alari o'zlarini yugoslavlilar deb ataganlar. Ro'yxatga olishdagi ma'lumotlardagilardan aslida yugoslavlilar deb ataganlarning soni ko'p

bo'lgan. O'z vaqtida YuSFRda o'zlarini yugoslavlilar deb atovchi aholi guruhini millatni ko'rsatuvchi jihat sifatida emas, ma'lum bir etnik birlik deb qarash haqida masala ham ko'tarilgan edi. Ammo ushbu masala o'z yechimini topmadi.

YuSFRda musulmonlar borasida alohida qarash mavjud bo'lgan. yugoslaviyada musulmonlar sifatida diniy e'tiqodga mansub kishilar tushunilmagan, balki Yugoslaviya xalqlarining etnonimlaridan biri bo'lgan. 1948-yilgi ro'yxatga olishda ular aniqlanmagan figura sifatida qayd etilgan bo'lsa, 1911-yilgi ro'yxatga olishda musulmonlar etnik birlik sifatida, 1971-yilda elatlar sifatida qayd etilgan. Etnosiyosiy tarix va konfessional jarayonlar bilan bog'liq faktorlarni hisobga olganda va ushbu guruh madaniyatining o'ziga xosligi mazkur alohida xalqning nima sababli shakllanishini tushunish imkonini beradi. Avval boshda ushbu aholi guruhini bosanlar, bosniylar yoki bosnyaklar deb atalgan. Bosniyaliklarga ko'pincha islomga e'tiqod qiluvchilar mansub bo'lib, ularning ko'pchiligi kelib chiqishiga ko'ra janubiy slavyanlarga borib taqaladi. YuSFR bosanes etnonimi garchi kundalik hayotda, oxirgi kunlarga siyosiy arboblarning chiqishlarida bu etnonim ishlatilgan bo'lsada, ammo rasman tan olinmagan. Musulmon etnonimi ayrim juz'iy o'zgarishlarga qaramasdan rasmiy hujjatlarda va aholi ro'yxatga olishida qo'llanilgan. Bu esa chalkashliklarga olib kelgan. Chunki, odatga ko'ra musulmonlar deyilganda islomga e'tiqod qiluvchilar tushunilgan, ammo bu etnik guruh tarkibiga islom e'tiqodidagilardan tashqari, ateistlar ham kirgan. Musulmonlarning katta qismi (1981-yilgi ro'yxatga olishga ko'ra 80% dan ortig'i) Bosniya va Gersogovinada istiqomat qilgan. Bu yer Usmoniylar imperiyasi tomonidan Bolqon yarim orolida o'tkazilgan islomlashtirish siyosati nisbatan samara bergan hudud hisoblanadi. Islomga e'tiqod qiluvchi ushbu mintaqaning aholisi usmoniylar davrida ma'lum bir imtiyozlar bilan kelgan turklar, arablar, Kavkaz aholisi va boshqa shaxslar bo'lgan. Garchibu kelgindilarning soni kam bo'lsada, ammo ularning madaniyati mahalliy aholinikiga kuchli ta'sir o'tkazgan. Usmoniylar davrida Bolqon aholisining ma'lum qismi islomga o'tishadi. Bundan maqsad imtiyozlarni saqlab qolish (feodallar, amaldorlar va savdogarlar) yoki imtiyozlarga ega bo'lish (dehqon va hunarmandlar)

bo'lgan. Uning ustiga XVII asr oxiri va XIX asrning oxirgi choragida Bosniya va Gersogovinaga janubiy slavyanlar hududlarining turli burchaklaridan (Boka, Dalmatsiya, Lika, Slaveniya, Serbiya va boshqalar) musulmonlarning ommaviy kelishi ham sodir bo'ldi. Uning natijasida bu yerda kelib chiqishi janubiy slavyanlarga taqaluvchi va oldingi dini xristianlik o'rniga islomni qabul qilganlar to'planib bordi. Aynan shular XX asrning ikkinchi yarmida YuSFR musulmonlar deb ataluvchi elatning asosini tashkil qilgan. Faqatgina barcha faktorlarni (tarixiy, ijtimoiy, huquqiy va diniy) umumiy tarzda tahlil qilgan holda Bosniya va Gersogovinada alohida elatiga aylangan musulmonlar deb ataluvchi elatning shajaraviy kelib chiqishini va o'ziga xos madaniyatini izohlash imkonini beradi.

Yugoslaviyada milliy inqirozlarga sabab bo'lgan omillardan yana birini YuSFRda milliy kam sonli elatlarga bo'lgan munosabat tashkil qiladi. YuSFRda elatlararo va respublikalararo munosabatlardagi muammolar va milliy manfaatlarni muhokama qilishda ittifoq, respublika va o'lka darajasida tashkil etilgan millatlararo munosabatlar bo'yicha komissiya institutidan keng foydalanilgan.³⁸ Shuningdek YuSFRning respublikalar va o'lkalar Skupshinasi Vechesida yeatrli darajada rivojlanmagan respublikalar va muxtor o'lkalarning iqtisodiy taraqqiyoti masalalari bo'yicha Qo'mita ham faoliyat yuritgan. Zaruriyat tug'ilganda muvaqqat ittifoq yoki respublika komissiyalari, ishchi guruhlar (masalan Kosovo muammolari bo'yicha) tuzilgan. Elatlararo munosabat masalalarining u yoki bu ko'rinishi bo'yicha YuSFRda bir qator ilmiy muassasalar ham shug'ullanishgan. Milliy-hududiy birlikka ega bo'lgan etnik kam sonlilarning (Yugoslaviyada ularni elatlar deb atashgan) huquqlarining himoyasi borasida ularning muammolari mamlakatni siyosiy-hududiy jihatdan jamoalar va ularning vakolatlarini kengaytirish hisobiga hal qilingan. Aholi ushbu qismining teng huquqliligi konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan ham tartibga solinishga harakat qilingan. Etnosiyosatga asosiy e'tibor XX asrning 50-yillar oxiridan qaratila boshlandi. 1959-yilda etnik kam sonlilar (elatlar) hayotining ayrim masalalari haqida maxsus qaror qabul qilindi. 1963-yilgi va 1974-yilgi Konstitutsiyalarda

³⁸ История Югославии. Elektron resurs. Wikipedia.org. Murojaat qilingan sana: 14.02.2014

ularning teng huquqli ekanligi yana bir bor kafolatlandi. Federatsiyaning ushbu kafolatlari respublikalar Konstitutsiyalarida va muxtor o'lkalarning konstitutsiyaviy qonunlarida o'z aksini topdi. Maktablar to'g'risidagi Asosiy qonun va uning asosida qabul qilingan qo'shimcha ittifoq qonunlari va respublika qonunlarida kam sonlilarning ona tilida ta'lim olishi kafolatlandi. Ushbu qonunga ko'ra, kam sonli aholi istiqomat qiluvchi tumanlarda maktabgacha bo'lgan muassasalarda, sakkiz yillik maktablarda, gimnaziya va maxsus maktab va universitetlarda o'z tillarida ta'lim olgan, qolaversa, ushbu tilda dars beruvchi mutaxassislar tayyorlangan. Qonunda ikki tilli maktablar ochish ham ko'zda tutilgan. 1986-1987-o'quv yilida YuSFRda 1570 ta asosiy maktablar va 272 ta o'rta maktablarda kam sonli elatlar tillaridan dars berilgan (ushbu ro'yxatga kam sonlilar tilida dars beriluvchi alohida sinfga ega bo'lgan maktablar ham kiritilgan). Bunday maktablarning asosiy qismini alban maktablari (1221-asosiy va 165-o'rta), venger (152 ta asosiy va 66-o'rta), turk (mos ravishda 62 va 13), rumin (31 va 7), bolgar (31 ta asosiy maktab), italyan (27 va 11), slovak tilidagi (26 va 7) tashkil qilgan; undan tashqari qator maktablarda ta'lim chex, rus va ukrain tillarida ham berilgan. Universitetlarda milliy kam sonlilar tillarida o'qish uchun alohida bo'limlar tashkil qilingan. Millat kam sonli xalqlarga o'zlarining madaniy jamiyatlarini tashkil etishga, matbuotlarini yo'lga qo'yishga ham ruxsat berilgan. Masalan, 1988-yilda alban tilida 351 kitob, venger tilida - 116 kitob, chex va slovak - 74, italyanchada - 59, ruminchada - 53, turk tilida - 25, rus tilida-12, bolgar tilida-722 nomdagi kitob nashr qilingan. 1987-yilda jami 94 nomdagi gazeta va 65 nomdagi jurnallar nashr qilingan bo'lsa, alban tilida (mos ravishda 35 va 14) va venger tilida (32 va 18) bo'lgan. umuman olganda Yugoslaviyaning barcha konstitutsiyalarida (1946, 1963, 1974-yillarda) xalqlar va elatlarning teng huquqliligi kafolatlangan edi. Masalan so'nggi konstitutsiyaning 154-moddasida «Milliy, irqiy, jinsiy, til, e'tiqodi, ijtimoiy va savodiga qaramasdan fuqarolar huquq va majburiyatda tengdirlar. Barcha qonun oldida baravardir» deb qayd etilgan edi. Garchi huquqiy jihatdan milliy masala tartibga solingan bo'lsa ham,

ammo hayotda bunga to'liq amal qilmadi, bu esa Yugoslaviyada milliy nizolarning kuchayishiga olib keldi.

1.2.Broz Tito vafotidan keyin boshlanib ketgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tanqislik.

1980-yilda I. Broz Tito – yugoslav kommunistlarining almashmas yo'l boshchisi va yangi Yugoslaviyaning bir necha o'n yilllar davomidagi raxbari vafot etdi. Ushbu holat federatsiyaning keyingi taqdiriga ta'sir qilmasdan qolmas edi. Ko'p jihatdan ushbu insonning shaxsiyati mamlakat ichki va tashqi siyosatida eng muhim masalalarni hal qilishda muhim faktor bo'lib kelgan, uning o'zi tuzgan tuzumdagi avtoriteti millatlararo munosabatlarning keskinlashib ketishiga yo'l qo'ymay keldi.³⁹

Balki shunga bog'liq ravishda bo'lsa kerak, Broz Tito vafot etishi bilan oq YuSFRda iqtisodiy inqirozlar sodir bo'la boshladi. Bu esa o'zining ortidan ijtimoiy, siyosiy va milliy ziddiyatlarni keltirib chiqardi. 1981-yilda Kosovo muxtor o'lkasida milliy chiqishlar boshlanib ketdi. 1982-yilning mayidayoq yugoslaviyalik olimlar «doira stoli» atrofida to'planib mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy beqarorlik muammolarini muhokama qilgan edilar. Shu paytga kelib yetilib qolgan iqtisodiy muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: mamlakat tashqi to'lov qobiliyatining og'ir ahvoldaligi, sanoat ishlab chiqarishining pasayib ketishi; mamlakat tashqi to'lov qobiliyatini sohasini qo'llab-quvvatlashda umumiy va strukturaviy nomutanosiblikning kuchayishi; talabning mamlakatning real moddiy va moliyaviy imkoniyatlaridan oshib ketishi; inflyatsiyaning kuchayishi; ishlab chiqarish mehnatining va xo'jaliklarning mahsuldorligining pasayib ketishi; ishsizlik muammosining keskinlashuvi; aholi turmush darajasi va ish haqilarining tushib ketishi; ijtimoiy tafovutlarning kattaligi va hk. Mamlakatda yarim tayyor va xom ashyoga, elektr energiyasiga, keng iste'mol mollari taqchilligi sodir bo'la boshladi.

³⁹ История южных и западных славян: В 2 т. Т.2. Новейшее время: Учебник / Под ред. Г.Ф.Матвеева и З.С.Ненашевой. М., МГУ, 2001. – 272 с. С.191

YuSFR da iqtisodiy rivojlangan va qoloq hududlar o'rtasidagi tofovut va daraja kuchayib ketdi. Rus olimi E.V.Valev parchalanish arafasidagi Yugoslaviyaning iqtisodiy jihatdan beshta kategoriyaga taqsimlaydi: «rivojlangan respublikalar – Sloveniya va Xorvatiya; o'rtacha taraqqiy qilgan o'lka – Voyevodina; kam rivojlangan respublika – Serbiya (muxtor o'lkalarsiz); kuchsiz rivojlangan respublikalar – Bosniya va Gersogovina, Makedoniya va Chernogoriya; alohida taraqqiy qilmagan o'lka - Kosovo». Sloveniya respublikasi boshqa respublikalarga qaraganda iqtisodiy taraqqiyoti bilan ajralib turgan. Bu esa slovenlarga ular Yugoslaviyani boqayotganligini ayta boshlashiga olib keldi. Ularning fikricha Serbiya bo'lsa boshqa mintaqalarning tabiiy boyliklarini ekspluatatsiya qilayotganlikda aybladilar. Markaz va respublikalar o'rtasida Federatsiya Fondi mablag'larining taqsimlash masalasida doimiy ravishda bahslar bo'lib keldi, ayniqsa bu mablag'larning kam rivojlangan respublikalarga va Kosovo o'lkasiga kreditlash masalasida bu yanada keskinlashib ketdi. 1988-yilgi ma'lumotlarga ko'ra Sloveniyada har ming kishining o'rtacha 685 nafari band bo'lgan bo'lsa, Kosovoda bu ko'rsatgich bor yo'g'i 223 kishini tashkil qilgan. 1989-yilga kelganda ishchi va xizmatchilarning o'rtacha ish haqi mamlakat bo'yicha o'rtacha darajaga asosan solishtirganda Sloveniyada 154% ni, Xorvatiyada – 110,34 %, Kosovoda bor yo'g'i – 58,98%, Makedoniyada bo'lsa – 68,3 % ni tashkil qilgan xolos.⁴⁰

Iqtisodiy tahlilchilarning fikriga ko'ra, XX asrning 80-yillar o'rtalariga borganda Yugoslaviya yagona xalq xo'jaligi kompleksi sifatida mavjudligi tugadi: taxminan respublika va o'lkalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning 2/3 qismi umuman mamlakat chegaralaridan tashqariga chiqmagan, faqatgina 1/4 miqdoridagi tovar massasigina o'zaro almashinilgan. Garchi 1982-yildayoq Iqtisodiy barqarorlik bo'yicha uzoq muddatli dastur qabul qilingan bo'lsa ham, mamlakatda boshlanib ketgan inqirozlarni bartaraf eta olmadi. YuSFR da o'zaro iqtisodiy aloqalarni cheklash sifatida «do'st bo'lmagan» respublikalardan keltiriladigan

⁴⁰ Васильева Н., Гаврилов В. Балканский тупик?.. (Историческая судьба Югославии в XX веке). М., 2000. С.282.

tovarlarni nafaqat aholi tomonidan, balki savdo tashkilotlari tomonidan ham baykot qilinishi usuli qo'llanilgan.

Iqtisodiy tanazzul o'z navbatida siyosiy beqarorlikni ham keltirib chiqardi. Mamlakat siyosiy hayotidagi bu davrdagi eng havfli holat yana qaytadan konfederalizm tendensiyaning kuchayishi bo'ldi. Mamlakatda federal organlarning o'z qarorlarini hayotga tadbiq etish qobiliyatini yo'qotish arafasiga kelib qoldi. Federatsiya funksiyasi Markazning respublika va o'lkalarga to'liq qaram bo'lgan manfaatlariga xizmat qiluvchi institutiga aylana bordi. Bu haqida M.Sarevich dunyoda mavjud bo'lib turgan 28 ta federatsiyalar ichida faqatgina yugoslavfederatsiyasi ana shunday tarqoq deb ta'kidlab o'tgan edi. Taniqli iqtisodchi B.Xorvat bo'lsa Yugoslaviyaning 1974-yilgi konstitutsiyasining ayrim bandlari «1861-yilgi Avstriya konstitutsiyasidan yozib olingan» va shuning uchun ham mamlakat «sakkizta feodal pashaliklarga» bo'linib ketganligini qayd etib o'tadi.⁴¹

Ijtimoiy-siyosiy tizim faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish sohasida ham jiddiy muammolar ko'zga tashlanib qoldi. Serbiya Fanlar Akademiyasida bo'lib o'tgan muloqot chog'ida yugoslav jamiyatining siyosiy tashkiloti tez orada samarasiz (neeffektivniy) bo'lib qolishligi ilgari surildi. Respublikalar organlari ittifoq qonunlarini agarda ularning manfaati ilgari surilmagan bo'lsa bajarmay qo'yishdi, «federal ijroiya organi ko'p sonli shartnoma va kelishuvlar girdobida qoldi va yetarli darajada kuchga ega emas». Boshqaruv tizimi to'liq ishdan chiqdi, xatto u ijtimoiy jarayonlarga ta'sir o'tkaza olmay qoldi.

Qarorlar juda sekinlik bilan qabul qilingan, bunda barcha nuqtai nazarlar hisobga olingan. Federal Markaziy boshqaruvning kuchsizlanishi respubliklar markaziy hokimiyatining kuchayishiga va ayni vaqtda «hududiy mintaqalarni qamrab olgan avtarkiyaga, mamlakat bo'ylab mahsulaotlarning, pul mablag'larining va ishchi kuchlarining o'z holicha aylanishiga» olib keldi. Mamlakatda «islohotchilar» va «konstitutsionalistlar» o'rtasida kurash avj oldi, bunda ular o'rtasidagi mafkuraviy chegara respublika chegaralari bilan uzviy mos

⁴¹ Гуськова Е.Ю. История Югославского кризиса. (1990-2000). М., 2001, С.64.

tushar edi: Konstitutsiyani o'zgartirish va federal organlar rolini kuchaytirishni Serbiya, Chernogoriya va Makedoniya qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, ularga Sloveniya va Xorvatiya qarshi chiqdi. Yugoslaviyada siyosiy tuzumning bunda inqirozi sabablari va unga yechim topish borasida bir qancha mutaxassislar izlanish olib bordi. 1985-yilda ekspertlar guruhi siyosiy tizimning zaifligi sabablarini tahlil qilish ustida ish boshladilar. Ularning faoliyati yakunida ommaga keng hajmdagi «Sotsialistik o'zini o'zi boshqarish siyosiy tizimi funksiyasining tanqidiy tahlili» nomli hujjat e'lon qilindi. Lekin ushbu hujjat ham siyosiy inqirozni bartaraf eta olmadi. Hujjatda tahlilchilar inqirozdan chiqishning aniq bir yo'lini ko'rsatib bera olmadilar, bor yo'g'i tavsiyalar berishdi xolos.

XX asrning 80-yillari o'rtalariga kelib respublikalar imkoniyatlarining kuchayishi va millatchilikning keskinlashuvi Federatsiya mavjudligiga dahl qila boshladi. Davlatning ko'p millatligi sharoitida paydo bo'ladigan istalgan ko'rinishdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar milliy muammolarga aylanib ketadi. Respublikalar rahbariyati bo'lsa, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikriga tayangan holda milliy muammolarni o'zlarining iqtisodiy va siyosiy maqsadlariga erishish yo'lida foydalanishdi. Shuning uchun ham federal boshqaruv davrida markaziy hokimiyatni kuchaytirish borasida sezilarli ishlar olib borilmadi. Rossiyalik olim Z.V.Klimenko Yugoslaviyadagi siyosiy inqirozning sabablaridan biri sifatida «Federatsiyaning alohida subyektlariga berilgan huquq va vakolatlarga konstitutsiyaviy maqomning to'g'ri kelmasligi»ni ko'rsatib o'tadi. Bu esa Yugoslaviyada federatsiyada konstitutsiyaviy tizim yaxlitligining buzilishiga olib keldi.

1987-yil 29 dekabrda YuSFR Skupshinasi Ittifoq vechesi yig'ilishida YuSFRning Konstitutsiyasiga o'zgartirish haqida loyiha qabul qiladi. Ushbu loyihaning eng katta bahsi moliyalashtirish masalalarida, YuSFR Prezidiumini saylash tartibotida, yetarli rivojlanmagan respublika va o'lkalar uchun Federatsiya fondinining transformasiyasida, ittifoq organlari kompetansiyasida, respublika va o'lka Vechelarida qaror qabul qilish tartibi, YuSFR Skupshinasida birlashgan mehnat Vechesini qayta tiklash, qarorlar qabul qilishda konsensus tamoyilini

cheklash masalalarida kechdi. Har bir respublika o'z manfaatidan kelib chiqib ushbu loyihaga munosabat bildirishdi. Sloveniya tomonining talabi bilan ushbu loyiha bandlariga yana qator o'zgartirishlar kiritildi.

1988-yil 25 noyabr kuni YuSFR Skupshinasi federatsiyaKonstitutsiyasiga 39 ta o'zgartirish kiritish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zgartirishlarning aksariyati xo'jalik mexanizmi bilan bog'liq bo'lib, unda federatsiyava respublikalarning o'zaro munosabatlarida yangi yondoshuv aks etgan edi. Markaziyhukumat agarda ittifoq qonunlari respublika va o'lkalarda bajarilmaydigan bo'lsa, ularning faoliyatiga aralashish vakolatiga ega bo'ldi. Yagona moliyaviy, kredit, soliq va pul tizimi yaratildi. Federatsiya Yugoslaviyaning ilmiy-texnikaviy taraqqiyot strategiyasini belgilash, mahsulot rezervlari fondini tashkil etish, armiya ta'minoti uchun jamoatchilik mablag'ini ta'minlash, ekologiya va atrof-muhit himoyasi borasida ittifoq qonunlarini qabul qilish vakolatlariga ega bo'ldi. Federatsiya shuningdek, alohida respublika va o'lkalar qonunlari o'rtasida kelib chiqadigan tushunmovchiliklarni hal qilishda arbitr vazifasini bajarish huquqiga ega bo'ldi. Muxtor o'lkalar maqomi ham o'zgartirildi.Ular davlatchilik alomatlarini yo'qotib, respublikaga, ya'ni Serbiyaga hisob beruvchi organga aylandi.⁴²

Yugoslav raxbariyatini 80-yillar oxirida konstitutsiyaga o'zgartirish kiritishga nima majbur etdi. Bir partiyaviylik tizim, kuchli hukmron partiyaning mavjudligi va demokratiyaning unchalik taraqqiy qilmaganligi sharoitida respublikalarning iqtisodiy va siyosiy kuchayishi to'g'ridan-to'g'ri siyosiy hayotning desentralizatsiyasiga va markazning monopol holatini yo'qotishga olib kelardi.Federatsiya subyektlarining o'z-o'zini boshqarishga va keng vakolatlilikka intilishini Markaz raxbariyati markaziy hokimiyatni kuchaytirish va federatsiya faoliyat doirasini kengaytirish bilan bartaraf etishga harakat qildi.

YuSFRning Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarish respublikalar va o'lkalarning asosiy qonunida ham o'zgartirish uchun harakatni avj oldirib yubordi. Ular ichida ayniqsa, muxtor o'lkalarga ega bo'lgan Serbiyada bu jarayon

⁴² Гуськова Е.Ю. История Югославского кризиса. (1990-2000). М., 2001, С.66

qiyinchlik bilan kechdi. Ma'lumki, 1974-yilgi Konstitutsiya muxtor o'lkalarga respublikalarga teng vakolatlarni bergan edi. Shunga muvofiq Serbiya muxtor o'lkalar roziligiz hatto o'z konstitutsiyasini ham qabul qila olmas edi. Shuning uchun bo'lsa kerak Serbiyada respublika hududining yaxlitligi, muxtor o'lkalar huquqlarini cheklash kompaniyasi avj oldirib yuborildi. Bu jarayon Serbiyaning yangi konstitutsiyasida ham o'z aksini topdi. Serbiya konstitutsiyasiga o'zgartirish kiritish, ya'ni muxtor o'lkalarning Serbiya Skupshinasida veto huquqini ta'qiqlash haqidagi band 1988-yilning yozida qabul qilindi va 1989-yil martida rasmiy qabul qilindi.⁴³ 1988-yilning noyabr oyi o'rtalarida Kosovoning asosiy aholisi bo'lgan albanlarning bunga javoban milliy chiqishlari boshlanib ketdi. Bu chiqishlar kelgusidagi Kosovo inqirozining amaldagi boshlanishi edi.

⁴³Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.:1998, С. 119..

1.3. Respublikalararo nizolarning kuchayishi va yangicha ijtimoiy—siyosiy tartibotlarning qaror topishi (XX asr 80-yillar oxiri va 90-yillar boshlari).

XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlarida Yugoslaviyada yuzaga kelgan vaziyat federal hukumatning ojizligini yana bir bor ko'rsatib qo'ydi, bu esa o'z navbatida amalda Yugoslaviyada kommunistlar Ittifoqining yemirilishi hamda ayrim respublikalarda kommunistlar bilan muxolifatda bo'lib kelgan kuchlarning ko'ppartiyaviylik saylovlarini tashkil qilishi va unda g'alaba qozonishiga olib keldi. Umumyugoslav tayanchlari jiddiy zaiflashib ketdi, mamlakatda ikkinchi jahon urushidan keyingi butun davr mobaynida kuzatilmagan siyosiy inqiroz avj oldi, bu esa Yugoslaviya federatsiyasi butunligiga jiddiy tahdid paydo qildi. Federatsiya tarkibidan chiqish haqidagi vovozalar nafaqat respublikalar o'rtasida, balki ularning ichida ham borgan sari avj olib bordi. Shunga qaramasdan, bo'lg'usi Yugoslaviya haqida ikkita konsepsiya ilgari surilganligini ham ta'kidlash joizdir. Serbiya, Chernogoriya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniyadagi jamoatchilikning katta qismi Yugoslaviyada zamonaviy federatsiyani qurish kerakligi fikrini qo'llab-quvvatlaganlar. Ayniqsa, Serbiya tarixiy asoslarga ko'ra (ushbu respublika urushgacha va urushdan keyingi Yugoslaviya qurilishi uchun hammadan ko'p narsani bergan edi) federativ davlat konsepsiyasini faol tarafdori edi, buning yana bir sababi serblarning boshqa respublika hududlarida ko'plab istiqomat qilishlari edi. Bundan ko'zlangan yana bir maqsad shu ediki, Serbiya oldingidek bo'lgani singari federatsiyada xal qiluvchi rolni o'ynashi mumkin edi. Tarixiy va etnik omillar tufayli Chernogoriya ham ham Serbiya bilan hammaslak ekanligini bildirda va ushbu g'oyani qo'llab-quvvatladi. Ko'p millatli Bosniya va Gersogovina uchun mamlakatning saqlanishi hayot va mamot masalasi edi, bordiyu Yugoslaviya parchalanadigan bo'lsa, uning butunligi ham tahdid ostida qolishi ehtimoli kelib chiqardi. Makedoniyani bo'lsa federatsiyaning tarqalib ketishi xavotirga solardi, chunki shu holat ro'y bergudek bo'lsa qo'shnilari bo'lgan Bolgariya, Gretsiya va Albaniyaning potensial xavfi paydo bo'lishidan qo'rqardi,

bir soʻz bilan aytganda oʻjiz Makedoniya uchun qoʻshnilaridan himoyalaniş uchun federatsiya saqlanmogʻi lozim edi. Xorvatiya va Sloveniya konfederatsiya tarafdori edilar. Ular ayni shu narsani toʻliq davlatchilik va mustaqillik qoʻlga kiritishning yagona yoʻli deb hisoblashdi. "Sloven" konsepsiyasiga koʻra bozor iqtisodiyoti asosidagi va butun jabhaning radikal demokratizatsiyasi boʻlgan jamiyatlardagina ushbu mamlakat chiqish imkoniyatini topa olishligi ilgari surilgan edi. Ushbu konsepsiya tarafdorlarining fikricha, Yugoslaviya tarkibidagi nisbatan rivojlangan Sloveniya sotsializm tuzumidagi model doirasida bundan buyon rivojlana olmaydi. Shuning uchun ham slovenlar federatsiya tarkibidan chiqishning bir yoʻlini "asimmetrik federatsiya" deb hisoblashdi.

1990-yil yanvarda YuKI (Yugoslaviya kommunistlar ittifoqi)ning navbatdan tashqari XIV syezdi boʻlib oʻtdi, bu keyin ayon boʻlishicha uning oxirgi yigʻilishi edi. Uning kun tartibida mamlakatning keyingi taraqqiyoti boʻyicha respublikalar bilan kompromissga (majburiy murosa) kelishish masalasi qoʻyildi. Sloveniya KI delegatsiyasi «boshqa birgalikdagi masalalarda asimmetriya asos boʻlishi kerakligi» va YuKI siyosiy subyektlar ittifoqiga aylantirish dasturini ilgari suruvchi pozitsiyada qatʼiy turib oldi. Slovenlarni Xorvatiya delegatsiyasi qoʻllab-quvvatladi. Shuni taʼkidlash kerakki, Serbiyadan tashqari barcha YuSFR respublikalarida partiya tashkilotlarining mustaqilligi jarayoni kuzatila boshlandi. Diskussiya konfrontatsion xarakter kasb etdi, chunki unda Yugoslaviyaning davlat tuzumi masalasi ilgari surilgan edi. Mamlakat yaxlitligi borasida yana bir marta jiddiy xavf paydo boʻldi. Shu vaqtda bir tomondan Sloveniya va Xorvatiya oʻrtasida ikkinchi tomondan qolgan respublikalar oʻrtasida qarama-qarshilik boshlandi. Keskin debatlardan keyin avval Sloveniya, uning ortidan Xorvatiya delegatsiyasi syezdni tark etishdi. YuKI ichidagi parchalanish yagona fikrga kelishni murakkablashib ketganligidan dalolat bermoqda edi, mamlakat parchalanish boʻsagʻasiga kelib qoldi.

Yugoslaviyada koʻppartiyaviylik tizimining joriy qilinishi va yangi respublikalar yetakchilarining siyosati. 1990-yildan eʼtiboran YuSFRda koʻppartiyaviylik tizim shakllanishi jarayoni boshlandi. Sentyabrga kelganda

mamlakatda ularning soni 119 ta siyosiy partiyalar va harakatlarga yetdi⁴⁴, ulardan 14 tasi umumyugoslav xarakterida edi, qolganlari milliy-hududiy va asosan etnik asosda edi. Xuddi shu yili YuSFR respublikalarida birinchi marta respublika parlamentlariga ko'ppartiyaviylik tizimi asosida saylovlar o'tkazildi. Saylovlar natijasiga ko'ra to'rtta respublikada (Xorvatiya, Sloveniya, Bosniya va Gersogovina ham Makedoniya) etnik belgiga ko'ra tuzilgan yoki milliy manfaatlarni himoya qiluvchi partiyalar g'alaba qozondi. Chernogoriyada kommunistlar nomzodlari g'alaba qozondi, ular uchun ro'yxatdan o'tgan saylovchilarning 70% ovoz berdi. Saylovoldi jarayonida 44 partiya nomzodlari ishtirok etgan Serbiyadagi saylovlarda Sotsialistik partiya (ko'p jihatdan ushbu partiya kommunistlar ittifoqining vorisiga aylangan edi) g'alaba qozonadi. Ushbu partiya Yugoslaviyadagi barcha xalqlar va elatlarning birligi, federatsiyaning saqlanishi, plyuralizm va demokratiya, barcha turdagi mulklarning tengligi, bozor iqtisodiyoti, parlament boshqaruvini yoqlab chiqqan edi. Ikkinchi tur saylovlaridan keyin sotsialistlar Skupshinaning 250 o'rnidan 195 deputatlik o'rnini egallashga muvaffaq bo'ldi. Saylovlardan so'ng qarama-qarshi qarashlar kuchaydi. Saylovlar vaqtida asosiy masalaga aylangan milliy eyforiya saylovlardan so'ng matbuotda kuchayib bordi. Yangi hukumatlarning respublika idententligini shakllantirishga Markaziy Yevropa an'analari asosida alohida millatlarni shakllantirishni tashkil etish sharoitida yanada millatchilik komponenti to'planishi kuchaydi. Millatlarni birlashtirish yo'lida foydalanilgan respublika liderlarining muloqotlari xarakteri va mantig'i, ularning imidji va terminologiyasi birdamlikka asoslangan bo'lib, uning negizini xalqning umumiy xotirasi, afsonalari va an'analari tashkil etgan. "Ommaviy tantiqlik (sentimentalnost)" shiorlar, g'oyalar, simvollar va marosimlar bilan kuchaytirildi. Masalan, Xorvatiyada saylovlar natijasida Xorvat demokratik partiyasi hamdo'stligi (XDS) g'alaba qozonadi. XDS o'zini o'zi «xorvat vatandoshlarini va emigratsiyadagilarini, shuningdek boshqa xorvat xalqining boshqa barcha kategoriyalarini birlashtirishni amalga oshiruvchi

⁴⁴ Гуськова Е.Ю. Балканская трагедия: 90-е годы XX века //Очаги тревоги в Восточной Европе (Драма национальных противоречий). Сборник статей. М., 1993, С. 293.

milliy harakat» deb e'lon qilgan edi. U «Buyuk Serbiya» konsepsiyasi namunasida «Buyuk Xorvatiya» g'oyasini ilgari surdi. Xalqning ma'lum bir hudud doirasida birlashishi haqida fikr yuritgan partiya yetakchisi Frano Tujman - tarixchi, general va siyosatchi- etniklikni (etnichnost) ma'lum bir hududiy chegaralar bilan bog'ladi. 1990-yil 30 may kuni milliy bayramni nishonlayotgan paytda Zagrebda F.Tujman: «Biz o'zimizga tegishli hududda va o'z taqdirimizni o'zimiz belgilaydigan holatda yashashni xohlaymiz»-, deb aytib o'tgan edi.⁴⁵

1990-yillar saylovlari haqiqiy ma'noda xalqning plebissiti va vaqt makoni bo'ldi, qaysiki unda siyosiy va madaniy elita siyosiy muloqotlarda milliy g'oyani faol targ'ib qilishdi. Bu esa xalqning etnik hissiyotlarini uyg'otishga turtki berdi. Boshqacha aytganda milliy g'oya turli siyosiy partiyalar va ularning yetakchilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xorvatiya va Sloveniyaning yangi rahbariyatining siyosati respublikalarni maksimal darajada o'z-o'zini boshqarishga erishishga, buni respublika parlamentlari tomonidan tegishli qonunlarni qabul qilish yo'li orqali mustahkamlashga qaratildi. Bu yo'ldagi dastlabki qadam sifatida davlatlar nomini atalishdagi "sotsialistik" nomining olib tashlanishi, federatsiya fondiga mablag' yuborishni to'xtatish, mudofaa, tashqi siyosat masalalarida katta mustaqillikka erishishga bo'lgan harakatlarni, ya'ni o'zining qurolli kuchlariga, diplomatik vakolatxonalariga ega bo'lish urinishlarini ko'rsatish mumkin. Har ikki respublikalarda ham asosida Yugoslaviya doirasida konfederatsiya maqomidagi konsepsiya yotuvchi yangi konstitutsiya loyihasi ishlab chiqildi. Bunda ular federatsiya bo'yicha sheriklari va pozitsiyalarga mutloqo bo'ysinmadilar. YuSFR Konstitutsiyasida (250-modda) kam rivojlangan respublikalarni iqtisodiy rivojlantirish uchun kredit berish bo'yicha alohida federatsiya fondini tuzish haqida to'xtalangan bo'lib, unda fondini mablag' bilan ta'minlash manbalari ham aytilgan edi. Bu maqsadni amalga oshrish uchun federatsiya organlari majburiy zaymlar belgilashi mumkinligi alohida ta'kidlangan edi. Lekin 1990-yilda Sloveniya o'z tashabbusi bilan federatsiya fondi uchun ajratilishi lozim bo'lgan mablag'ni 48,1% ga kamaytirdi. Shu respublikada (Sloveniya Skupshinasining Mudofaa bo'yicha

⁴⁵Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.:1998, С.84.

komissiyasi) o'z armiyasini tashkil etish masalasi kun tartibiga qo'yiladi, garchi YuSFR Konstitutsiyasida (240-modda) «YuSFR qurolli kuchlari yagona va yaxlit hamda barcha xalq va millatlar, barcha mehnatkash va fuqarolarning umumiy harbiy kuchlari bo'lgan Yugoslaviya Xalq Armiyasidan iborat»ligi qayd etilgan bo'lsa ham. 1990-yilda Xorvatiya hukumati Respublika kuni bayramini (Yugoslaviyada) – 29 noyabrni odatiy ish kuni deb e'lon qilish haqida qaror qabul qildi. Ularning shu kabi harakatlari o'ziga xos tarzda «sinov shari» vazifasini o'tadi. Uning ortida ushbu respublikalarning federatsiya tarkibidan chiqish borasida amaliy qadamlar tashlandi.

1990-yil noyabrda bo'lib o'tgan YuSFR Skupshinasining respublika va o'lkalar Vechesi yig'ilishida Sloveniya delegatsiyasi Ittifoq Vechesi a'zolarini saylashda ishtirok etishlari haqida bayonot berdi. Ya'ni uning YuSFRning boshqa respublikalari singari suveren munosabati slovenlar referendumi asosida belgilanishini ma'lum qilishdi. 1990-yil 23 dekabrda ushbu masala bo'yicha referendum o'tkazildi, ovoz beruvchilarning 95 % dan ortig'i Sloveniyaning mustaqilligini yoqlab ovoz berishdi. Ayni vaqtda respublika parlamenti bu holat respublikaning avtomatik tarzda federatsiya tarkibidan chiqishini anglatmasligini ma'lum qildi. Lekin oradan yarim yil o'tib, ushbu referendum natijalariga ko'ra baribir Sloveniyaning to'liq davlat mustaqilligi to'g'risida qaror qabul qilindi. 1990-yil dekabrda qabul qilingan Xorvatiyaning yangi Konstitutsiyasiga muvofiq, u ham ozod va mustaqil davlat maqomini qo'lga kiritdi. Sloveniyadan farqli ravishda bu yerda ushbu masala bo'yicha xalq referendumi o'tkazilmadi, lekin biroz keyinroq 1991-yilda xuddi shunday referendum o'tkazildi. Konstitutsiyaning ushbu bandiga javoban Xorvatiyaning serb aholisi ko'pchilikni tashkil qiluvchi Knin shahri Xorvatiya tarkibidagi Serb muxtor viloyati deb e'lon qildi. Bunda ta'kidlandiki, agarda YuSFR tarqalgudek bo'lsa, u holda ushbu viloyat o'zini alohida davlat deb e'lon qilishini bildirdi (keyinchalik ushbu viloyatning Serbiyaga qo'shilishi o'ylangan edi).⁴⁶

⁴⁶Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.:1998, С.86.

Federatsiyani saqlab qolishdagi so'nggi urinishlar. YuSFRning Prezidiumi qaroriga muvofiq 1991-1992-yillarda barcha respublikalar ishtirokida Yugoslaviyaning bo'lg'usi tuzumi borasida muzokarlar olib borildi, prezidiumning bir qancha respublika xabarlar bilan qator uchrashuvlari o'tkazildi. Shuni ta'kidlash kerakki, o'sha vaqtda Yugoslaviyani oldingi chegaralar doirasida saqlab qolishning kuchli harakati mavjud edi. Bunga 1990-yillar oxirida umumiyugoslav miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi bir qancha yangi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning paydo bo'lishini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ulardan biri *Yugoslaviya islohotchi kuchlari Ittifoqi* bo'lib, u o'zining oldiga federatsiyada amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarni himoya qilish vazifasini qo'ydi. 1991-yilda xali mavjud bo'lib turgan mamlakatning alohida respublikalari o'rtasida ayrilish spektri aniq bilinib qoldi. Bunda asosiy masala markaziy hokimiyatning respublikalar nomenklaturasi bilan o'zaro munosabatlari edi. Shu yilning federal darajada mamlakatni saqlab qolishga urinish amalga oshirildi. Yanvarda YuSFR Prezidiumining respublika vakillari bilan birgalikda uchta yig'ilishi va respublikalar delegatsiyalarining o'n bir marta ikki tomonlama uchrashuvlari o'tkazildi. Birmuncha keyinroq respublikalar prezidentlari rasmiy ravishda olti marta uchrashishdi.

Makedoniya va Bosniya-Gersogovina doimiy ravishda o'zlarining oldingi pozitsiyalarini qarab chiqa boshladi. Federatsiya doirasidagi muzokarlar jarayonida prezidentlarning uchrashuvlari ham o'tkazildi. 1991-yil 6 iyun kuni Makedoniya nomidan K.Gligorov va Bosniya va Gersogovina nomidan A. Izetbegovich "Yugoslav Respublika Ittifoqini" tuzish taklifi bilan chiqdi, bu bilan ular Serbiya va Sloveniya o'rtasidagi oraliq pozitsiyani egallashdi. Shuningdek, ular mamlakatning keyingi taqdiri haqidagi masalani to'lig'icha ikki g'arbiy respublikalarning konsepsiyasi asosida bo'lishligiga zamin tayyorlab berdi. YuSFR ni saqlab qolishdagi so'nggi urinish 12 avgust kuni Belgradda Serbiya,

Chernogoriya va Bosniya hamda Gersogovina prezidentlarining “*Belgrad tashabbusi*” deb atalgan uchrashuvi bo’ldi.⁴⁷

Yugoslaviya hududida siyosiy vaziyatni yumshatish borasida mustaqillikka intilayotgan vafederatsiya ko’rinishida yashashda davom etish tarafdorlari mazkur muammoni muzokaralar yo’li bilan hal qilishga yana bir necha bor urinib ko’rishdi. Siyosiy muzokaralar jarayonida ishtirokchi tomonlarning aniq maqsadlari borgan sari yaqqolroq namoyon bo’lib bordi. Muzokralarning aniq va yagona natijasi shu bo’ldiki, har bir respublika hududida ikki xil mazmundagi savol bandi: «yagona demokratik suveren davlat» va «suveren davlatlar ittifoqi» bandlari aks ettirilgan referendum o’tkazishga qaror qilindi. Yuqorida biz ayrim respublikalarda o’tkazilgan referendumlar haqida ma’lumot bergan edik: Sloveniyada (1990-yil dekabr), Xorvatiyada (1991-yil may), Makedoniyada (1991-yil yanvar), Bosniya va Gersogovina (1992-yil mart). Referendumga binoan aholining ko’pchilik qismi mustaqil davlatlar holatida yashash istagini bildirishdi. Faqatgina Serbiya va Chernogoriya federatsiya saqlanishi tarafdori bo’lib chiqdi, 1992-yil 27 aprelda ular qonuniy jihatdan yangi mamlakat – Yugoslaviya Respublikalar Ittifoqini tuzganligini e’lon qilishdi.⁴⁸ Ikkinchi jahon urushidan keyingi shakldagi Yugoslaviya (ikkinchi Yugoslaviyani shunday atashardi) tarix sahnasidan shu tariqa chiqib ketdi. Bir qator sabablar tufayli, jumladan YuSFR va Serbiya rahbariyatining murakkab vaziyatni to’g’ri baholay olmasliklari federativ asosda davlatni saqlab qolish imkoniyatining qo’ldan boy berilishiga olib keldi. Federatsiyaning barbod bo’lishi ichki siyosiy, iqtisodiy va milliy muammolar bilan bog’liq bo’lib qolmasdan, bundan tashqi ta’sirlarni ham kuzatish mumkin. Ayniqsa AQSh va bir qator G’arbiy Yevropa davlatlarining yugoslav inqirozi bo’lgan munosabat ham federatsiyaning parchalanib ketishiga olib keldi. Avval boshda mazkur kuchlar Yugoslaviyaning o’zining chegaralari bilan saqlanib qolish tarafdori edilar. Keyinchalik ma’lum bir sabablar tufayli ushbu mamlakatlar

⁴⁷ Гуськова Е.Ю. Балканская трагедия: 90-е годы XX века //Очаги тревоги в Восточной Европе (Драма национальных противоречий). Сборник статей. М., 1993, С. 296.

⁴⁸ Гуськова Е.Ю. Балканская трагедия: 90-е годы XX века //Очаги тревоги в Восточной Европе (Драма национальных противоречий). Сборник статей. М., 1993, С. 300.

federatsiya o'rnida yangi tashkil topgan davlatlarni rasman tan olishdi va ochiqdan-ochiq aksil serb pozitsiyasini namoyon qilishdi. Bu holat ziddiyatning kelgusida yanada avj olishiga, fuqarolar urushining alanganishiga olib keldi. Shani ta'kidlash o'rinliki, voqealarning bunday rivojlanishi oldindan kutilgan holat edi. Masalan, 1990-yil oktyabrdayoq «Gardian» ingliz ro'znomasida G'arbning fikricha «Yugoslaviyaning parchalanishi qonli fojeaga olib keladi. Uning oqibati bo'lsa butun bir mintaqani qamrab olishi mumkin», deb keltirilgan edi. Bugun biz bimalol ushbu bashorat (prognoz) to'la amalga oshganligining guvohi bo'lganmiz.

II BOB. BOSNIYA VA GERSOGOVINA HUDUDIDA MUSTAQILLIK SHAROITIDA ETNO-MILLIY NIZOLAR VA UNING OQIBATLARI

2.1. Bosniya va Gersogovinaning etno-milliylik hususiyatlari va elatlar o'rtasidagi fuqarolar urushi

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, inqiroz jarayonida mamlakat butunligi uchun faqatgina serblar va chernogorlar chiqishdi, ular nafaqat o'z respublikalaridan, balki chegara tashqarisida ham shuning uchun harakat qilishdi. Bu urinish etnik xarakterni namoyon etganligi bois fuqarolar urushiga olib keldi. Bir qator hududlarda Yugoslaviyaning dramatik parchalanishi harbiy to'qnashuvlar bilan birga bordi. Xorvatiya hududida Krayneda istiqomat qiluvchi xorvatlar va serblar o'rtasida to'qnashuvlar boshlanib ketgan bo'lsa, Bosniya va Gersogovinada ikki yildan ortiqroq vaqt mobaynida musulmonlar serblarga qarshi, xorvatlar musulmonlarga qarshi, xorvatlar musulmonlar bilan birgalikda serblarga, musulmonlarning bir qismi serblar bilan musulmonlarga, xatto serblar xorvatlar bilan birga musulmonlarga qarshi kurash olib bordi. Mazkur qarama-qarshilikka bevosita Serbiya va Xorvatiya ham tortildi.

1991-yilning ikkinchi yarmi – 1992-yilning birinchi yarmida sobiq Yugoslaviyaning beshdan bir qism hududini tashkil etuvchi Bosniya va Gersogovinaga federatsiyada boshlanib ketgan inqiroz «ko'chib o'tdi». Inqirozning asosiy sabablaridan biri aholining etnik tarkibi (1991-yilda Bosniya va Gersogovina aholisining 43,7% musulmonlar, serblar – 31,3%, xorvatlar – 17,3%, yugoslavlilar – 5,5%, qolganlar – 2,2%), ularning aralashib yashashlari (musulmonlar jamoasi jami aholining 48,6%, serblar-33%, xorvatlar 17,4 % tashkil etgan), serb hamda xorvat aholisining «o'z» respublikalarini qurishga intilishlaridir.⁴⁹ M. Martinova bo'lsa 1991-yilga kelganda musulmon jamoalari Bosniya va Gersogovinaning ko'pchiligini tashkil qilgan, ya'ni 48,6%, serb jamoalari – 33%, xorvatlar 17,4% ni tashkil etgan.⁵⁰ N.Vasilyev va V.Gavrilov

⁴⁹Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.:1998, С.221

⁵⁰Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.:1998, С.199.

bo'lsa Bosniyadagi 106 jamoaning 10 tasi bir millatli, 8 ta jamoada bo'lsa 80-89% bir millatli ekanliklarini qayd etadi. Umumiy hisobda musulmonlar 49 ta jamoada, serblar -37tada, xorvatlar 20 ta jamoada ko'pchilikni tashkil qilgan.⁵¹ Mostar shahrida bo'lsa 1991-yilda aholining 35 % ni musulmon, 34% ni xorvatlar, 19 % ini serblar tashkil qilgan.⁵² Jami 111 jamoaning 49 tasida umumiy hisobda 60 % mutloq ko'pchilik hech bir elatga tegishli bo'lmagan.⁵³ Yuqorigi ma'lumotlar mamlakat aholisining etnik jihatdan qurama ekanligining ko'rsatib turibdi. Bu yerdagi inqiroz yugoslav yerlarida eng dramatik xarakterlilaridan biri bo'lib, etnik birliklar o'rtasidagi fuqarolar urushiga olib keldi. Aslida inqirozning kuchayishi ko'p jihatdan yugoslavfederatsiyasining siyosiy tanazzuli bilan ham bog'liqdir. XX asrning 80-yillar oxirida yugoslav jamiyati intilgan asosiy ikki mashhur siyosiy mafkuraga asoslangan siyosiy mafkuraning oqibati edi. Birinchi g'oya Djuzeppa Madziniga tegishli bo'lib, unda «Bitta millat-bitta davlat» deyilsa, ikkinchisi XIX asrda nemislar orasida keng tarqalgan «Xar bir millat – bitta mamlakat va butun millat bitta mamlakatda» tarzida jaranglar edi. Ushbu siyosiy strategiya yugoslav fiderasiyasini siyosiy qayta qurishning dasturi edi. Bu strategiyaga ko'ra yugoslav inqirozidan chiqish mazmunida bir necha milliy davlatlarga bo'lish g'oyasi yotgan mamlakatni siyosiy qayta qurish maqsad qilingan edi. Bularning barchasi milliy suverinitet muammosining mutloqlashuviga, shuningdek parallel ravishda chegara va hududlar masalasining ko'ndalang bo'lishiga olib kelardi. Milliy siyosiy strategiyaga etniklik bilan sug'orilishi milliy suverinitetning etnifikatsiyasiga va absolyutizatsiyasiga, milliy davlatchilik gomogenligiga, etnik soflikka va milliy va etnik aralashuvni rad qilishga intilishga olib keldi.

Bolqondagi millatchilik siyosiy bo'lib, davlat hokimiyatiga erishish uchun kurashga bog'lanib ketdi. Uning asosiy maqsadlaridan biri hudud uchun kurash bo'ldi. Yangi davlatlar jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi hamonoq ularning zaminida kim yashashga haqli degan savol ko'ndalang keldi. O'z-o'zini

⁵¹ Васильев Н. Балканский тупик? (Историческая судьба Югославии в XX веке). М., 2000. С.364.

⁵² Международные организации и кризис на Балканах: документы: в 3 т (сост. и отв.ред. Е.Ю.Гуськова). М., 2000, С.299

⁵³ Центрально-восточная Европа во второй половине XX века: в 3 т. М., Наука, 2000-2002. – Т.3.: Трансформации 90-х годов. – Ч./ С.П.Глинкина (и др) – 2002. С.72

boshqarish jarayonining etnik va diniy poydevori siyosiy haqiqatga aylandi. Bu bo'linish etnik asosga qarab amalga oshirildi. Lekin kishilarni etnik mansublikka qarab hududlardan quvib chiqarish to'la ma'noda etniklikka to'g'ri kelmas edi, bunda hal qiluvchi faktor hudud uchun bo'lgan da'vo edi.

Ana shu jihatdan olib qaraganda Bosniya va Gersogovinada vaziyat juda qaltis edi. Uning hududi etnik jihatdan qorishiq bo'lib, milliy davlat tuzish uchun har qanday asosni va aksincha turli elatlarning birgalikda yashashi borasidagi argumentlarni rad etardi. Uning ustiga Bosniya va Gersogovinaning hech bir konstitutsiyaviy xalqi (musulmonlar, serblar va xorvatlar) mutloq ko'pchilikni tashkil etmas va shuning uchun ham biror bir elatni respublikada yetakchi mavqeyiga chiqarishning ham iloji yo'q edi.

Yangi paydo bo'lgan Sloveniya, Xorvatiya va Serbiya islohotlarni samarali amalga oshirish maqsadida aholini etnik jihatdan mobilizatsiya qildi. 1991-yilning bahoridan boshlab ular xalqaro maydonda respublikalarining «milliy manfaatidan» kelib chiqib munosabatga kirisha boshlashdi.

Bosniya va Gersogovinada bo'lsa vaziyat mutlaqo farqli edi. YuSFRning Konstitutsiyasiga ko'ra serblar, xorvatlar va musulmonlar konstitutsiyaviy xalqlar maqomida edi, ya'ni respublika aholisini yagona siyosiy millatni kasb etmagan. Uning ustiga o'tgan asr 90-yillaridan boshlangan federatsiyadagi demokratik o'zgarishlar natijasida bu yerda ham har bir etnik jamoa o'zining siyosiy partiyasini tashkil etishdi (1990-yil 26 mayda musulmonlar Demokratik xarakat partiyasini- yetakchisi Aliya Izetbegovich, ikki oy o'tib serblar Serb demokratik partiyasini-yetakchisi Radovan Karadjich, xorvatlar Xorvat demokratik hamjamiyatini – yetakchisi Mate Boban) tashkil etgan). Qayd etish kerakki musulmonlarga millat maqomi (yugoslav atamashunosligida «xalq») 1961-yilda Tito tomonidan berilgan edi. Musulmonlar eks Yugoslaviyaning yugoslav xalqi ichida o'zining milliy davlatiga ega bo'lmagan yagona millatga aylanib qoldi. Mamlakatda birgalikda yashash tarafdorlari umid bilan 1990-yil 30 iyulda bosh vazir Ante Markovich boshchiligida «Yangi va gullab-yashnayotgan Yugoslaviyani qurish bo'yicha islohotchi kuchlar Alyansini» tashkil etishdi. 9

noyabr kungi saylovlar natijasiga ko'ra parlamentda MDX 86 ta, SDP – 72, XDX – 44 ta mandat olishga muvaffaq bo'ldi. Mutloq katta farq bo'lmaganligi uchun ham koalitsion raxbariyat (prezident-musulmon, parlament boshlig'i – serb, hukumat boshlig'i – xorvat, 10 ta vazir – musulmon, 7 tasi serb va 5 tasi xorvatlar) tuzilishiga kelishib olishdi. Tez orada Bosniya va Gersogovinada davlat faoliyat olib bormayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Bu hukumat koalitsion bo'lmasdan, ko'pchilikni tashkil etuvchi millatlarning vakillari tomonidan egallab olingan edi. Mazmunan bu «etnik tozalash» yo'lidagi birinchi qadam edi. Musulmon va xorvatlarning faolligiga qarshi turish uchun 1991-yil 26 aprel kuni Krayneda yashovchi serblar tomonidan *Bosniya Kraynasi jamoalari hamdo'stligi Skupshinasi* tuzildi. 24 inyunda Banya Luka shahrida Xorvatiyaning Krayna serb muxtor viloyati bilan Bosniya Kraynasining hamkorlik qilishi to'g'risida shartnoma imzolandi, 27 iyun kuni hatto ularning birlashgani e'lon qilindi. Shu yilning mart oyida bo'lsa Serbiya va Xorvatiya prezidentlari Bosniya va Gersogovinani o'zaro bo'lib olish to'g'risida muzokaralar o'tkazdi. Tez orada bunda Aliye Izetbegovich xabar topdi va darhol jiddiy qadamlarni tashladi. Musulmonlar partiyasi Milliy mudofaa Kengashini tashkil etishdi va «Yugoslaviya musulmonlaritarixiy burilish yo'lida ostonasida turibdi va qo'yib yuborish mumkin bo'lmagan imkoniyatga egadir ... Bu bor va yagona imkoniyat Bosniya musulmonlarining va Yugoslav musulmonlarining vatani sifatida Bosniya va Gersogovinaning suverenligi va yaxlitligidir. Biz ushbu imkoniyat uchun kurashishga tayyormiz.» so'zlari bilan boshlanuvchi Deklaratsiya qabul qilindi. 1991-yil iyulda A.Izetbegovichning Turkiyaga rasmiy tashrifi davomida u Bosniya va Gersogovinaning Islom davlatlari Tashkilotiga a'zo bo'lish istagini bildirdi.

Musulmonlarning ushbu hatti-harakatlari xorvatlar va serblarning keskin e'tiroziga sabab bo'ldi va bu harakatni «Bosniya va Gersogovinani islom respublikasiga aylantirishga urinish deb baholadilar».Xar bir elat o'ziga uchinchi sherikni topishga urinib ketdi. Serblar va xorvatlar Bosniyani ikki qismga bo'lishni muhokama etayotgan bir paytda, Serbiya Bosniyani Xorvatiya va Sloveniyasiz Yugoslaviyaga qo'shilishga ko'ndirishga urindi. Belgradning ushbu tashabbusi

Bosniya va Gersogovinada urushdan qochishning birdan-bir imkoniyati sifatida qaraldi.

Bundan keyingi voqealar rivoji kundan kunga urushga yaqinlashib bordi. Uchqanoqli koalitsiya musulmonlar va xorvat-deputatlarning serblarni istaklarini rad qilgan holda *Bosniya va Gersogovinaning Suvereniteti haqida Memorandum* qabul qilishi bilan 1991-yil 14 oktyabrda barham topdi. Bunga javoban 25 oktyabrda *Bosniya va Gersogovina Serb xalqi Skupshinasi* ta'sis etildi. 21 dekabr kuni mazkur Skupshina musulmon va xorvatlarning ajralib chiqqudek bo'lsa Yugoslaviya SRasi doirasida Bosniya va Gersogovina Serb respublikasini tuzishni e'lon qildilar. 1992-yil 9 yanvar kuni Yugoslaviya Federatsiyasining tarkibiy qismi sifatida *Bosniya va Gersogovina Serb Respublikasi* tuzilganligi e'lon qilindi (keyinroq *Serb Respublikasi* nomini oldi). Bu qadam Yevropa Ittifoqi tomonidan o'z mustaqilligini e'lon qilgan istalgan yugoslav respublikasini qo'llab-quvvatlashga tayyorligi hqidagi bayonotidan keyin amalga oshirilgan edi. Shuni hisobga olgan holda Bosniya va Gersogovina parlamenti serb deputatlarining ishtirokisiz mustaqillik to'g'risida referendum o'tkazishga qaror qildi. 1992-yil 29 fevral-1mart kunlari o'tkazilgan referendumni serblar baykot qildi, ovoz berishda ishtirok etganlarning 63% mustaqil Bosniya va Gersogovina uchun ovoz berdi. Uchta etnik jamoalari yetakchilari respublikani inqirozdan qutqarishning yo'li sifatida Bosniya va Gersogovinani uch qismga bo'lishni ilgari surishdi. Lekin bu amalga oshirib bo'lmaydigan masala edi, chunki elatlar alohida muayyan hududda yashamas edi. Serblar va xorvatlar bo'lsa o'z respublikalariga qo'shilishga intilar edi.

Bosniya va Gersogovinada «kantonizatsiya» haqidagi dastlabki loyihani SDP 1991-yilning oxiridayoq ilgari surgan edi. Undan keyin xorvatlar kantonlar haqida taklifni bildirishdi. Har ikki loyiha ham bir-biridan juda kam farq qildirdi, musulmonlarga bo'lsa Bosniyaning markaziy va shimoli-g'arbiy qismida, Markaziy Gersogovinada juda kam hudud berilishi nazarda tutilgan edi. Yeti vositachiligida uch tomonlama muzokaralar davom ettirildi. 1992-yilning fevralida Lissabonda Bosniya va Gersogovina 7 ta rayonga (2 tadan musulmonlar va

xorvatlarni, 3 ta serblarniki) bo'lishga, keyinchalik ushbu hududlarda davlat tashkil etishga kelishib olishdi. Ammo u rasmiylashmadi. A.Izetbegovich Bosniya va Gersogovinaning bo'linishiga qarshi chiqdi. Mart oyining o'rtalarida davlat taqsimoti borasida yana bir loyiha ishlab chiqildi. Unga xorvatlar va musulmonlar qarshi chiqdi. Sababi ushbu taqsimotga ko'ra xorvatlar Bosniya va Gersogovinaning 12% hududiga egalik qilgani holda 59 % xorvatlar ushbu provinsiyadan tashqarida qolib ketardi, musulmonlarda ushbu foizlar mos ravishda 44 %ga 18%ni tashkil etgan. 31 mart kuni Bryusselda prezident A.Izetbegovich 15 maygacha yangi xartiyani yaratish bo'yicha ishchi guruh tuzishga rozilik berdi. Lekin, ushbu ishchi guruh ishini oxiriga yetkaza olmadi. Mart oyida Bosniya va Gersogovina aholisining o'zi taqsimotni amalga oshrishga qurolli yo'l bilan kirishib ketdi.

YeI Bosniya va Gersogovinaning mustaqilligini 1992-yil 6 mart kuni, AQSh 7 aprelda tan oldi. Bundan ular davlatning parchalinib ketishlikning oldini olishni hisobga olgan edi. Ushbu davlat musulmonlar davlati sifatida emas, polietnik davlat sifatida tan olinganligini ta'kidlash joiz. 7 aprel kuni serb jamoasi mustaqil *Bosniya va Gersogovina Serb Respublikasi* tuzilganligini e'lon qildi. 3 iyul kuni bo'lsa xorvatlar markazi Mostar bo'lgan *Gerseg-Bosna* nomli o'z respublikasini e'lon qilishdi. 5 aprel kuni Yugoslav Xalq Armiyasi tomonidan sarayevo qurshab olindi. Ular ketishi bilan o'rnini Bosniya serblari egalladi. Mamlakat elatlar o'rtasidagi fuqarolar urushi girdobiga tortildi.

22 may kuni BMT Bosniya va Gersogovinani o'z a'zoliciga qabul qildi va o'z kuzatuvchilarini yubordi. Xuddi shupaytda etnik tozalash ishlari va buning uchun konsentratsion lagerlar qurilganligi haqida ma'lumotlar paydo bo'la boshladi. BMT Xavfsizlik Kengashining Bosniya va Gersogovina masalasiga aralashuvi ham harbiy to'qnashuvlarni to'xtatmadi.

Bosniya va Gersogovina masalasi xalqaro hamjamiyat e'tiboridagi eng dolzarb masalaga aylandi. Shu yil 26 avgust kuni Londonda sobiq Yugoslaviya bo'yicha konferensiya bo'lib o'tdi. Unda shab-kvartirasi Jenevada bo'lgan muvofiqlashtiruvchi kengash ta'sis etildi. YeIning vositachisi bo'lib kelgan

Karrington o'rnini Lord Ouen egalladi. Jeneva muzokaralarida Bosniya va Gersogovina elatlari bilan birga vaqti-vaqti bilan Serbiya, Xorvati va YuIR vakillari ham ishtirok etishdi. Dastlabki erishilgan natija «Bosniya va Gersogovinaga taqdim etiladigan konstitutsion struktura» loyihasi bo'lib, u keng miqyosdagi xisobotga ilova qilingan edi. Lekin unda taklif etilgan loyihalar elatlar vakillari tomonidan birdek qabul qilinmadi. Shunga qaramasdan 1993-yil 3 yanvarda bo'lib o'tgan Yugoslaviya bo'yicha navbatdagi Xalqaro konferensiyada Bosniya va Gersogovinani 10 ta avtonom kantonlarga bo'lish (*Vens-Ouen rejasi* nomi bilan atalgan edi) va Sarayevoni harbiysizlantirish taklif etildi. Taklif etilgan taqsimot xaritasida etnik, geografik, tarixiy, transport, iqtisodiy va boshqa faktorlar inobatga olingan edi. Ayrim o'zgartirishlar bilan xorvatlar va musulmonlar 25 mart kuni ushbu bo'linish xaritasini ma'qulladilar, ularning ma'qullashlarining yana bir sababi serblar tomonidan ushbu loyiha rad etishiga amin edilar. Xaritasi xorvatlar talabiga to'la javob berardi. Ularga ajratilgan hududlar shunday belgilangan ediki, kelgusida bemalol Xorvatiyaga qo'shilib ketish mumkin edi. Serblarga bo'lsa iqtisodiy jihatdan kam ahamiyatli va amalda hech qanday strategik ahamiyatga ega bo'lmagan rayonlar taklif etildi. Musulmonlar 1992-yildagi bo'linishdan ko'ra ko'proq hududni boy berishi xaritadan aks etgan bo'lsada, ammo ular buni vaqtdan yutish va ziddiyatga xalqaro hamjamiyatni aralashtirishga erishish yo'lini tutdi.

1993-yil 2 aprel kuni Serbiya Respublikasi parlamenti tomonidan ushbu loyiha xaritasi rad etildi. 1993-yilning o'rtalari va 1994-yilning yozida ziddiyatni barqarorlashtirish uchun yana bir variant ishlab chiqildi va u *Ouen-Stoltenberg rejasi* nomini oldi. Unda ham etnik tamoyil asosida mamlakatni bo'lish nazarda tutilgan edi. Ushbu loyihaning ham amalga oshishi haqiqatdan uzoq bo'lganligi bois ziddiyatga xalqaro kuchlar aralashuvini kuchaytirish talab etildi. 1993-yil 19 fevralda BMT XKning № 807 rezolyutsiyasiga ko'ra BMTning sobiq Yugoslviya bo'yicha mandat kuchlari ajratiladigan bo'ldi, 22 fevral № 808 rezolyutsiyaga ko'ra sobiq Yugoslaviya hududida harbiy jinoyatda aybdorlar ustidan sud qilish uchun xalqaro tribunal tashkil etildi. 28 fevraldan boshlab AQSh Bosniya va Gersogovinaga gumanitar mahsulotlarni havo orqali yetkazib berishga kirishdi.

Ammo harbiy to'g'nashuvlar bartaraf etilmadi. Og'ir harbiy qurollarga ega bo'lgan serblar qo'lida Bosniya va Gersogovinaning 70% nazorati o'rnatildi.⁵⁴

1994-yilda ham asosiy e'tibor harbiy to'qnashuvlarni to'xtatishga qaratildi. 11 yanvar kuni NATO a'zo davlatlari agarda serblar tomoni belgilangan muddat ichida Tuzla va Srebrenisa qamalini to'xtatmaydigan bo'lsa, serblar pozitsiyasini bombardirovka qilish haqida bayonot berdi. Yanvar oxirida B.Gali rasmiy ravishda Bosniya va Gersogovinada NATO harbiy kuchlarini qo'llashni ma'lum qildi. 9 fevral kuni serblarga 10 kunlik muddat berildi. 21 fevralda Sarayevo atrofida urushayotgan tomonlar asosiy harbiy qurol-yarog'larini BMT kuchlari nazorati ostiga o'tkazdi. Bosniya va Gersogovinaning poytaxtida nazorat qo'lga olingach havodan hujumdan saqlanishga harakat qilindi. 7 mart kuni 1992-yil maydan buyon yopib qo'yilgan Tuzla aeroporti nazorati BMT kuchlariga topshirildi.

25 fevral kuni musulmon va xorvat jamoalari o'rtasida o't ochishni to'xtatish to'g'risida Kelishuvga erishildi. 18 mart kuni Vashingtonda Bosniya va Gersogovinada *Xorvat-musulmon federatsiyasini* tuzish haqida Bitim imzolandi. Ushbu federatsiya Xorvatiya bilan konfederatsiyaga birlashishi mumkin edi (serb jamoasi ushbu bitimga qo'shilishdan bosh tortdi va bundan o'zlarini Serbiya bilan konfederatsiyaga qo'shilish imkoniyati sifatida foydalanishga harakat qildi). 31 mart kuni BMT XK 6 muddatga sobiq Yugoslaviyaga xalqaro mandat kuchlarini kiritish haqida qaror qabul qildi. Natijada 30 ming nafar «moviy kaskalar» kiritildi.

Bosniya va Gersogovinani bo'lishning navbatdagi rejasida musulmon va xorvatlarga 51%, Bosniya serblariga 49% hudud tegishi nazarda tutilgan edi. Bu serblarning dastlabki talablaridagi raqamlarga mos bo'lsada, ammo ular loyihani qabul qilmaslik uchun boshqa yangi talablarni ilgari sura boshladilar. Uning ustiga vaziyat yana beqarorlashib bordi. Bixach, Goradja va Banya Luki rayonlarida harbiy to'qnashuvlar qayta tiklandi. Xalqaro kuchlar NATO aviatsiyasidan tashqari bevosita harbiy kuchlarini ham Bosniya va Gersogovinaga kiritish kerakligi haqida bayonotlar bera boshladi. Bunga javoban bosniya serblari ayrim rayonlarda «moviy kaskalar»ni asirga olishga muvaffaq bo'ldi va bundan aviatsiya hujumini

⁵⁴Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.:1998, С.204.

to'xtatishni talab etish maqsadida foydalandi. Yil oxiriga borganda BMT ko'ngilli harbiy kuchlarini chiqarish g'oyasi va uning o'rniga har qanday harbiy to'qnashuvga tayyor NATO kuchlarini kiritish g'oyasi paydo bo'ldi. Hatto AQSh prezidenti B.Klinton ushbu maqsadni amalga oshirish uchun amerika askarlarini yuborishga tayyorligi haqida bayonot berdi. Matbuotda bu askarlar soni 5 mingdan 20- ming atrofida deb keltirilgan edi.

Umuman olganda o'sha paytdagi Bosniya va Gersogovinada yuzaga kelgan vaziyat borasida quyidagicha fikr yuritish mumkin, oxiri ko'rinmaydigan ziddiyatlarga tortilganlikni tushungan va uni to'xtatishga qodir emasligini anglab yetgan xalqaro hamjamiyat amalda bosqinchilik va «etnik tozalash» siyosati bilan kelishuvga bordi va bu orqali unga anchayin «sivilizatsion» xarakter berishga harakat qildi. Xalqaro hamjamiyat shuningdek keskinlik ishtirokchilarini jazolash siyosatidan «o'zini yaxshi tutganligi uchun» mukofotlash siyosatiga moyilligini ko'rsatib qo'ydi.

1991-yil iyunda paydo bo'lgan va 1991-yil dekabrda bartaraf etib bo'lmas darajaga kelgan Bosniya va Gersogovinani etnik belgi asosida bo'lish jarayoni fojeali bo'ldi. Voqealar rivoji tahlili shuni ko'rsatadiki, Yugoslaviyaning parchalanishga sabab bo'lgan faktorlar bekorga «kichik Yugoslaviya» deb atalgan Bosniya va Gersogovinani ham parchalanish bo'sag'asiga olib kelib qo'ydi.

1995-yilga Bosniya va Gersogovina uchun burilish yili bo'ldi. Bu yil rasman to'rt oylik yarashuv kelishuvi (1994-yil dekabrda imzolangan) bilan boshlandi. Lekin harbiy to'qnashuvlar uzilishlar bilan 1995-yil oktyabr oyigacha davom etdi. Avgust oyiga kelganda musulmonlarning yirik mag'lubiyatga uchrashi aniq bo'lib ulgurdi. Biroq vaqt serblar foydasiga yurmadi. Blokada tufayli tirik kuchlarga, yonilg'i va qurol-yarog'larga katta ehtiyoj paydo bo'ldi, rasmiy embargoga qaramasdan musulmonlar va xorvatlar qurol-yarog'larni turli yo'llar bilan olishda davom etib terdi. Uning ustiga NATO voqyelarga aralashdi. NATOning «Ozod qilingan kuch» operatsiyasi Serb Respublikasining harbiy-iqtisodiy potensialini yo'q qilishdan iborat edi. Harakatda 200 ga yaqin samalyot ishtirok etdi (ushbu guruhda jami 300 ta samalyot bor edi.), operatsiya

boshlangan 30 avgust kuni bo'lsa 3 mingdan ziyod uchishlar amalga oshirildi. Ularga qo'shimcha ravishda Adriatika dengizida NATOning 11 davlatining 30 ga yaqin harbiy kemalari (ularning uchdan biri AQSh HDG kemalari edi) nazorat o'rnatdi. AQSh kemalaridan biridan 10 sentyabr kuni 13 ta «Tomagavk» qanotli raketalari Bosniya va Gersogovina tomon uchirildi.

Mamlakat ichidagi harbiy to'qnashuvlar nafaqat serblar bilan musulmon va xorvatlar o'rtasida, balki xorvatlar bilan musulmonlar o'rtasida ham kuzatildi. Harbiy harakatlar natijasida shaharlar va rayonlar qo'lma–qo'l bo'ldi bu esa qochoqlar oqimini ko'paytirib yubordi. Birgina musulmon-xorvatlarning qarshi hujumga o'tishi natijasida markaziy va g'arbiy Bosniyani 50 mingdan 90 minggacha serblar tark etishga majbur bo'ldi. NATOning bevosita aralashuvi serblarning ushbu urushda mag'lub bo'lishi va yarashuv sulhini tuzishga majbur bo'lishiga olib keldi.

2.2. Deyton kelishuvi va fuqarolar urushining oqibatlari

1995-yilda NATO kuchlari tomonidan berilgan zarbalar natijasida Bosniya serblari zaiflashib qoldi. YeI, AQSh va Rossiya kabi davlatlar Bosniya va Gersogovinada keskinlikni bartaraf etish yo'lida diplomatik urushga zo'r berdi. Natijada bu urushda yangi xalqaro munosabatlar tizimida o'sha vaqtda yagona va yetakchi kuch hisoblangan AQSh muvaffaqiyat qozondi. 1995-yil 21 noyabrda AQShning Deyton shahrida (Ogayo shtatida, bu yer harbiy baza ham hisoblangan) Bosniya va Gersogovinada fuqarolar urushini to'xtatish haqida kelishuvga erishildi va u Parijda 14 dekabr kuni Bosniyaning o'sha vaqtdagi yetakchisi A.Izetbegovich, Serbiya prezidenti S.Miloshovich va Xorvatiya prezidenti Frano Tudjman tomonidan imzolandi. Tarixga bu kelishuv Bosniya va Gersogovinada tinchlik o'rnatish bo'yicha umumiy kelishuv nomi bilan kirdi (Tinchlik kelishuvi). Kelishuv umumiy qism va o'n bitta ilovadan iborat: I.A. Tinchlikni o'rnatishning harbiy aspektlari to'g'risida Kelishuv; I.V. Mintaqaviy barqarorlik haqida Kelishuv; 2. Tuzilmalar o'rtasidagi chegaralar liniyasi va bu bilan bog'liq bo'lgan masalalar haqida Kelishuv; 3. Saylovlar haqida Kelishuv; 4. Bosniya va Gersogovina Konstitutsiyasi; 5. Arbitraj haqida Kelishuv; 6. Inson huquqlari haqida kelishuv; 7. Qochoqlar va ko'chiriluvchi shaxslar haqida Kelishuv; 8. Milliy yodgorliklarni muhofaza qilish bo'yicha komissiya haqida Kelishuv; 9. Bosniya va Gersogovinada rasmiy korporatsiyalarni ta'sisi etish haqida Kelishuv; 10. Tinchlik tartibining fuqarolik aspektlari haqida Kelishuv; 11. Maxsus xalqaro politsiya kuchlari haqida Kelishuv. Hujjatda hududiy taqsimotga oid xaritalar ham ilova qilingan.⁵⁵ Deyton kelishuvining kafolatchi davlatlari AQSh, Rossiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya bo'ldi. Mazkur kelishuvning kuchga kirishi Bosniya va Gersogovinada 1992-1995-yillarda davom etgan fuqarolar urushiga chek qo'ydi.

Tinchlik kelishuvi imzolangandan boshlab Bosniya va Gersogovinaning mavjudligi tashqi boshqaruv institutlari – Tinchlik kelishuvini bajarish bo'yicha

⁵⁵Сковородников А.В. Дейтонские соглашения и завершение гражданской войны в Югославии // <http://image-of-russia.livejournal.com/84213.html>

Kengash, Kelishuvni bajarish bo'yicha kuchlar (NATO) va Yevropa Ittifoqi Kuchlari (YeVROFOR) tomonidan doimiy nazorat qiladigan bo'ldi. Hatto ushbu davlatning asosiy qonuni Tinchlik kelishuviga IV Ilova sifatida paydo bo'lgan edi.

1995-yilgi Konstitutsiyaga ko'ra Bosniya va Gersogovina alohida ma'muriy-davlat tuzilmasini namoyon etadi va shartli ravishda «yumshoq federatsiya» deb ataldi. U ikki tarkibiy qismdan (entitet): Bosniya va Gersogovina Federatsiyasi (musulmonlar⁵⁶ va xorvatlardan iborat) va Serb Respublikasi (Serbiya bilan chalkashtirmaslik kerak). Har ikki tuzilma ham siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalarda yuqori darajada mustaqil boshqaruv vakolatlariga ega bo'lsada, ayni vaqtda Bosniya va Gersogovinada davlat institutlarining vakolatlari anchayin cheklangan edi (Konstitutsiya, III modda, 1 band). Qizig'i shundaki, ushbu hujjatning hech bir o'rnida qayd etilmagan.⁵⁷

«O'tish bosqichi davlati» yoki deyton Bosniyasi uchta tamoyil asosida shakllantirildi. Bular: (1) deyarli to'liq hokimiyatni milliy subyektlarga (tuzilmalarga) berish; (2) barcha markaziy hokimiyat organlarida uchta «asosiy» xalqlarning milliy hukumatlarini o'rtasida aniq (1:1:1) muvofiqlik; (3) davlat boshqaruvining asosiy sektorlari ishida va mamlakatning siyosiy institutlari ustidan nazorat qilishda BMT, YeI va NATOning *vaqtinchalik ishtiroki*.⁵⁸

Amaliyotda ushbu tamoyillar markaziy hokimiyatni tashkillashtirish tizimida amaliyotga joriy etildi. Bosniya va Gersogovinaning Oliy qonunchilik organi – Parlament assambleyasi – ikki palatadan: Xalq palatasi va Vakillar palatasidan iborat. Xalq palatasida jami 15 nafar delegat bo'lib, u ikki tuzilma parlamentlari: Bosniya va Gersogovina Federatsiyasidan 10 ta (besh musulmon va besh xorvat) va Serb respublikasidan 5 nafar delegat saylangan.⁵⁹ Vakillar palatasi to'g'ridan to'g'ri saylanadigan 42 nafar deputatdan iborat bo'lib, ular yuqoridagi

⁵⁶Musulmon atamasi YuSFRda birinchi marta 1961-yilgi aholini ro'yxatga olishda qo'llanilgan bo'lib, u diniy mansublikni emas, balki etnik aloqadorlikni anglatgan. Misol uchun Bosniya va Gersogovina anketalrida «e'tiqodi degan joyga – ateist, millati degan joyga - musulmon» deb yozilgan. 1971-yilgi ro'yxatga olish bo'yicha musulmonlarga elat (narodnost) maqomi berilgan bo'lsa, 1974-yilgi konstitutsiyaga ko'ra ular millat maqomini olishdi. Zamonaviy Bosniya va Gersogovinada musulmonlar o'zlarini bashnyaklar deb ataydilar.

⁵⁷ГуськоваЕЮ. История югославского кризиса (1990 - 2000). - М.: 2001, С 273.

⁵⁸ Пономарева Е. Дейтон: ловушка или дилеммы мирного соглашения или какое будущее ждет Боснию и Герцеговину? // Международная жизнь. – 2011. - № 2. С.118

⁵⁹Гуськова ЕЮ. История югославского кризиса (1990 - 2000). - М.: 2001, С 273.

tuzilmalarga mos ravishda 28 ga 14 nafarni tashkil qilgan. Istalgan qonunni qabul qilish uchun ikki palata roziligi talab etilgan. Barcha qonunlar palatalarda mutloq ko'pchilik deputatlarning ovoz berishi bilan qabul qilingan, agarda unga qarshi 2/3 yoki istalgan tazilma deputatlaridan undan ko'pi qarshi ovoz bermasa. Bu holat Xalq palatasidagi uch milliy delegatsiyalarni o'zlari saylagan ko'pchilik a'zolari yordamida taklif qilingan qaror mazkur xalqning «hayotiy muhim manfaatlarini» buzadi deb e'lon qilish mumkinligiga olib kelardi. Bunday holatda Parlament assambleyasida qaror qabul qilish uchun har bir delegatsiyada ishtirok etayotganlar va ovoz berganlarning ko'pchiligining ovozi kifoya qilgan.

Davlat boshlig'i rolini Bosniya va Gersogovina Prezidiumi bajargan. Uning tarkibi umumiy ovoz berish yo'li bilan tuzilmalardan saylanuvchi uch kishidan (1 ta serb, 1 tadan musulmon va xorvat) iborat bo'lgan. Prezidiumning vakolat muddati 4 yil etib belgilangan. Prezidium a'zolarini o'z ichidan rais saylab olishgan. Prezidium vakolat doirasiga tashqi siyosat, ikki Tuzilma faoliyatini muvofiqlashtirish, harbiy masalalar bo'yicha doimiy qo'mita orqali xar bir subyektning harbiy kuchlari ustidan fuqarolik qo'mondonligi, qo'shma hukumat boshlig'ini tayinlash, byudjet bo'yicha takliflar bildirish va boshqalar kirgan.⁶⁰ Deyton kelishuviga ko'ra sobiq Yugoslaviya bo'yicha xalqaro tribunalda aybdor deb topilgan shaxslarga Bosniya va Gersogovina hududida davlat lavozimini egallash taqiqlangan edi. Shunga ko'ra fuqarolar urushining asosiy yetakchi kuchlari bo'lgan serb va xorvatlarning Radovan Karadjich, Ratko Mladich, Dorio Kordich kabi yetakchilari davlat lavozimlarini egallay olmaydigan bo'ldi.⁶¹ Bu ham mamlakatda to'la tinchlikni qaror toptirish uchun va kelishuvni hayotga tadbiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, Bosniya va Gersogovinada oxirgi prezidentlik saylovlari 2010-yil 3 oktyarbda o'tkazilib, unda oldingi eski nomzodlardan – serb Neboysha Radmonovich va xorvat Jelbko Komshich qayta

⁶⁰ Пономарева Е. Дейтон: ловушка или дилеммы мирного соглашения или какое будущее ждет Боснию и Герцоговину? // Международная жизнь. – 2011. - № 2. С.118

⁶¹ Дейтонская соглашения [Elektron resurs] / Википедия –2002. –// <http://ru.wikipedia.org>. –Murojaat qilingan sana: 11.02.2014.

saylandi. Sobiq musulmon eks prezidenti radikal Xoris Silaydjich o'rniga mo'tadil Bakir Izetbegovich saylandi.

Bosniya va Gersogovinada ijroiya hokimiyati Prezidium va Vazirlar kengashi tomonidan amalga oshirilgan. Bosh vazir lavozimiga nomzodni Prezidium tavsiya etgan va Vakillar palatasi tasdiqlagan. Bunda ham uchta millat vakillarining bir paytda tayinlanishiga erishish uchun harakat qilingan. 1997-yilgi yagona nomzodni tavsiya etish uchun Parlament assambleyasi alohida qonun qabul qildi, unga ko'ra bosh vazirlik mansabi uchta vakillar – musulmon, xorvat va serb o'rtasida tasqsimlanadigan bo'ldi. 2000-yilgi qonunga muvofiq endi Vazirlar kengashini bitta shaxs (oldingidek uchta emas) boshqaradigan bo'ldi, u mansab har sakkiz oyda millatlar vakillari tomonidan o'zgartirilib turilishi belgilandi. Vazirlar mahkamasini ham shkallantirishda 2/3 tamoyili asos qilib olindi, ya'ni vazirlarning uchdan ikki qismi Bosniya va Gersogovina Federatsiyasining vakillari edi.⁶²

Etnik vakillik tamoyili Bosniya va Gersogovina Federatsiyasining davlat tuzumida ham 1994-yil 30 martda kuchga kirgan Konstitutsiya asosida qattiq qayd qilib qo'yildi. Unga asosan Bosniya va Gersogovina Federatsiyasi 10 ta kantonlarga bo'lingan, ulardan beshtasida mutloq ko'pchilikni musulmonlar, uchtasida – xorvatlar, qolgan ikkitasida musulmon-xorvat aralash aholisi tashkil etgan. Boshqaruv shakliga ko'ra Bosniya va Gersogovina Federatsiyasi parlament respublikasidir. Qonunchilik ikki palatali parlamentga tegishli. Vakillar palatasiga 140 deputat kiradi. Ular to'g'ridan – to'g'ri to'rt yillik muddatga millatiga dahldor bo'lmagan holatdagi proporsional saylov tizimi asosida saylangan. Xalq palatasi kantonlar assambleyasi tomonidan tayinlanadigan 30 ta musulmon va 30 xorvatlardan, shuningdek 12 nafar «boshqa millatlar» vakillari, asosan serblardan iborat bo'lgan. Lekin shunday bo'lsada, faqatgina musulmon va xorvat deputatlarigina istalgan qonunchilik hujjatiga veto qo'yish huquqiga ega edi.

Bosniya va Gersogovina Federatsiyasida davlat boshlig'i prezident bo'lib, uning alohida ko'rinishda amalga oshirilgan. Xalq palatasidagi bosniya musulmonlari va xorvatlari delegatlari yig'ilishida prezidentlik va vitse-

⁶² Боснии ва Герцеговина парламенти // URL: <http://www.parlamentfbih.gov.ba>

prezidentlik mansabiga bittadan nomzod ko'rsatgan. Ushbu nomzod avval quyi, so'ng yuqori palata tasdig'idan o'tishi lozim bo'lgan, bunda Xalq palatasidagi musulmonlar bilan birga xorvatlarning ham mutloq ko'pchilik ovozi talab etilgan. Shu tariqa saylangan prezident va vitse-prezident to'rt yil davomida o'z vakolati doirasida faoliyat olib borgan.

Federatsiya ijroiya hokimiyatida ham o'ziga xos etnik boshqaruv muvozanatiga amal qilishga harakat qilingan. Unga ko'ra har bir vazirning, jumladan bosh vazirningham, «boshqa millat» vakilidan o'rinbosari tayinlangan. Ijroiya hokimiyatining ichki tuzilmasida ham vakolatlarning majburiy taqsimotiga amal qilingan, unga asosan 1/3 ministrlik mansablari xorvatlarga tegishli bo'lishi lozim bo'lgan. Undan tashqari, 1/3 musulmon-vazirlar yoki 1/3 xorvat-vazirlar nisbatan muhim qarorlar yuzasidan veto huquqiga ega bo'lgan. Hukumat prezidentning vitse-prezident bilan kelishuvi yoki har bir palataning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan ishonchsizlik votumi bilan tarqatib yuborilishi mumkin bo'lgan. Bosh vazir taqdimiga ko'ra prezident vazirlarni va uning o'rinbosarlarini mansabalaridan olgan.⁶³

Bosniya va Gersogovina Federatsiyasining barcha kantonlari boshqaruvning parlament shaklida bo'lgan. Ikkita «aralash» kantonlarda alohida tuzumga rioya qilingan.

Serb Respublikasida 1992-yil 14 sentyabrda qabul qilingan Konstitutsiyaga rasman amal qilingan bo'lsa ham, ammo Deyton kelishuvini hayotga tadbiq etish jarayonida unga sezilarli o'zgartirishlar kiritildi. Boshqaruv shakliga ko'ra Serb Respublikasi – prezidentlik-parlamentlik respublikasidir. Serb Respublikasining barcha fuqarolari tomonidan proporsional asosda to'g'ridan – to'g'ri saylovi natijasida shakllantiriladigan Skupshina 83 nafar deputatdan iborat bo'lib, qonunchilik hokimiyatini amalga oshirgan. Davlat boshlig'i – prezident va vitse-prezidentlar aholi tomonidan besh yil muddatda, ko'pi bilan ikki muddatga saylangan. Prezident bir paytning o'zida oliy bosh qo'mondon bo'lib, mudofaa

⁶³ Пономарева Е. Дейтон: ловушка или дилеммы мирного соглашения или какое будущее ждет Боснию и Герцоговину? // Международная жизнь. – 2011. - № 2. С.121.

vaxavfsizlik masalasida keng vakolatlarga ega. Shuningdek u Skupshina tomonidan qabul qilingan qonunga veto qo'yish huquqiga, hukumatda inqiroz yuz bergan taqdirda uni tarqatish vakolatiga ega bo'lgan.

Ijroiya hokimiyati prezident va hukumatga tegishli bo'lgan. Bosh vazir prezident tomonidan tayinlangan. Bosh vazir parlamentga hukumat dasturini va vazirlar ro'yxatini havola etgan. Hukumatni parlament saylaganligi boisi, ishonchsizlik bildirgan taqdirda uni tarqatib yuborishga ham vakolati bo'lgan. Deyton Bosniyasi siyosiy tizimida alohida o'rinni Brčko rayoni egallagan.

Umumiy davlat hokimiyatining ijroiya va qonunchilik organlarida milliy sigmentlarning qat'iy proporsionallik tamoyili Bosniya va Gersogovina hukumati va parlamentning koalitsion xarakterdaligini namoyon etgan, aks holda ular umuman faoliyat ko'rsata olmas edi. Hokimiyatni tashkil etgan taniqli etnik guruhlar vakillaridan iborat bo'lgan partiyalar va yetakchilarning katta koalitsiyasi⁶⁴, ayni vaqtda Deyton kelishuvining manfiy va musbat tomonlarini ko'rsatib bergan. Bosniya va Gersogovinada koalison hukumatni shakllantirish va uning faoliyati doimo og'ir qiyinchiliklar bilan amalga oshirilgan. Chunki, «asosiy» xalqlar nafaqat etno-konfessionallik tamoyili asosida taqsimlangan, balki patrialxal madaniyatning hukmronligi bilan, siyosiy tartibotda patrimonial tashkilot an'analarning saqlanishi bilan, mahalliychilik va urug'-aymoqchilikning chuqur ildiz otganligi bilan bog'liq bo'lgan chuqur ichki tarqoqlikni ham namoyon etgan.⁶⁵

Deyton kelishuvining Bosniya va Gersogovinada tomonlar o'rtasida davom etayotgan o't ochishni to'xtatdi. Tashqi bosim ostida imzolangan ushbu tinchlik kelishuvi uchta dushman munosabatida bo'lib kelgan tomonlarni yarashtirish bilan birga, davlat butunligini saqlab qolishga qaratilgan edi. Deyton kelishuvidan so'ng balki jahon tarixida umuman kuzatilmagan boshqaruv shakli qaror topdi (bitta davlat ichida ikkita davlat va uchta millat). Ushbu hujjatni ishlab chiqqanlar, hech

⁶⁴ Пономарева Е. Г. Новые государства на Балканах. М.: МГИМО-Университет, 2010. С. 80-81.

⁶⁵ Пономарева Е. Дейтон: ловушка или дилеммы мирного соглашения или какое будущее ждет Боснию и Герцоговину? // Международная жизнь. – 2011. - № 2. С. 122.

bo'lmagan taqdirda uning muhokamasida ishtirok etganlarda «ishlab chiqilgan kelishuvning ko'pgina jihatlarini hayotning o'zi vaqti kelib qayta ishlab chiqishni taqazo etadi» degan fikrda edilar.

Deyton kelishuvidan so'ng mamlakatda uchta konstitutsiya, ikki armiya va uchta yetakchi siyosiy partiya paydo bo'ldi. Sheriklar hatto vaqt tafovuti tizimi ahqida ham kelisha olmadilar. Serb Respublikasi va Bosniya va Gersogovinaning xorvatlar yashaydigan qismida saylovlar yoz vaqtida amalga oshirilsa, musulmon rayonlarida ushbu paytda qish bo'lardi.

Keyingi voqealar rivojini tahlil qiladigan bo'lsak, uchta sseneriy asosida voqealar rivojini taxmin qilish mumkin. Birinchisi, ko'proq musulmonlarni qondiradi, unga ko'ra Bosniya va Gersogovinada urushgacha bo'lgan siyosiy vositalarni va polietniklikning tiklanishi. Uning hayotga joriy etilishi qochoqlarning va ko'chirilganlarning o'z uylariga qaytishiga bog'liq bo'lib, bu ancha mushkul vazifadir.

Ikkinchi variant Deyton kelishuviga asosan taqdim etilgan "status quo"ni namoyon etadi. Mutaxassislarining fikricha, bu variantning ham hayotga tadbiiq etilishi juda past. Bunga ko'ra Bosniya va Gersogovina dezintegratsiyaga uchraydi, chunki markaziy boshqaruv organlar real hokimiyatdan mosuvo bo'lib, tashqi kuchlarga tayanadi. Serb Respublikasi va xorvatlar qo'shni Yugoslaviya Respublika Ittifoqi va Xorvatiya Respublikasi bilan parallel munosabatdagi huquqlarga ega.

Uchinchisi alternativ variant bo'lib, bunda Bosniya va Gersogovinaning uchta qismga bo'linishi, serblar va xorvatlar etnik vatanlari bilan qo'shilishi va musulmonlar (bosniya) qismiga bo'linishi mumkin, ularning ham qo'shni lar tomonidan yutib yuborilish xavfi bor. To'rtinchi variant sifatida harbiy variantni ko'rsatish mumkin. Lekin barcha tomonlar urushdan charchaganligini hisobga olsak, ushbu variant o'z-o'zidan kun tartibidan ko'tariladi.

Fuqarolar urushining eng ayanchli oqibati (birinchi navbatda Bosniya va Gersogovina, Serbiya va Xorvatiya uchun) *etnik tozalash va qochoqlar muammosi* bo'ldi. Fuqarolar urushi yillarida eks-Yugoslaviya hududida 4,5 mln kishi o'z

vatanlarini tark etigan, 3,3 mln kishi rasman qochoq maqomida bo'lgan. Ommaviy «etnik tozalash» bir necha to'rligida amalga oshirildi. Fuqarolar urushi yillarida ayniqsa musulmonlar va xorvatlarning ommaviy ravishda o'z yashab turgan joylarini tark etish holatlari kuzatiladi. O'z yashab turgan joylarini tark etganlar haqida aniq statistik ma'lumotlar yo'q. Shunday bo'lsa ham 1995-yil sentyabrida Serbiyada 700 ming qochoq serblar ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 150-200 ming nafari Serb Krainasining serblari bo'lgan. Xorvatiyada 400 ming xorvat qochoqlari qayd etilgan. Xorvatiya va Bosniya va Gersogovinadagi urush boshida 200 ga yaqin provaslav cherkovlari vayron qilingan bo'lsa, yana shunchasiga zarar yetkazilgan.

1991-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra Bosniya va Gersogovinada 1,4 mln serb istiqomat qilgan. Fuqarolar urushidan keyin bu raqam juda qisqarib ketdi. Masalan, birgina Sarayevoda urushgacha 230 ming musulmon, 150-160 ming serb va 40 mingga yaqin xorvatlar istiqomat qilgan bo'lsa, XX asrning urushdan keyingi bir necha yillar ichida bu yerda musulmonlarning soni 300-350 mingni, serblar soni 10-15 mingni, xorvatlar soni 15 mingni tashkil etgan. Mostardan va Neretva vodiysidan urush boshlangunga qadar 45 ming serb quvg'in qilingan bo'lsa, 10 ming nafar musulmon urush tugagandan keyin ham vataniga qayta olmaganlar.⁶⁶

Boshqa tomondan olib qaraganda, qochoqlarni joylashtirish vaji bilan Bosniya shimolida va Banya-luki rayonidan xorvatlar va musulmonlar quvildi. 1995-yilning yozida birgina Banya-Luki rayonidan 12 ming xorvatlar quvib chiqarildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, amaliyotda etnik tozalash ko'p jihatdan aholining mahalliy darajadagi ko'rolmaslik bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, yetakchilarning siyosiy o'yinlari bilan ham chambarchas aloqadordir. Harbiy harakatlarning tugatilishi mintaqada etnik tarkibni to'g'rilash metodining yo'qolishiga emas, uning o'zgarishiga olib keldi. Mahalliy hokimiyatlar aholini gomogenizatsiya qilish jarayonini davom ettirib, etnik tamoyil asosida aholini almashishni

⁶⁶Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.: 1998, С.237.

o'tkazishdi. Aholini ko'chirishda tinch yo'l bilan amalga oshirish siyosati ilgari surildi. Etnik bir xilli viloyatlarni tashkil etish uchun fuqarolarni rasmiy almashtirish Vashington kelishuvidan keyin 1994-yil 1 martda musulmonlar va xorvatlar o'rtasida imzolangan Federatsiya haqidagi kelishuvdan so'ng tizimli holatga aylandi.

Deyton kelishuviga muvofiq serblar istiqomat qiluvchi tumanlarni musulmonlar hokimiyati ostiga o'tkazish tezlashtirilgan metodlarda 1996-yil 26 fevralgacha amalga oshirilishi 100 ming nafar serblarning Ilidji, Grbavisi va boshqa rayonlardan chiqib ketishiga olib keldi. Chiqib ketayotgan serblar o'zlari bilan ajdodlari, yaqinlari va qarindoshlarining qabr toshlarini ham ko'chirib olib ketishdi, mozarlarni yer bilan bir xil qilib tekislashdi, chunki ular musulmonlarning qabr toshlarni buzishlaridan qo'rqardi.⁶⁷

BMT vositachilarining ta'kidlashlaricha, Bosniya va Gersogovinaga aholining ommaviy qaytishi uchta asosiy shartni bajargandan so'ng amalga oshishi mumkin. Bular – harbiy va siyosiy sohalarda Deyton kelishuvining hayotga tadbiiq etilishi; inson huquqlari va milliy kam sonlilarning huquqlari bo'yicha majburiyatlarni har tomonlama bajarish; kechagi raqiblarga, harbiy va jinoiy jinoyatchilardan tashqari, manfaatli amnistiya berish. Birgina Bosniya va Gersogovinaga qochoqlarni qaytarish bir necha yilni va bir milliard dollarga yaqin xalqaro yordamni taqozo etadi.

1996-yil 19 yanvar kuni Jenevada sobiq Yugoslaviya bo'yicha ishchi guruhning navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. 40 davlat va 20 ta xalqaro tashkilot vakillari 2 mlnga yaqin fuqarolarni Bosniya va Gersogovinaga qaytarish bo'yicha ikki yillik loyihani muhokama qilishdi. Mazkur operatsiyani uch bosqichda o'tkazish nazarda tutildi:

- birinchi – Bosniya va Gersogovina chegaralariga yaqin joydagi 1-1,4 mln kishilarni uylariga qaytarish;
- ikkinchi – sobiq Yugoslaviyaning boshqa respublikalariga qochib ketgan 670 ming kishini qaytarish;

⁶⁷Гуськова ЕЮ. История югославского кризиса (1990 - 2000). - М.: 2001, С 478

- uchinchi – Yevropaning turli mamlakatlariga chiqib ketgan taxminan 700 ming kishini vatanlariga qaytarish. Shu jumladan Germaniyadan – 320 ming (nemislarning e'tiroficha, ular 400 ming qochoqlarni qabul qilgan va ularga yiliga 3,6 mlrd marka sarflagan), Avstriyadan – 70 mingga yaqin, Italiyadan – 57 ming, Shvetsiyadan – 48,3 ming nafar va boshqalar. Buni amalga oshirish uchun turli xalqaro moliyaviy tashkilotlar mablag' ajratishini ham ma'lum qilishgan.

1997-yil oxiridagi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra faqatgina 381 ming nafar kishi repatriantlarga aylangan, ulardan 22,5 minggi ularning etnik jamoalar armiyasi tomonidan nazorat qilmaydigan royonlarga borib joylashgan.⁶⁸

Sobiq Yugoslaviya respublikalaridagi qochoqlar muammosi BMT tashabbusi bilan 1996 yil aprelida Kotoreda (Chernogoriyada) tashkil etilgan ikki kunlik xalqaro konferensiyaning muhokama asosi bo'ldi.

1997-yil BMTning qochoqlar bo'yicha Oliy komissari «ochiq shahar» loyihasini ishlab chiqdi, unga ko'ra iqtisodiy yordam alohida qochoqlarga emas, etnik mansublikka aloqador bo'lmagan holatda qochoqlarni va ko'chiriluvchi shaxslarni qabul qilishga tayyor bo'lgan munisipalitetlarga beriladigan bo'ldi. Musulmon-Bosniya Federatsiyasining to'rt shahri: Konich, Bukovas, Vogoshcha, Bixach shunday shaharlar deb topildi. Yana 30 ta munisipalitetlar shu maqomga davogar bo'lib chiqqan, ularning ichida bir necha Serb Respublikasi aholi punktlari ham borligini e'tirof etish kerak.

⁶⁸ Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.: Институт антропологии и этнографии, Старый сад, 1998. С.239.

III BOB.YUGOSLAVIYA ITTIFOQ RESPUBLIKASIDAGI (SERBIYAVA CHERNOGORIYA) ETNOSIYOSIY JARAYONLAR – MILLATLARARO KESKINLIKNING KULMINATSIYASI SIFATIDA.

3.1.1. Mamlakatdagi vaziyatning umumiy holati

Yuqoridagi boblarda Yugoslaviya Federatsiyasi parchalanishiga oltita respublikalardan ikkitasi – Serbiya va Chernogoriya qarshi chiqqanligini aytib o'tgan edik. 1992-yil 27 aprelda Serbiya va Chernogoriyadan iborat bo'lgan yangi davlat – Yugoslaviya Ittifoq Respublikasi (YuIR) tashkil etilganligi tantanali sur'atda e'lon qilindi. Shu vaqtda mazkur yangi davlat sobiq Yugoslaviyaning xalqaro huquq subyektidagi vorisi sifatida namoyon bo'lishligi ta'kidlansada, ammo BMT ushbu maqomni tasdiqlashdan bosh tortdi. Shu tariqa yangi, uchinchi Yugoslaviya paydo bo'ldi. Shu kunning o'zida mamlakatning Konstitutsiyasi qabul qilindi. 1992-yil 20 dekabrda bo'lib o'tgan Ittifoq va Respublika Skupshinasi saylovlarida Slobodan Meloshovich boshchiligidagi Sotsialistik partiya g'alaba qozondi. Davlat boshqa sobiq yugoslav respublikalari ko'ndalang kelgan ichki siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va milliy muammolar girdobiga tortildi. S.Miloshovich hukumati mazkur muammolarni hal qilishda o'ziga xos yo'l tutdi. Shubhasiz yangi davlat oldida turgan eng katta muammo o'tmishdoshdan meros qolib ketgan milliy masala edi.

YuIRning tashkil etilish jarayoni qiyinchiliklar bilan bordi. Konstitutsiyaga muvofiq YuIR federativ davlat deb e'lon qilindi. Ikki palatali Skupshina: Respublikalar Vechesi va Fuqarolar Vechesi (Serbiyadan 90 nafar va Chernogoriyadan 30 nafar deputat, chunki Serbiya aholisi Chernogoriyadan 17 marta ko'p bo'lgan). Qonunchilik hokimiyatini amalga oshirgan. Taxlilchilar Serbiya va Chernogoriya o'rtasidagi munosabatni «fasadli federalizm» deb baho berishgan. S.Miloshovichning YuIR prezidenti etib saylanishidan oldin, ya'ni Serbiya prezidenti bo'lgan vaqtda uning qo'lida butun bir hokimiyat to'plangan edi. Keyinchalik YuIR prezidentiga aylangach ana shu holatni butun «ittifoqqa» yoyishga harakat qildi.

Ma'lumki, «ikkinchi Yugoslaviya» (YuFXR, 1963-yildan YuSFR) deb ataluvchi davlat mavjud bo'lgan kezlarda polietnik tarkib va millatlararo munosabatlar mazkur federativ davlatning alohida jihatini tashkil etib kelgan. Yugoslaviya tajribasi shuni ko'rsatib qo'ydi, qaytadan yangi paydo bo'lgan davlatlarda hechkim begona milliy davlatda kam sonli maqomda yashashni xohlamaydi. Barchasi o'z-o'zini boshqarish yoki siyosiy va hududiy muxtoriyat huquqini xohlaydilar. Eks-YuSFR hududi o'rnida paydo bo'lgan yangi davlatlarning dastlabki asosiy muammosi elatlararo munosabatlar bo'ldi. Sobiq Yugoslaviyaning 30 % ga yaqin aholisini etnik kamsonlilar tashkil etgan. Serbiyada ularning nisbatan ko'pchiligi – albanlar, vengrlar, ruminlar, bolgarlar bo'lsa, Xorvatiya va Sloveniyada italyanlar, Makedoniya va Chernogoriyada albanlar tashkil etgan, eng nozik tomoni shunda ediki, ko'p sonli etnik kamchilikdagi aholining ushbu hududga qo'shni bo'lgan xalqlarining davlatlari bo'lgan.

Ushbu hududda yangi davlatlarning tashkil topishi yangi milliy kamsonlilarning paydo bo'lishiga olib keldi, serblar, chernogorlar, slovenlar, xorvatlar, musulmonlar va makedonlar «o'zlarining» respublikalari chegaralari tashqarisida qolib ketdi. Eks-Yugoslaviyaning har bir davlatida etnik guruhlar paydo bo'ldi, ularning eng yiriklari: Xorvatiyada serblar, Serbiyada xorvatlar, Xorvatiya va Serbiyada musulmonlar edilar. Mazkur etnoslar vakillari oldingi Yugoslaviyada milliy kam sonli sifatida qaralmagan, yangi davlatlar paydo bo'lishi bilan ular xorijiyarga aylanib qoldi. YuSFRning dizintegratsiyasi mamlakatning barbod bo'lishiga olib keldi, uning natijasida hech bir xalq mutloq ko'pchilikni tashkil etmaydigan holat vujudga keldi. Yangi davlatlarning qaror topishidan so'ng sobiq Yugoslaviyada bo'lgani singari yangi Bolqon davlatlarida ham milliy kam sonlilar aholining tarkibida sezilarli o'rinni egallaydi.

Serbiya uchun etnik kamsonlilar masalasi shuning uchun ham ahamiyatli ediki, aynan uning hududida YuSFR Konstitutsiyasiga ko'ra milliy kam sonli deb e'tirof etilgan etnik guruhlarining ko'pchiligi to'plangan edi. Yechimi qiyin bo'lgan masalalardan biriga Serbiya tashqarisida qolib ketgan serblar holati masalasi

aylandi. Shuning uchun bo'lsa kerak, serblar u yoki bu ko'rinishda sobiq Yugoslaviya hududida ro'y bergan millatlararo keskinlikning markazida qolib ketishdi.

YuIR tashkil topgach elatlararo munosabatlar masalasi shuning uchun ham dolzarb ediki, bu yerda serblar aholining 65% tashkil etgan. Lekin ushbu muammo alohida kam sonlilar uchun turlicha yondoshuvni namoyon etgan, bir tomondan – milliy kamsonlilarning hududiy konsentratsiyasi darajasi va ularning faolligi, boshqa tomondan ushbu sohadagi davlat siyosatiga bog'liqdir.

Ma'lumki, sobiq Yugoslaviyada milliy kam sonlilar tushunchasi borasida quyidagicha yondoshuv bo'lgan. YuSFR Konstitutsiyasiga muvofiq Yugoslaviyadagi barcha etnoslar milliytashkiliy funksiyani namoyon etgan va ittifoq respublikasi ko'rinishidagi o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarga (serblar, xorvatlar, slovenlar, makedonlar, chernogorlar va musulmonlar) va soniga miqdoridan emas, balki YuSFR hududidan tashqarida o'z davlatchiligi mavjud bo'lgan elatlarga yoki milliy kam sonlilarga bo'lingan. Shunga asosan milliy kamsonlilar tarkibiga kam sonli xalqlar va anchayin yirik bo'lgan etnik guruhlar ham kirib qoldi. Bu birinchi navbatda albanlarga tegishli bo'lib, 1991-yilgi ro'yxatga olishga ko'ra ularning soni YuSFRda 1 mln 700 mingdan ortiq bo'lgan, ya'ni bu raqam makedonlar va chernogorlardan ko'p bo'lib, slovenlar va musulmonlarning miqdoriga teng bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, eks-Yugoslaviyada milliy muammolar, xususan, milliy kam sonlilar masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Konstitutsiyava boshqa qonunchilik xujjatlari doirasida buni tartibga olishga harakat qilingan, shuningdek bu masalada qo'shni davlatlar bilan xalqaro kelishuvlar imzolangan. Masalan, fan, madaniyat, ta'lim sohalarida xuddi shunday xujjatlar Italiya, Astriya, Vengriya bilan imzolangan.

Milliy kam sonlilarning huquqlarini hayotga tadbiq etish uchun sharoit yaratish mamlakatni jamoalarga, shu jumladan milliy, va ularning kompetensiyasini kengaytirish hisobiga amalga oshirilgan. Serbiya tarkibida ikkita muxtor o'lka – Kosova va Metoxiya hamda Voyevodina tashkil etilgan. Har bir

o'lka taxminan 2 mlndan ziyod aholiga ega. Boshqa tomondan qaraganda Voyevodina – Serbiyaning nisbatan rivojlangan rayoni, Kosovo va Metoxiya bo'lsa – eng qashshoq qismlaridan biri. Voyevodina aholisning asosiy qismini yoshi kattalar tashkil etsa, Kosovo aholisning katta qismini yoshlar tashkil etadi, shuning uchun ham yevropa bo'yicha o'sish tempi eng yuqori nuqtalardan biridir, o'rta hisobda har bir oilaga 6 tadan farzand to'g'ri keladi.⁶⁹

Kosovo va Metoxiyada albanlar ancha zich joylashgan bo'lib, aholining 90-95 % ni tashkil etadi va hududning 80%da istiqomat qiladi. Voyevodina bo'lsa etnik jihatdan anchayin qurama hudud bo'lib, bu yerda aholining 55 %ni tashkil etuvchi serblardan tashqari vengrlar, ruminlar, slovaklar, rusinlar, chexlar va boshqalar istiqomat qiladi. Voyevodinada millatlararo tolerantlik xususiyati sezilib turilsa, Kosovoda albanlar avval boshdan boshlab Belgrad hukumati bilan ziddiyatda bo'lib kelmoqda. 1974-yilgi Konstitutsiyaga muvofiq ularning huquqlari biroz cheklangan bo'lsa, 1990-yilgi Serbiya Konstitutsiya ularning milliy manfaatlariga to'la zid keldi. Chunki, unda mamlakat rahbariyatining katta markazlashtirish va milliy birlik siyosati ilgari surilgan edi. Serbiya hukumati etnik kam sonlilar muammolarni hal qilish uchun 1992-yil 3 iyulda *Kam sonlilar huquqlari bo'yicha Komissiyani* tashkil etdi.

Yugoslaviya Ittifoq Respublikasi tashkil topish arafasida, ya'ni 1991-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishga ko'ra milliy tarkibi quyidagicha bo'lgan: (Ilovadagi 2-jadvalga qaralsin)

Ijtimoiy, siyosiy tartibotlarning o'zgarishi natijasida mintaqada yangi davlatlarning qaror topshi va ularda millatlararo munosabatlarning keskinlashuvi o'zaro to'qnashuvlarga va aholining migratsiyasiga olib keldi. Ularning juda ko'pchiligi rasmiy qochoq maqomi bilan ataldi. YuIRda Qochoqlar bo'yicha Komissariatning ma'lumotga ko'ra 1995-yilda 430 ming nafar kishi rasman qochoq maqomida ro'yxatga olingan. 1996-yil mayiga kelib ushbu raqam 600 ming nafarga yetganligi aytiladi. Birinchi manba ma'lumotlariga ko'ra 249 ming

⁶⁹ Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.: Институт антропологии и этнографии, Старый сад, 1998. С. 290.

nafar (57,8%) qochoq Bosniya va Gersogovinadan, 149 ming (34,6%) – Xorvatiyadan, 32 ming (7,6%) – Sloveniyadan qochib o'tgan. Bu ham YuRIda millatlararo munosabatlarning yanada keskinlashib ketishiga olib keldi.

3.2. Kosova inqirozi va uning oqibatlari.

XX asrning 70-yillaridan boshlab Kosovo elatlararo keskinlikning markaziga aylana boshladi. Serblarning va chernogorlarning ushbu hududdan emigratsiyasi natijasida hududda mutloq ko'pchilikni albanlar tashkil eta boshladi. «Etnik tozalik» degan g'oya o'lka alban aholisi orasida keng tarqala boshladi. Alban millatchilariva «etnik toza Kosovo» tarafdorlari bo'lsa, aksilserb aksiyalarining kuchaytirib yubordi. Ular serblarning ishga chiqishiga qiyinchilik tug'dira boshladi, mol-mulkini talon-taroj qilishdi, uy-joylariga o't qo'yishdi va xatto pravoslav mozarlarini tahqirlasha boshlashdi.

Shubhasiz, eks-Yugoslaviyada millatlararo munosabatlarning eng kulminatsiyasi va fojealisi aynan Yugoslaviya Ittifoq Respublikasining Kosovo muxtor o'lkasida sodir bo'ldi. Mazkur ziddiyatning kelib chiqishini birgina sabab bilan izohlab bo'lmaydi. Bu keskinlikning yetilib chiqishini atroflicha tahlil qilish lozim. Quyidagi asosiy jihatlarni izohlash orqali muammoning asl ildizlariga biroz tushuncha berish mumkin:

1. Etnik omillar. Bolqondagi, xususan Kosovodagi ziddiyatlarni to'liq tushunib yetish uchun avvalo etnoguruh, etnomillatchilik va etnomilliy ziddiyatlarni aslida qanday kategoriyadiligini bilish lozim. Ushbu masalaga tizimli yondoshuv «etnoguruh tabiati haqidagi munozaraga nuqta qo'yadi. Etnoguruh deyilganda jamiyatning dinamik bir qismi tushunilib, uning a'zolarini askriptiv va genotip belgilarni birlashtiruvchi asoslar sifatida tushunadilar, ular umumiy kelib chiqishga yoki umumiy tarix birligiga ishonadi va ahamiyatli mulklar, madaniy o'ziga xoslik va siyosiy jihatdan tan olinishlarini himoya qilish uchun o'z-o'zini tashkillashtirishga qodirdirlar».⁷⁰

XX asrning oxirgi o'n yilligiga kelib o'zining eng cho'qqisiga chiqqan Kosovo inqirozini ko'p jihatdan etnomilliy keskinlik deb xususiyatlash mumkin, qaysiki etnonatsionalizm deyilganda davlat tortilgan etnik guruhlar o'rtasidagi ziddiyat tushuniladi. Bunday shakldagi ziddiyatda etnoguruhlarining biri millatchilik

⁷⁰ Чернобровкин И.П. Этнонациональный конфликт: природа, типы и социальный контроль. Ростов-на-Дону, 2003. С. 4-15

mafkurasini o'ziga asos qilib olib, o'zining siyosiy tan olinishini ikkita shakl ko'rinishida talab etadi. Bular – siyosiy muxtoriyat (to milliy davlatini tuzguncha) yoki aholi tarkibida etnoguruhning siyosiy ustunligi. Har ikki holatda ham ziddiyat etnik liniya bo'yicha amalga oshadi va bir tomonning talabini bajarish jamiyatning davlat tuzilshini o'zgarishiga olib keladi.⁷¹ Etnonatsianalizm tamoyili davlat tuzilishining etnik va hududiy chegaralari bilan mos kelishda izohlanadi.

Kosovo inqirozi mintaqaviy miqyosda avj oldi va tezda davlat sarhadlaridan tashqariga chiqib ketdi. Ushbu ziddiyatga tashqi kuchlar, birinchi navbatda davlatning bevosita chegaradosh qo'shnilarining ishtiroki ham kuzatilmoqda. Qochoqlarga ko'rsatilayotgan gumanitar yordam bo'lsa ular uchun moyana vazifasini o'tab berdi, qochoqlar jangarilarning zahira kadriga aylandi. Tashqi kuchlar ushbu mintaqaviy keskinlikka urushayotgan tomonlarning biriga, shu o'rinda kosovarlarga (Kosovo albanlari), moddiy, harbiy va ruhiy yordam berish orqali kirib borgan. NATO mamlaktlarining sobiq Yugoslaviya ishlariga XX asr 90-yillarida harbiy jihatdan aralashuvi bir tomonlama bo'lib, asosan ayirmachi guruhlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan edi.⁷² Yugoslaviya federal hukumatining vaziyatni nazorat qilishga qodir emasligi mahalliy siyosiy ekstremizmning Kosovo hududida islom mas'habidagi xalqaro ekstremistik tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan terroristik faollashuviga olib keldi. Bu esa Kosovodagi ziddiyatni mahalliy kuchlar bilan barqarorlashtirishga jiddiy zarba bo'ldi va xalqaro ko'lamdagi ziddiyatga aylanishiga olib keldi, shuningdek Bolqonda mintaqaviy xavfsizlik beqarorligining asosiy omiliga aylandi.

Tarixiy-demografik omillari. Kosovo inqirozining kelib chiqish sabablaridan yana biri bu shubhasiz tarix bilan bog'liqdir. Balki bu jihatni eng asosiy deb ta'kidlasa o'rinli bo'lar. Chunki, shu holatga kelishning o'zi uzoq tarixga egadir. Tarixni bilmasdan turib serb mentalitetida Kosovo yerlarining avval Yugoslaviya, so'ngra Serbiya tarkibida shunchalik darajada himoya qilish sababini

⁷¹ Чернобровкин И.П. Этнонациональный конфликт: природа, типы и социальный контроль. Ростов-на-Дону, 2003. С. 4-15

⁷² Альтерматт У. Этнонационализм в Европе. М. 2000. С.48.

tushunolmaymiz. XII asrdan boshlab Kosovo yerlarida Serb davlati tarkibiga kirgan. 1389-yilda Kosovo maydonidagi serblarning turklar bilan to'qnashuvi serblarning usmonli turk bosqinchiligiga qarshi kurashining ramzi bo'lib qoldi va hatto serb eposi va adabiyotida o'z izini qoldirdi. Kosovo hududida ko'plab serb madaniyati yodgorliklari – provaslav cherkovlari, monastirlari va boshqa muqaddas qadamjolari saqlanib qolgan.

Bolqonda bugun o'zaro urushga kirgan barcha tomonlar o'zlarining milliy tarixini mavjud siyosiy vaziyatni oqlash uchun mafkuraviy vosita sifatida foylanib keldi. Masalan, albanlar slavyanlar Bolqon yerlariga XI asrdan keyin kirib keldi degan tarixiy fakti o'zlariga asos qilib olgan. Serb davlatchiligining paydo bo'lishi XII asrga borib taqaladi.⁷³ Bo'sh hali egallanmagan yoki kelgindilarga qaraganda mahalliy aholining madaniy taraqqiyot darajasi pastroq bo'lgan hududlarga kelib joylashgan sharqiy va g'arbiy slavyanlardan farqli ravishda janubiy slavyanlar shaharlar, xramlar, kutubxonlar, qonunlar to'plami va umuman davlatchilik asoslari va sivilizatsiya deb atash mumkin bo'lgan alomatlar mavjud bo'lgan hududga kelib o'rnamshdi. Shuning uchun ham janubiy slavyanlar (birinchi navbatda serblar) o'z madaniyati va davlatchiligini bo'sh joyda emas, poydevor qo'yib bo'lingan joyda tuzishdi.⁷⁴ Serblarning uzoq muddat davomida albanlar hududlarida hukmronlik qilishi alban aholisining degradatsiyasiga (tanazzuliga) olib keldi.

Hududning usmoniy turklar tasarrufiga o'tishi (Kosovo jangidan keyin) bu yerda mahalliy aristokratiya va aholi musulmonlar, ularning aksariyatini shu dinni qabul qilgan slavyanlar tashkil etgan, siqib chiqarila boshlandi. Natijada provaslav e'tiqodidagi serblarning Kosovo hududlarini tark etishining birinchi oqimi ro'y berdi. Ular tark etgan hududlarga chorvador-vlaxlar va albanlar kelib joylashadi. Albanlar Kosovo va Metoxiya hududlariga aynan usmonli turklarning ta'siri bilan bir qismi kirib keldi. Kosmetga kelib joylashganning aksariyatini alban musulmonlari tashkil etgan, alban katoliklari u yerga juda kam miqdorda kelgan

⁷³ История южных и западных славян. В 2 т. Т.1. Средние века и новое время. Учебник / Под ред. Г.Ф.Матвеева и З.С.Ненашевой. М., 2001 С.65.

⁷⁴ Виппер Р. Ю. История древнего мира. М. 1994. С.116

(3-4%)⁷⁵, provoslav albanlar umuman bu yerda bo'lmagan. Alban-musulmonlari ayrim imtiyozlardan (xirojdan va davlat ehtiyoji uchun chorva berishdan ozod etilgan) foydalanganlar. Buni ko'rgan serblarning bir qismi islomni, u bilan bog'liq ravishda alban tilini qabul qila boshlagan.

Lekin bu hali serb amaldorlarining to'la albanlashdi deb xulosa chiqarish imkonini bermaydi. 1690-yilda serblarning ikkinchi chiqish to'liqini bo'lib o'tdi, bunga usmonli turklarning bostirib kelayotgan avstriya armiyasiga yordam berganlik bahonasi bilan xristianlarni ta'qib qilishi sabab bo'ldi. Katta qurbonliklardan qochish maqsadida Pech patriarxi Arseniya III chaqirig'i bilan provoslav e'tiqodidagi aholining ommaviy ravishda Kosova, Janubiy va Markaziy Serbiyadan chiqib ketib, unga chegaradosh bo'lgan Avstriya monarxiyasi tarkibidagi Dunay bo'yiga joylashdi. Bu ko'chish Serblarning buyuk ko'chishi nomi tarixga kirdi. Birgina Kosovoning o'zidan shunda 37 mingga yaqin oila emigratsiya qilindi.⁷⁶ XVIII asr oxiriga kelganda barcha albanlarning yarmiga yaqini islomni qabul qilib bo'lishgan edi. Kosovodagi etno-diniy vaziyat shu taqlid keskin o'zgarib bordi.

XIX asrda ham Kosovoda alban aholisining ko'payishi davom etdi. Bunga bir jihatdan Albaniya usmonli turklar bosqinchligi sabab bo'ldi. Shu asrning oxiriga borib albanlar hudud aholisining taxminan 50% ni tashkil eta boshlagan.⁷⁷ Kosovo etnik xaritasining o'zgarishi bilan serb-alban qarama-qarshiligi ham kuchayib borgan. Bunda vaziyat ko'proq o'sha vaqtda serblar zarariga yurgan. Ba'zan hatto usmonlilarning o'zi serblarni himoya qilishga majubr bo'lgan. 1876-1877-yillardagi serb-turk, 1877-1878-yillardagi rus-turk urushidan keyin Kosovo va Metoxiyadagi serblar O.V.Valesskiyning ta'biri bilan aytganda,

⁷⁵ Валецкий, О. В. Истоки и течение сербо-албанской борьбы за Косово и Метохию / О. В. Валецкий // Искусство войны [Elektron resurs]. – 2008. // http://artofwar.ru/w/waleckij_o_w/istokiitechenieserbsko-albanskojborxbyzakosowoimetohijuchastxperwaja.shtml. – Murojaat qilingan sana: 10.02.2014.

⁷⁶ История Косово [Elektron resurs] / Википедия –2002. –// <http://ru.wikipedia.org>. –Murojaat qilingan sana: 11.02.2014.

⁷⁷ История Косово [Elektron resurs] / Booquar. – 2012. // <http://www.booquar.com/europe/122-kosovo.html>. – Murojaat qilingan sana: 27.02.2014.

haqiqiy geosidga giriftor qilingan. Prishtinadagi rus konsulligi talabi bilan usmonli turklar albanlarni to'xtatdi.⁷⁸

Lekin, XX asr boshlari buyukserbchilik milliy g'oyasining tantanasi bilan boshlandi. Ikki Bolqon urushlaridagi muvaffaqiyatli ishtirok, Birinchi jahon urushidagi nisbatan muvaffaqiyatsiz qatnashuv Serblar, Xorvatlar, Slovenlar qirolligining tuzilishiga va unda serblarning siyosiy jihatdan yetakchi mavqeyi egallashlariga zamin bo'lib xizmat qildi. Siyosiy ustunlikni serblar etnik ustunlikka aylantirish tadbirlarini amalga oshirishga kirishdi (XX asr boshlarida SXS Qirolligida serblar bor yo'g'i 33% ni tashkil etgan). Kosovodagi albanlar masalasi eng muhim masalalar qatoriga kirdi. Kosovo musulmonlari va albanlarining milliy chiqishlarini Belgraddagi qirollik hukumati shavqatsizlik bilan bostirdi va o'lkaga serblarni ko'chirish yo'lini tutdi. Hatto Kosovoga general Vrangel boshchiligidagi rus oqemigrantlarini chegara qo'riqlov xizmatini bajarish uchun joylashtirishga urinish bo'ldi. Lekin bu amalga oshmadi. 1930-yillarda qirollik hukumati ushbu masalani bir necha bor Turkiyaga alban emigratsiyasini kengaytirish va o'lkaga chernogor dehqonlarini ko'chirish tadbiri bilan yechishga urinib ko'rdi⁷⁹. Alban kayfiyatidagi kosovarlar bunga Kosovoni himoya qilish Qo'mitasi tashkil etish bilan javob berdi.

Ikkinchi jahon urushini albanlar Antanta kuchlari tomonidan bir vaqtlar ularda uyg'otilgan buyukalban g'oyasini hayotga tadbiq etishda foydalandi. Natijada Kosovoda serblarga nisbatan terror siyosati boshlanib ketdi. Serblar bu zarbadan qutilish uchun qochib ketish taktikasini qo'lladi.

1942-yil aprelda Rashke va Mitroviseda serb qochoqlarining vatanlariga qaytishi muammolariga bag'ishlangan konferensiyada ularning soni 100 ming nafarga yetganligi va ulardan 20 mingga qaytarish masalasi muhokama qilingan edi.⁸⁰ Lekin ushbu raqamlarda aniq bir rasmiy xulosa yo'q. Undan tashqari 1941-

⁷⁸ Валецкий, О. В. Истоки и течение сербо-албанской борьбы за Косово и Метохию / О. В. Валецкий // Искусство войны [Elektron resurs]

⁷⁹ История Косово [Elektron resurs] / Booquar. – 2012. // <http://www.booquar.com/europe/122-kosovo.html>. – Murojaat qilingan sana: 27.02.2014.

⁸⁰ Шестаков, А. Геноцид сербского населения Косово и Метохии во время 2-й мировой войны / А. Шестаков // Православие [Elektron resurs]. – 2003. // <http://www.pravoslavie.ru/archiv/kosovogenocide.htm>. Murojaat qilingan sana: 01.03.2014.

1942-yillar davomida Kosovo va Metoxiyada o'ldirilgan serblarning soni ham aniq emas. 1941-yilning aprelidan 1942-yilning avgustigacha albanlar tomonidan 10 mingga yaqin serblar o'ldirilganligi keltiriladi⁸¹. I.Broz Titoning buyrug'iga ko'ra Kosovoga 400 ming nafar Albaniya qochoqlari qabul qilingan bo'lsa, Kosmetdan Yugoslaviyaning boshqa rayonlariga 200 ming serb ko'chirildi.

Alban raxbariyatining ishga joylashtirilishi I.B.Titoning milliy «kalit» buyrug'iga ko'ra amalga oshirildi, unda bitta serbga o'nta alban to'g'ri kelishligi aytilgan edi. Titoning o'zi ushbu tadbirni shaxsan nazorat qilgan, u alban oilasida tug'iladigan har to'qqizinchi farzandga qarindosh hisoblanishini ta'kidlagan. Yugoslav yo'l boshchisining bunday siyosat yuritishiga ikkita asosiy sabab bor edi. Birinchidan, Tito Kosovo va Metoxiyani berish hisobiga Albaniyani Yugoslaviya Federatsiyasi tarkibiga kiritishni umid qilgan edi. Lekin bu yirik taktik xato bo'ldi. Albaniya diktatori Anvar Xoja federatsiyaga qo'shilishga shoshilmagan bo'lsa ham, ammo albanlar yashayotgan yugoslav hududiga befarq emas edi. Titoning alban taraflik siyosatining yana bir sababi serblarda bo'lgan buyuk serbchilik mafkurasiga bo'lgan munosabatining salbiyligidir.⁸²

Bunday siyosat Kosovoning «albanlashuviga» o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Har o'n yillik tahlilga e'tibor qaratadigan bo'lsak, albanlarning muttasil ko'payib, serblarning kamayib borganligini kuzatish mumkin: (Ilovadagi 3-jadvalga qaralsin)

Jami alban elatining Kosovo mintaqasidagi populyatsiyasi 1948-1991-yillarda 498 242 dan 1 596 072 nafarga yetdi, ya'ni 3,2 marta ko'paydi.⁸³ Shu vaqt davomida Kosmeta aholisi tarkibida albanlarning ulushi 60 % dan 82,6 % ga ko'tarildi. Albanlar 1 091 ta aholi manzilgohlarida etnik ko'pchilikni tashkil etishgan.

I.B.Tito davrida Kosovo aholisi milliy tarkibining o'zgarishiga iqtisodiy omillar ham sabab bo'lgan. Ma'lumki Kosovo eks-Yugoslaviyaning eng qoloq

⁸¹Гуськова ЕЮ. История югославского кризиса (1990 - 2000). - М.: 2001, С.674 .

⁸² Никитин И. Н. Косово: этнические трансформации в историческом процессе <http://aspirans.com/kosovo-etnicheskie-transformatsii-v-istoricheskoy-protsesse-nikitin-i-n/>

⁸³Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.: Институт антропологии и этнографии, Старый сад, 1998. С.29.

o'lkalaridan biri hisoblangan. Asosiy sanoat markazlari Belgrad va shimolda joylashganligi bois serblarning ko'pchiligi shu yerga ko'chib ketishgan. Uning ustiga Kosovoga kambag'al Albaniyadan to'xtovsiz qochoqlar kelib turgan. O'lka kambag'al bo'lsa ham federatsiya sharoitida moddiy ta'minotdan chetda qolmasligi ushbu qochoqlar uchun ayni muddao bo'lgan. 1971-1981-yillar oralig'ida Kosovoni yana 50 ming serb tark etib ketishgan.⁸⁴

XX asrning 80 yillaridan boshlab Kosovo albanlariga munosabat o'zgardi (bunga I.B.Titoning vafoti ham sabab bo'ldi). Yugoslaviyaning yangi yo'l boshchisi Slobodan Meloshivich o'zining serbchilik kayfiyati bilan ajralib turgan va ushbu o'lka borasida hech kim munosabatga kirishishni istamas edi. Lekin Kosovo va Metoxiyani qayta «serblashtirish» yo'lidagi barcha urinishlar zoye ketdi, chunki vaqt qo'ldan boy berib qo'yilgan edi. Alban ekstremistlari Kosovoni etnik jihatdan toza o'lkaga aylantirish yo'lida har qanday usuldan foydalanishdi. Ular qatoriga serblar va chernogorlarni og'ir mehnatli ishlarga jalb etish, xo'jalik va yashash uylarini vayron qilish va o't qo'yishda, yaylovlari payhon qilinish, chorvalariga ziyon yetkazildi. Bu ham serblarning Kosovoni tark etishlarini tezlashtirgan omillardan biri bo'ldi. Serblarga o'tkazilgan demografik bosimning boshqa bir yo'li Yugoslaviya chegarasidan ko'plab Albaniya fuqarolarining noqonuniy migratsiyasi hisoblanadi. o'lkada haqiqiy albanlar soni serb hukumatidan yashirilganligi bois ushbu yangi migrantlar ro'yxatdan o'tishga shoshilmagan.

Bunday holatlar o'lkada aholining kuchli gomogenizatsiyasiga olib keldi. Bu birinchi navbatda etnik qorishiq aholi manzilgohlarining keskin kamayib ketishida kuzatiladi. XX asrning 90-yillar boshlarida umumiy soni 1445 ta bo'lgan aholi manzillaridan 1154 tasi etnik jihatdan toza (bir xil) bo'lgan, 195 tasida mutlaqo bitta millat istiqomat qilgan. Ya'ni o'lkaning 93,4 % aholi manzilgohlarida bitta millat vakillari mutloq ko'pchilikni tashkil qilgan. 1961-yildan 1981-yilgacha bo'lgan oraliqda aholi aralash istiqomat qiluvchi

⁸⁴ История Косово [Электронный ресурс] / Википедия – свободная энциклопедия. – 2002. // <http://ru.wikipedia.org>. – Murojaat qilingan sana: 10.02.2014.

manzilgohlar soni ikki marta kamaydi, lekin hech bir joyda serblarning o'sish ko'rsatgichi kuzatilmadi.⁸⁵

Slobodan Meloshivich hukumatining zo'r berib Kosovoda serblarning miqdorini ko'paytirish harakati natija bermadi. Hatto ular shu maqsadda qo'shni respublikalarda istiqomat qilayotgan serblarga ushbu o'lkaga ko'chib kelishlari uchun xayrihohlik ko'rsatdi. Shunga qaramay bu paytga kelib o'lkada serblarning miqdori fojeali tarzda kamayib ketdi. M.Yu.Martinova 90-yillar o'rtalarida albanlarning sonini 1,5 mln yoki o'lka aholisining 90% deb keltiradi. Lekin A.P.Barishev ushbu raqamni Belgrad dushmanlari keltirgan deb ta'kidlab o'tadi. U YuIR Statistika Boshqarmasi ma'lumotlariga tayanib, albanlar 1998-yilning o'rtalarida 917 ming kishi (66%) bo'lganligini, serblar, chernogorlar, ya'ni o'zlarini yugoslavlar deb atovchilar uning fikricha 250 mingni tashkil etgan. Undan tashqari bu yerda yana 70 ming musulmon, 20 ming turk va 100 mingga yaqin lo'lilar istiqomat qilgan. Shundan kelib chiqadiki, A.P.Bartishevga ko'ra o'lkada jami aholi 1998-yilda 1 357 ming nafarni tashkil etgan.⁸⁶ Lekin, bu shubhali raqamligini keltirgan M.Nikitin Demografik tadqiqotlar Markazi ma'lumotlariga asosan Kosovoning 1997-yildagi aholisi 2,3 mln kishi bo'lganligini keltirib o'tadi.⁸⁷

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki Belgradda ham Kosovo albanlarini aylablashga ancha-muncha asoslar yetarli bo'lgan. Serblar aksilalban siyosatini ikkinchi jahon urushi yillarida serblarga albanlar tomonidan qo'llanilgan genosid va undan keyingi yillarda o'tkazilgan bosim bilan asosladilar.

Siyosiy omillari. Kosovo hududida etnomilliy keskinlikning kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Yugoslaviyada hukmron ijtimoiy-siyosiy tizimda nuqsonlarning mavjudligi. Bular birinchi navbatda jamiyat hayot faoliyatining barcha jabhalarini

⁸⁵ Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.: Институт антропологии и этнографии, Старый сад, 1998. с.311

⁸⁶ Барышев, А. П. Организация Объединённых Наций и мировая политика. 1945-2005. Косовский кризис / А. П. Барышев // Идеология и политика [Elektron resurs]. – 2009. // <http://www.barichev.ru/public/oon11.htm>. Murojaat qilingan sana: 10.01.2014.

⁸⁷ Никитин И. Н. Косово: этнические трансформации в историческом процессе <http://aspirans.com/kosovo-etnicheskie-transformatsii-v-istoricheskoy-protsesse-nikitin-i-n#/>

qamrab olgan ma'muriy buyruqbozlik tizimi va siyosiy nazorati bilan tavsiflanib, uning natijasida erkin milliy taraqqiyot va tenglikka asoslangan barqaror millatlararo hamkorlik siqib qo'yildi;

- sotsialistik lagerning barbod bo'lishida (SSSR va Yugoslaviyaning oldingi ma'muriy-siyosiy chegaralarining buzilib ketishi) ushbu makonda istiqomat qilib kelayotgan turli etnik guruhlarining g'oyaviy yo'nalishini va qadriyatlar tizimini keskin o'zgartirib yubordi;

-hokimiyat-taqsimot vakolatlari va manbalarining partiya-davlat nomenklaturasidan o'z kurashining asosiy maqsadi deb milliy revanshni hisoblangan milliy-ozodlik harakatlari qo'liga o'tishi.

Hechshubha yo'qki, yugoslav sotsializm modeli Sharqiy Yevropa va xususan sovet sotsializmidan bir muncha farq qilar edi. Sotsialistik Yugoslaviyada totalitar byurokratizm o'z-o'zini boshqaruvchi plyuralizm bilan cheklangan edi, asosiy e'tibor federal munosabatlar taraqqiyotiga qaratilgan. Lekin Yugoslaviyada sotsialistik tartibot «mahalliychilik va millatchilik bilan to'qnashdi».⁸⁸

Kosovo inqirozi qochib bo'lmasligi ravshan bo'lgach (XX asrning 80-yillari),federal hukumat Kosovodagi keskinlikni bartaraf etish uchun o'sha vaqtda imkoni va qo'llash mumkin bo'lgan bir qancha usullarni qo'lladi:

- harbiy holat va komendantlik soatining joriy qilinishi;
- Kosovo albanlarini umumittifoq iqtisodiy jarayonlariga jalb etish uchun yangi iqtisodiy dasturlar ishlab chiqildi;
- federalizm va mahalliy boshqaruvni rivojlantirishning nisbatan nozik va yangi pozisiyasini belgilash;
- Kosovodagi albanlar jamiyatini milliy asosda emas, sinfiy asosda shakllantirishga urinish.

Lekin, federal hukumatning ushbu tashabbuslari joylargacha yetib bormadi. Oqibatda federal hukumatda «siloviklar» deb ataluvchining qarashi g'alaba qozondi, ular markazlashtirish va muammoni hal qilishda kuch ishlashtirishning

⁸⁸ Кривогуз И. М.. Крушение «реального социализма» в Европе и судьбы освободившихся народов. М. 2001 С.89

tarafdori edilar. Serbiyada respublikaning huquqiy, hududiy va ma'muriy yagonaligi va muxtor o'lkalar huquqlarini cheklashga qaratilgan kompaniya avj oldirildi. Aytish kerakki, kosovarlarni ham o'zlari ham tinch yo'l bilan muammoni hal qilishni istamadilar, 90-yillar boshlarida ular serb rahbariyati siyosatiga federal hokimiyatni boykot qilish siyosati bilan javob berdi. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- hokimiyatning qo'shimcha manbalarini tuzishi (o'z parlamenti va hukumati, alban mudofaa kuchlari);
- Kosovoda alban tilida dars beruvchi maxfiy qo'shimcha ta'lim tizimi markazlarining tashkil etilishi;
- alban jamiyatida tarbiya, ta'lim orqali separatistik qadriyatlar rivojlantirildi va serblar bilan munosabatlar ta'qiqlandi;
- Kosovodagi etnoelitalar tomonidan serblar bosqinchi, yovuzlik qiluvchi va begona madaniy etnos kabi tashviqotlar avj oldirildi.

mazkur etnomilliy ziddiyatda alban separatizmining ikkita asosiy oqimlarini ko'rsatib o'tish lozim::

- Rugova va «Kosovo demokratik ligasi» dagi tarafdorlari (kosovo muammosini siyosiy hal qilishni saylovlar, referendumlar, o'lkaning mustaqilligini xalqaro miqyosda tan olinishi, rasmiy serb hukumatini boykot qilish orqali hal qilishga intilganlar).
- Demachi va uning tarafdorlari, ular Kosovo muammosini ekstremistik usulda hal qilish tarafdorlari. (o'lkada urush keltirib chiqarishga tashviqot qilish va federal hukumatni Yugoslaviya tarikbidan Kosovoni «qo'yib yuborish»ga majbur qilish).

Sobiq Yugoslaviyada XX asrning 90-yillarida boshlanib ketgan ijtimoiy-siyosiy keskinliklar sharoitida Kosovodagi vaziyat ham murakkablashib bordi.1990-yilda Serbiya hukumati Kosovoda favqulotda holat joriy qildi.1991-yil 22 sentyabrida albanlar msutaqil Kosovo respublikasini tuzganligini e'lon qilishdi.Prezident sifatida Ibragim Rugova saylandi.22 oktyabr kuni ushbu respublikaning mavjudligi Albaniya tomonidan tan olindi.Shundan boshlab

Kosovo albanlari to'la mustaqillikka erishish maqsadida harbiy separatchi guruhlarni shakllantirib bordi. Bolqondagi «yangi bomba» 1996-yilga kelib «portladi». Shu yili albanlarning barcha separatchi qurolli guruhlari Kosovoni ozod qilish armiyasiga birlashdi va u o'lkada partizanlik-terroristik urushni boshlab yubordi. YuIR dastlabki ularga qarshi kurashda faqatgina politsiya kuchlaridan foydalandi. Lekin 1998-yilda kurashga Yugoslaviya armiyasi jalb qilindi. Ommaviy repressiya, tinch aholining halok bo'lishi va ikki urushayotgan tomonlar tarafidan o'tkazilgan etnik tozalashlar natijasida minglab odamlar qurbon bo'ldi. 1999-yil 15 yanvarla Rachakdagi voqealar NATOda Yugoslaviyaga nisbatan harbiy kuchlarni qo'llash haqida birinchi marotaba masala kun tartibiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Alban tomonining versiyasiga ko'ra bu manzilda yugoslav kuchlari tomonidan tinch aholi vakillarining ommaviy qirg'ini uyushtirilgan. 1999-yil 24 martdan 10 iyungacha NATO YuIR ga qarshi harbiy operatsiyani amalga oshirdi. Ushbu operatsiyaga sobiq Yugoslaviya ishlari bo'yicha xalqaro tribunalning Kosovodagi albanlarga nisbatan insoniyatga qarshi jinoyatda yugoslavxavfsizlik kuchlari aybdor deb topilishi asos bo'ldi. Harbiy operatsiya natijasida Kosovodagi urush tugadi, lekin ziddiyat to'la bartaraf etilmadi.⁸⁹

NATOning ushbu harbiy operatsiyalari natijasini tahlil qilib, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

- Ushbu harbiy operatsiya harbiy ziddiyatlarning yangi sahifasini ochib berdi, qaysiki davlat yoki harbiy tashkilot BMT sanksiyasiz harbiy aralshuvni amalga oshirishi mumkin bo'lib qoldi (BMT Xavfsizlik Kengashi Yugoslaviya NATO aviatsiyasi tomonidan bombardirovka qilina boshlanganligidan 11 kun o'tib «Ittifoq kuchlari» harbiy operatsiyasini o'tkazishga sanksiya bergan edi).
- Harbiy harakatlar urushayotganlarning biri manfaati yo'lida olib borildi, bu bilan ikkinchi ishtirokchining talablari rad etildi.

⁸⁹Сухарь А.А. Этнонациональный конфликт в Косово в контексте региональной безопасности на Балканах <https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=1&cad=rj>

- Siyosiy kon'yunktura xalqaro huquq me'yorlari yuqori ekanligini ko'rsatib qo'ydi va bu BMTda bo'layotgan tizimli inqirozni oydinlashtirib qo'ydi. Ushbu operatsiya BMT tomonidan agressiya sifatida baholanmadi, uning ustiga AQSh mazkur operatsiyaning zarur ekanligini asoslab berishga erishdi.

Garchi Kosovodan federal kuchlar olib chiqib ketilgan bo'lishiga qaramasdan, lekin ilgari surilgan asosiy siyosiy masala – provinsiyadagi gumanitar inqirozni barataraf etish – nafaqat bajarilmay qoldi, balki yugoslav armiyasining chiqib ketishi va uning o'rniga tinchlikparvar kuchlarning kiritilishidan so'ng serb-qochoqlari oqimining ko'payishi bilan yanada murakkablashib ketdi.⁹⁰

Yugoslav inqirozi ziddiyatlar xarakterini aniq belgilash uni bartaraf etishning eng muhim faktori hisoblanishini ko'rsatib qo'ydi. Kosovoda YuIR kuchlari olib chiqib ketilgach mamlakatda S.Miloshovichga qarshi muxolifat ancha jonlanib qoldi. 2000-yildagi saylovlar natijasida yana S.Miloshovich g'alaba qozongan bo'lsa ham, lekin uning natijalarini hokimiyat rasmiy deb topmadi. Demokratik muxolifat Miloshovichni iste'foga ketishga majbur etish orqali Serbiya «chetga uloqtirilgan» lar safidan chiqish bilan birga G'arbiy Yevropa va AQSh tomonidan siyosiy va iqtisodiy blokadaning bekor qilinishini ta'minladi. Serbiya va Chernogoriyadan iborat Yugoslaviya Ittifoq respublikasi ham bu orada barbod bo'lib, alohida-alohida respublikalarga aylandi.⁹¹

Xo'sh Kosovoning o'zida qanday o'zgarishlar kuzatildi. 2004-yil 23 oktyabrda muvaqqat ma'muriyat nazorati ostida Kosovo parlamentiga saylovlar o'tkazildi. Parlamentning 120 deputatlik mandatining 100 tasi albanlarga, qolgan 20 tasi etnik kam sonlilarga, shu jumladan 10 ta o'rin serblarga ajratildi.

2008-yil 17 fevralda Kosovo parlamenti bir tomonlama tartibda Kosovoning mustaqilligini e'tirof etdi. 2009-yil 1 dekabr kuni Gaagadagi Xalqaro

⁹⁰ История Косова [Elektron resurs] / Википедия –2002. –// <http://ru.wikipedia.org>. –Murojaat qilingan sana: 11.02.2014.

⁹¹ 2003-yildagi Ittifoq Kosntitusiyasiga muvofiq har ikki davlat ham referendumga ko'ra o'z mustaqilligini e'lon qilish huquqini qo'lga kiritdi. Yugoslaviya Ittifoq Respublikasi Serbiya va Chernogoriya davlatlari Ittifoqi (erkin)ga aylandi. Chernogoriyada 2006-yilgi referendumga ko'ra 3 iyun kuni Churnogoriya ushbu erkin ittifoq tarkibidan chiqqanligini va mustaqilligini e'lon qildi. 5 iyun kuni Serbiya o'z mustaqilligini e'lon qildi va bu kun Serbiya va Chernogoriya davlat Ittifoqi barham topgan kun sifatida tarixga kirdi.

sudda Kosovoning bir tomonlama e'lon qilgan mustaqilligining qonuniyligi haqida tinglov boshlandi. 2010-yil 22 iyulda BMT Xalqaro sudi Kosovo rahbariyatining Serbiyadan mustaqil ekanligi haqidagi qarorini qonuniy deb topdi. Hozirgi kunda Serbiya bilan Kosovoning maqomi ustidagi muzokaralar siyosiy doirada davom etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib ayrim xulosalarni bildirish mumkin. Ushbu xulosalar Kosovoda etnomilliy ziddiyatlarning rivojlanishi va tabiati haqida umumiy natijaviy mulohaza chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, tarixiy, madaniy va diniy mansublik jihatidan turli-tuman etnoslarning bitta hududda mavjudligi ko'p jihatdan tarixiy shart-sharoitlar nuqtai nazaridan munosabatlarda sovuqlikka va muammolarga olib keladi (chunki tarixning turli davrlarida rivojlanishning turlicha darajasi bo'lganligini e'tirof etish lozim). Bu esa mintaqada doimiy ravishda beqarorlikning xavfini keltirib chiqaradi. Bunday o'lkalarda etnik ifodaga xizmat qiladigan, lekin davlat yaxlitligini separatizm g'oyalari va alohida tadbirlar orqali buzmaydigan davlat siyosati va etnik hamkorlik mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Ikkinchidan, hozirgi globallashayotgan dunyoda millatchilik va etnik separatizm g'oyalari anchayin agressiv xarakterni kasb etib bormoqda, u turli xil siyosiy-geografik areallarni qamrab olgan holatda bir tomondan bir qator davlatlarning hududiy butunligining beqarorlashuvida faktor bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bugungi dunyoning siyosiy tuzumini nuqsondan holi emasligini ko'rsatib qo'ymoqda. Lekin dunyo taraqqiyotining zamonaviy bosqichida xalqaro hamjamiyat ziddiyatlarning yangi avlodiga to'qnash kelmoqda.

Uchinchidan, Serbiya hukmron doirasida etnik muammolarni barqarorlashtirishning zamonaviy va kompromis tashxislari yo'qligi ushbu masalaning bugungi kungacha yechilmasdan qolishiga olib keldi.

Xulosa

Salkam bir asr yashagan Yugoslaviya davlati bugun tarixga aylandi. Tarixshunoslikda birinchi, ikkinchi va uchinchi Yugoslaviyalar deb shartli ataluvchi davlat oxir-oqibat butunlay nomini saqlab qolmagan mamlakatga aylandi. Ma'lum ma'noda bunga tashqi kuchlar natijasida majburiy yo'l bilan, mintaqada yashovchi xalq va elatlarning manfaati hisobga olinmagan holatda davlatning tashkil etilishi sabab bo'ldi. XX asrning ikkinchi yarmida ushbu davlatda kechgan millatlararo nizolar va ularning oqibatlari haqida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

- XX asrning ikkinchi yarmida davlatni qamrab olgan milliy va etnik muammolar ikkinchi Yugoslaviyaning parchalanishiga olib kelgan eng asosiy omillardan biri bo'ldi. Uning ustiga mamlakat parchalanishi milliy nizolarga amalda chek qo'ymadi, aksincha yangidan faollashuviga (ba'zi hududlarda, masalan alban aholisining va muxtoriyat maqomi muammosi) olib keldi. Federal davlatning qismlarga – respublikalarga bo'linib ketishi yangi chegarlar va yangi diasporalarga bo'linishga olib keldi. Tub zamirida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy asoslar yotuvchi millatlararo qarama-qarshiliklar jamiyatda tuzilmaviy keng miqyosdagi qayta qurish bosqichida yanada keskinlashib ketdi.

- Davlat parchadanishidan so'ng yuzaga kelgan Bosniya va Gersogovinadagi elatlararo keskinlik tashqi kuchlar bosimi natijasida Deyton kelishuvi bilan ziddiyatlashgan tomonlar o'rtasidagi harbiy harakatlar to'xtatildi. Aynan shu jihatdan olib qaraganda bu tinchlikka qo'yilgan dastlabki qadam edi, lekin mintaqada haqiqiy tinchlik o'rnatilmadi, chunki tashqi kuchlar bosimi bilan imzolangan kompromiss kelishuv yugoslav fojeasiga olib kelgan chuqur sabablarni bartaraf eta olmasdi. Sobiq yugoslav respublikalarining hech biri Deyton kelishuviga qanoat qilmadi va bu narsa inqiroz ichkaridan haydalganligini, lekin to'liq bartaraf etilmaganligini anglatar edi.

- Milliy masala eks Yugoslaviyada oxiri o'ylanmasdan amalga oshirilgan tadbirlar natijasida yanada keskinlashib ketishga olib keldi. Ayniqsa federatsiya Asosiy qonuni (1974-yilgi Konstitutsiya) milliy tanglikni battar chigallashtirib yubordi. Yugoslaviya izdoshi sifatida tashkil topgan Serbiya bo'lsa, bundan to'g'ri xulosa chiqarmagan holda 1990-yilgi respublika Konstitutsiyasi bilan muxtoriyatlarni respublikaning ajralmas qismi deb e'lon qilishgacha borib yetdi.

- Federal davlat parchalanishining milliy masalaga ko'rsatgan eng katta ta'siri shu bo'ldiki, aksariyat millat va elatlar o'z nomi bilan ataluvchi davlat chegaralaridan tashqarida qolib ketdi va diaspora yoki milliy kam sonli xalqlar degan maqomga tenglashtirildi. Ayniqsa Serbiyadan tashqarida qolib ketgan serblar milliy nizolarda eng keskin masala bo'lib qolayotir. Voqealar tahlili davlat chegaralaridan tashqarida qolib ketgan serblarni o'zlari o'rnashgan hudud bilan yangi tashkil topgan davlatga borib qo'shilishdan ko'ra, o'z diasporasida fuqarolik huquqlarining ta'minlashiga erishishga intilish (buning uchun xalqaro kafolat olish yo'li bilan) qaysidir bosqichda ular uchun istiqbolli bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Avval deyarli hukmron bo'lgan etnoslardan tarkib topgan yangi disporalar – postyugoslav va postsovet doirasi uchun umumiy muammolar sifatida qaralishi mumkin. Mazkur holatda Rossiya barcha ruslarni (sobiq ittifoqdosh davlatlar hududida qolib ketgan) bitta davlatga yig'ishga urinishdan voz kechdi. Yugoslaviyada bo'lsa mazkur masala shu usul bilan hal qilinmadi.

- Bosniya va Gersogovina yana qancha vaqt davomida koalitsion yo'l bilan boshqarishda davom etishi noma'lum bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoni tinch yo'l bilan hal qilishga urinish hozircha muvaffaqiyatli kechgan bo'lsada, davlatda birdaniga uchta etnoslar – serblar, xorvatlar va musulmonlarning mavjudligi baribir qachondir ushbu federativ davlatning parchalanishiga olib kelish ehtimolini keltirib chiqaradi. Bunda yana bir katta muammo sobiq Yugoslaviya hududida faqat musulmon elatlari

o'zlarini anglatuvchi davlatchilik tuzilmasiga ega emas (Kosovo albanlarini ushbu turkumga kiritib bo'lmaydi). Bu ham qachondir yangi keskinliklarga olib kelish havfini keltirib chiqaradi.

- Yugoslaviyadagi milliy va etnik inqirozlar mamlakat parchalanishidan keyin aholining etnik tamoyillar bo'yicha uyushib qolishiga olib keldi, ziddiyatli zonalarda bo'lsa amalda aralash aholi rayonlari qolmadi. Millatlararo nikohlar keskin kamayib ketdi. Bolqondan tashqarida janubiy slavyanlar diasporasi soni ko'payib ketdi.

- «Ikkinchi Yugoslaviya» davlati tuzilishining asosini tashkil etgan federativ tuzilma postyugoslav sarhadlarida ham yo'qolib ketmadi, balki quyidagi birlashmalarda: Yugoslaviya Ittifoq Respublikasida (Serbiya va Chernogoriyadan iborat) va Bosniya va Gersogovina Federatsiyasida, Deyton kelishuvidan keyin ushbu davlat Musulmon-Xorvat Federatsiyasidan va Serb Respublikasidan iborat tarzda tashkil etildi va shu holatda davom etmoqda.

- Yugoslaviyadagi milliy keskinlik yana shuni tasdiqlab berdiki, millatlararo munosabatlarning murakkab muammolarini chegaralarni yo'qotish va har qanday to'lov evaziga bo'lsa ham ko'pmillatli davlat tashkil qilish, garchi bu holat «tarqoq xalqlarni birlashtirish» yoki milliy kam sonlilarning huquqlarini himoya qilish singari tadbirlar bilan oqlansada, baribir urushga olib boradi. Nazariy jihatdan ushbu oqim tarafdorlari barcha muammolarni tinch usullar bilan hal qilinadi deb hisoblansada, amalda bu muammolarni hal qilish qurol kuchi bilan hal etilishiga kirishib ketiladi. Bunda asosiy qurbon etnik mansublikdan qat'iy nazar yana tinch aholi vakillari bo'ladi.

- Yugoslaviyadagi milliy keskinlik yana bir bor yolg'iz ushbu davlatning ichki ishi emasligini ko'rsatib qo'ydi. Butun bir mintaqada ushbu keskinlikning xavfi ostida bir necha yil yashab keldi. Ushbu muammolarni hal qilishda xalqaro munosabatlar tizimida yangi usul – qurol kuchi bilan jazolash tadbiri uyushtirishni boshlab berdi. Shundan boshlab xalqaro

munsoabatlarda davlatning ichki ishlariga qurol bilan aralashish keng qo'llaniladigan tadbirlardan biriga aylandi (Afg'onsiton, Iroq buning misoli bo'ladi)

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. // Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida. 6-jild. Toshkent, 1998.
2. Абрамов А.В. Подходы к урегулированию этнополитических и этноконфессиональных конфликтов на постюгославском пространстве: Автореф. дисс. канд. политич. наук - М., 2006.
3. Барышев, А. П. Организация Объединённых Наций и мировая политика. 1945-2005. Косовский кризис / А. П. Барышев // Идеология и политика [Электрон ресурс]. – 2009. // <http://www.barichev.ru/public/oon11.htm>
4. Бжезинский Зб. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. – М.: Международные отношения, 2002. – 256 с.
5. Боснии ва Герцеговина парламенти // URL: <http://www.parlamentfbih.gov.ba>
6. Валецкий, О. В. Истоки и течение сербо-албанской борьбы за Косово и Метохию / О. В. Валецкий // Искусство войны [Электрон ресурс]. – 2008. // http://artofwar.ru/w/waleckij_o_w/istokiitechenieserbskoalbankskojborxbyzakosowoimetohijuchastxperwaja.shtml
7. Васильева Н., Гаврилов В. Балканский тупик?.. (Историческая судьба Югославии в XX веке). М., 2000. 480-с.
8. Виноградов В.Н. Об исторических корнях «горячих точек» на Балканах // Новая и новейшая история. М., 1993. №4,5
9. Виппер Р. Ю. История древнего мира. М. 1994.
10. Внук В.К. Балканский кризис в контексте распада биполярного мира: Автореф дисс. канд. политич. наук. – М., 2002.
11. Волков В.К. Трагедия Югославии // Новая и новейшая история. – М., 1994. - №4- С.3-32.

12. Восстание меньшинств. Косово. Молдавия. Украина. Грузия. Курдистан. М. 2006.
13. Ганин М.В. Югославский конфликт и роль ЕС в его урегулирование: Автореф дисс. канд.политич.наук. – М., 1994
14. Глушко В.С. Политика Европейского Союза в отношении Югославского кризиса 1991-1995 гг: Автореф дисс.канд.историч.наук – Екатеринбург, 2002.
15. Говоров Н. Балканский узел противоречий: История и современность. // Новая и новейшая история. - 1993. - № 3.
16. Груздев И.С. Предпосылки и причины распада Социалистической Федеративной Республики Югославии: Автореф. дисс. канд.историч.наук – М., 2001
17. Гуськова Е. Ю., Карасев А. В. Балканская трагедия: 90-е годы XX века. // Очаги тревоги в Восточной Европе. М., 1997. С. 294-295.
18. Гуськова Е.Ю. Трагедия Югославии: 90-е годы XX века // Очаги тревоги в Восточной Европе (Драма национальных противоречий). - М., 1994. С. 292-316.
19. Гуськова Е.Ю. История югославского кризиса (1990 - 2000). - М.: 2001.
20. Ивашов Л. Г. Косовский кризис 1999 года. Бросок на Приштину // Новая и новейшая история. 2004. № 5. С. 87–114.
21. История Косово [Электрон ресурс] / Википедия – свободная энциклопедия. – 2002. –// <http://ru.wikipedia.org>.
22. История Косово [Электрон ресурс] / Booquar. – 2012. // <http://www.booquar.com/europe/122-kosovo.html>.
23. История южных и западных славян. М., 1979
24. История южных и западных славян: В 2т.: Учебник / Под ред. Г.Ф.Матвеева и З.С.Ненашевой. М., 2001.
25. Кандель П. Как развалилась Югославия? //Обозреватель – Observer 1992, № 3
26. Кара-Мурза С.. Экспорт революции. М. 2005

- 27.Кирилина Л. А., Пилько Н. С., Чуркина И. В. История Словении. СПб.: Алетейя, 2011. 480 с.
- 28.Конституции государств Центральной и Восточной Европы / Отв. ред. Н. В. Варламова. – М., 1997. – 578 с.
- 29.Лещиловский И.И. Исторические корни югославского конфликта // Вопросы истории. – М., 1994. - № 5. – С.40-56
- 30.Лукашенко Е.А. Распад Югославии, его уроки и международные последствия (политологический анализ): Автореф дисс.канд.политич.наук – М., 1997.
- 31.Мартынова М.Ю. Балканский кризис: народа и политика. - М.: Институт антропологии и этнографии, Старый сад, 1998 - 465 с.
- 32.Минеев П.Д. СФРЮ: Итоги и перспективы развития. М., 1975
- 33.Никитин И. Н. Косово: этнические трансформации в историческом процессе <http://aspirans.com/kosovo-etnicheskie-transformatsii-v-istoricheskoy-protseesse-nikitin-i-n#/>
- 34.Новейшая история стран Европы и Америки. XX век: Учеб.для студ. высш. учеб. заведений: В 3 ч. Ч. 3: 1945–2000./ Под ред. А.М. Родригеса и М.В. Пономарева. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004. – 256 с.
- 35.Пономарева Е. Дейтон: ловушка или дилеммы мирного соглашения или какое будущее ждет Боснию и Герцеговину? // Международная жизнь. – 2011. - № 2. С.118
- 36.Пономарева Е.Г. Распад югославской модели федерализма: Автореф дисс.канд.политич.наук – М., 1995.
- 37.Сковородников А.В. Дейтонские соглашения и завершение гражданской войны в Югославии [//http://image-of-russia.livejournal.com/84213.html](http://image-of-russia.livejournal.com/84213.html)
- 38.Социалистическая Федеративная Республика Югославия, М., 1985

39. Сухарь А.А. Этнонациональный конфликт в Косово в контексте региональной безопасности на Балканах <https://www.google.com/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=1&cad=rj>
40. Терзич С. Историческая подоплека событий в Косово и Метохии. – Обозреватель, №10. 1998.
41. Тодоров Н. Балканский узел противоречий. История и современность // Новая и новейшая история. - 1993. - № 3. - С. 75-78.
42. Тягуненко Л. В. Союзная Республика Югославия на рубеже XXI века // Новая и новейшая история. 2001. № 3. С. 28–45.
43. Уэст Ричард. Иосип Броз Тито. Власть силы.
44. Фрейдзон В.И. История Хорватии. Краткий очерк с древнейших времен до образования республики (1991 г.) – СПб.: Алетейя, 2001. – 318 с.
45. Хортов А.А. Политика США в боснийском конфликте и косовском кризисе: Автореф дисс. канд. историч. наук – Ярославль, 2011
46. Центрально-Восточная Европа во второй половине XX века. Интервью главного редактора издания, вице-президента РАН, директора ИМЭПИ РАН академика А. Д. Некипелова (при участии ответственных редакторов: I тома – д.и.н. И. И. Орлика, II тома – д.и.н. Б. А. Шмелева, III тома – д.э.н. С. П. Глинкиной) главному редактору журнала «Новая и новейшая история» академику Г. Н. Се-востьянову // Новая и новейшая история. 2003. № 1. С. 3–17.
47. Человек на Балканах в эпоху кризисов и этнополитических столкновений XX века. СПб.: Алетейя, 2002. – 480 с.
48. Чиркович С.М. История сербов. Перевод с сербского. М., «Весь Мир», 2009 – 448 с.
49. Шестаков, А. Геноцид сербского населения Косово и Метохии во время 2-й мировой войны / А. Шестаков // Православие [Электрон ресурс]. – 2003. // <http://www.pravoslavie.ru/archiv/kosovogenocide.htm>.

- 50.Югославия в XX веке: Очерки политической истории. М.: «Индрик», 2011. 888 с.
- 51.Югославия в огне: Документы, факты, комментарии (1990-1992): Современная история Югославии в документах. Т.1 / Отв. Ред. Е.Ю.Гуськова. – М., 1992. - 372 с.
- 52.Югославский кризис и Россия: Документы, факты, комментарии: Современная история Югославии в документах. Т.2 / Автор, составитель, отв. ред. Е.Ю.Гуськова. – М., 1993. - 504 с.

Ilovalar.

1-jadval

Respublikalar	1981-y	1985-y	1991-y
	Ming kishi		
YuSFR*	22 471	23 124	23 528
Bosniya va Gersogovina SR	41 36	4316	4364
Chernogoriya SR	586	613	615
Xorvatiya SR	4606	4657	4760
Makedoniya SR	1916	2017	2033
Sloveniya SR	1895	1925	1963
Serbiya SR (avtonom o'lkalardan tashqari)	5701	5787	5824
Kosova SMO'	1595	1760	1954
Voyevodina SMO'	2036	2049	2034

*1963-yil 7 apreldagi Ittifoq skupshinasi qabul qilgan yangi konstitusiyaga muvofiq davlat nomi Yugoslaviya Sosialistik Federativ Respublika (YuSFR) deb o'zgartirildi.

Xalq va elatlar nomlari ⁹²	Soni		Serbiya va Chernogoriya aholisining umumiy soniga nisbatan % hisobida	
	1948-yil	1948-yil	1991-yil	1991-yil
Xorvatlar	176 672	176 672	2,6	1,1
Makedonlar	18 050	47 118	0,3	0,5
Slovenlar	21 482	8 630	0,2	0,1
Musulmonlar	124 332 (1961- yilda)	336 025	1,5	3,2
Albanlar	551 436	1 714 768	8,0	16,5
Vengrlar	433 763	344 147	6,3	3,3
Slovaklar	73 144	66 863		
Lo'li-siganlar	52 343	143 519	0,6 (1971-y)	1,4
Ruminlar	63 133	42 364		
Bolgarlar	59 485	26 922		
Rusinlar va ukrainlar	22 690 birgalikda	18 099- rusinlar, 5 090- ukrainlar		
Vlaxlar	93 440	17 820		
Turklar	1 914	11 264		
Qolgan etnik guruhlar		1991-yilda jami 13 000, shundan 5 387 nemis, 2 883 chex, 2 694 rus, 1 438 polyak, 1 018 nafar grek		

⁹²Ushbu jadval ma'lumotlari Martinovanning «Bolqon inqirozi: xalqlar va siyosat» kitobida keltirilgan ma'lumotlardan umumlashtirib alohida jadval holiga keltirildi.

3-jadval

Yillar	Serblar	Albanlar	Qolgan elatlar
1871	64	32	4
1899	44	48	8
1921	26	66	8
1939	34	60	5
1948	27	68	5
1961	23,6	67,2	9,2
1971	18,4	73,7	7,9
1981	13,2	77,5	9,3
1991	11	82	7
2000	7	88	5
2007	5	92	3 ⁹³

⁹³ Никитин И. Н. Косово: этнические трансформации в историческом процессе <http://aspirans.com/kosovo-etnicheskie-transformatsii-v-istoricheskoy-protsesse-nikitin-i-n/>